

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

IJTIMOIY-IQTISODIY FANLAR METODIKASI KAFEDRASI

**TA'LIM MUASSASASIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MODULI BO'YICHA**

*(Umumiy o'rta ta'lif maktablari ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinnbosarlari malaka oshirish kursi uchun)*

O'QUV MAJMUA

Samarqand

Ushbu ishchi o‘quv reja va dasturi Ilmiy-metodik kengash yig‘ilishining 2020-yil 4-yanvardagi 1-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **M. Fayziyeva** –Samarqand VXTXQTMOHM Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasini o‘qituvchisi.

Ishchi o‘quv reja va dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasining 2020-yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri:

G. Tagayev

«KELISHILDI»

O‘quv jarayonini tashkil etish
bo‘limi boshlig‘i:

A.Xo‘jamqulov

MUNDARIJA

- I. Ishchi dastur
- II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari
- III. Nazariy mashg‘ulot materiallari
- IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari
- V. Ko‘chma mashg‘ulotlar
- VI. Keyslar banki
- VII. Glossariy
- VIII. Adabiyotlar ro‘yxati

I

[ISHCHI DASTUR]

KIRISH

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib etishishini ta’minalash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan buniyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak mahoratga ega bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da hamda 2017-2018 yilda qabul qilgan boshqa farmon va qarorlarida, jumladan 2018 yil 5 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagи “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruв tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son Farmoni va PQ-3931-sonli qarorlarida umumiy o‘rtta ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim muassasini ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish va ta’lim- tarbiya sifatini ko‘tarishda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularga pelagogik shart-sharoitlar yaratishda rahbarning kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha asosiy ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ushbu maqsadning hamda belgilangan vazifalarning ijobiy yo‘nalish kashf etishi, mamlakatni ma’naviy rivojlanishini ta’minalashi uchun eng avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda ma’naviy tafakkurni rivojlantirish, aqliy salohiyat ma’naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun ularga ta’lim tarbiya beruvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirishga bog‘liq.

Ushbu maqsadning hamda belgilangan vazifalarning ijobiy yo‘nalish kashf etishi, mamlakatni ma’naviy rivojlanishini ta’minalashi uchun eng avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda ma’naviy tafakkurni rivojlantirish, aqliy salohiyat ma’naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun ularga ta’lim tarbiya beruvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirishga bog‘liq.

“Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy jarayonini boshqarish” moduli umumta’lim maktablari ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘ribbosarlari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u ushu toifa tinglovchilarga o‘quv jarayonlarni boshqarishning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: maktab direktori o‘rinbosarlari ish faoliyatini samarali tashkil etish va uni amalga oshirish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarda maktab boshqaruvining zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, etakchi konsepsiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- maktab boshqaruvi tizimining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish;
- zamonaviy talablar asosida maktab direktori o‘rinbosarlari faoliyatini samarali tashkil qilishga yo‘naltirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar. Tinglovchi:

- ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga doir me’yoriy hujjatlarni;
- boshqaruv jarayonidagi muammolarni va ularning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishni;
- ta’lim sifati tushunchasi, ta’lim sifatini belgilovchi omillar, ta’lim sifatini ta’minlashda rahbar o‘rnini;
- maktabda ijro intizomining yuritilishini;
- ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida, maktab hujjatlarini ishlab chiqishni, to‘g‘ri rasmiylashtirishni, ularning qonuniy yuritilishini;
- davlat ta’lim standartlari va pedagog kadrlarning malaka talablarini;
- dars tahlilini, uni kuzatish va ochiq dars mashg‘ulotlari tashkil etish tartibini;
- barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini- o‘zi boshqarishni tashkil etish;
- ta’lim muassasasida ma’naviy - tarbiyaviy axloqiy ishlarni ilmiy- metodik asosda tashkil etilishi;
- tashqi va ichki monitoring ob’ektlarini;
- attestatsiyaning maqsad va vazifalarini ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy tarbiyaviy ishlar sinf rahbarining vazifalarini bilishi;
- ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda tegishli me’yoriy hujjatlarni qo‘llay olish;
- axborot-tahliliy hujjatlarning asosida ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
- samaradorlikni amalga oshiradigan shaxs xislatlaridan foydalanish;
- maktabning boshqaruv jarayonidagi muammolari, dolzarb masalalari, joriy va kundalik ishlarini bajarish;
- davlat ta’lim standartlari asosida o‘quvchilar bilimi monitoringini amaliyotda yurita olish;
- pedagogik jamoa bilimini tizimli monitoringini yuritish va ularning malakasini

oshirishni tashkil etish;

- o‘quvchilar bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va uni bartaraf etish;
- ta’lim sifatini monitoring qilishda ota-onalar qo‘mitasi, vasiylik kengashi va mahalla bilan samarali ishslash;
- barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini- o‘zi boshqarishni tashkil etish;
- monitoring natijalarini umumlashtirish va istiqbolli boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- sinf rahbarini ish faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmalariga;
- O‘zbekiston Respublikasida uzlucksiz ta’limni tashkil etish va uzviyligini ta’minlashga doir me’yoriy hujjatlar asosida ta’lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirishni tadbiq qilish;
- axborot-tahliliy ish mobaynida qo‘llaniladigan yondashuv va tizimli tahlil usullaridan foydalanish;
- ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha faoliyat tahlili, ta’lim sifati monitoringi va tahlili, ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha takliflar taylorlash;
- ta’lim muassasasida ma’naviy - tarbiyaviy axloqiy ishlarni ilmiy- metodik asosda tashkil etilish;
- o‘quv jarayonini boshqarishda ilg‘or horijiy tajribadan foydalanish;
- muassasa imijiga qo‘yiladigan talablar asosida samarali boshqarish;
- zamonaviy ta’lim muassasasi rahbari qiyofasiga ega bo‘lish;
- ta’lim sifatini monitoringi va baholash natijalari asosida istiqbolli rejalar ishlab chiqish;
- o‘quvchilar bilimini davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini nazorat qilish;
- barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini- o‘zi boshqarishni tashkil etish;
- kompleks monitoring o‘tkazish amaliyoti va aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha manzilli boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga;
- malaka oshirish kursida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- kasbiy faoliyatiga tegishli o‘quv-metodik materiallarni to‘plash va saralash;
- kommunikativ, o‘z o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishslash, mas’uliyat va moslashuvchanlik, inklyuziv ta’limni olib borish, o‘quv-tarbiya jarayonini holisona baholash *kompetensiyalari* ega bo‘lishi lozim. Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan tashkil etish asoslari moduli nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg‘ulotlarda ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llanilishi:

Amaliy mashg‘ulotlarda metodik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlar,

aqliy hujum, guruqlik fikrlash, kichik guruqlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa blok modullari bilan bog‘liqligi va uzviyiligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’lim jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” bloki modullari, “Ilg‘or ta’lim- tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat” bloki modullari, “Ta’lim muassasalarini boshqaruvining asosiy yo‘nalishlari” moduli bilan uzviy bog‘langan holda direktor o‘rinbosarlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini o‘sishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modul “Uzbekistonda ta’lim-tarbiya jarayonlarining huquqiy- me’yoriy asoslari”, “Ta’lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat” va “Ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” bloklaridan keyin o‘rganiladi. Unda yuqoridagi bloklarda o‘rganilgan mazmun yo‘nalishlari va uslubiy jihatlarini mablag‘ direktori o‘rinbosarlarini faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Modulning ta’limdagi o‘rni

Tnglovchilarga boshqaruv tizimini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va jahon tajribasi bilan tanishtirish asosida to‘plangan ma’lumotlar orqali bilim berish va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashdan iborat.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa blok modullari bilan bog‘liqligi vauzviyiligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’lim jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” bloki modullari, “Ta’lim- tarbiyat texnologiyalari va pedagogik mahorat” bloki modullaribidan uzviy bog‘langan holda umumta’lim maktablari ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini o‘sishiga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modul “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy- me’yoriy asoslari”, “Ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat” va “Ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” bloklaridan keyin o‘rganiladi. Unda yuqoridagi bloklarda o‘rganilgan mazmun yo‘nalishlari va uslubiy jihatlarini ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarini faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

“Ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

| Nº | Modul mavzulari | Nazariy | Amaliy | Mustaqil ta’lim | Ko‘chma mashg‘ulot | Jami |
|-----------|---|----------------|---------------|------------------------|---------------------------|-------------|
| 1 | Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida. | 2 | 2 | | | 4 |
| 2 | Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar. | | 2 | 2 | | 4 |
| 3 | Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘ribbosari ish faoliyatini tashkil etish. | | 4 | | | 4 |
| 4 | Huquqbazarlik, jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo‘yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. | | 4 | | | 4 |
| 5 | Sinf rahbarining ta’lim-tarbiya jarayoni va darsdan keyingi faoliyatini tashkil etishdagi o‘rni. | | 2 | | | 2 |
| 6 | O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish. | | 4 | | | 4 |
| 7 | Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda buyuk allomalar va mutafakkirlar ilmiy asarlarining o‘rni. | | 4 | | | 4 |
| 8 | Ma’naviy–tarbiyaviy va axloqiy ishlarni rejalashtirish. | 2 | 2 | | | 4 |
| 9 | Dars tahlili, uni kuzatish va tahlil qilish. | | 4 | | | 4 |
| 10 | Ta’lim muassasalarida voyaga etmaganlar bilan shug‘ullanishni tashkil etish va nazorat qilish. | | 4 | | | 4 |
| 11 | Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan vazifalar. | | 2 | 2 | | 4 |
| 12 | Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan faoliyatni tashkil etish va boshqarish. | | 2 | | | 2 |
| 13 | Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari. | 2 | 2 | | | 4 |
| 14 | Ta’lim muassasasi direktor o‘ribbosarining faoliyatini o‘rganish hamda o‘zaro tajriba almashish. | | | | 6 | 6 |
| | Jami | 6 | 38 | 4 | 6 | 54 |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida (2 soat nazariy mashg‘ulot)

Ta’lim muassasalarini boshqarishda maktab rahbariga qo‘yiladigan talablar va ularning pedagogik imkoniyatlari. Maktab rahbarining vaqtidan unumli foydalana olish madaniyati. Ta’lim muassasasini huquqiy me’yoriy hujjatlari, «Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi» Nizom, Davlat ta’lim standartlari. o‘quv reja, o‘quv dastur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 7 apreldagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va mактабдан ташқари давлат та’лим муассасалари педагог кадрларини attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 107сон qarorining mazmun-mohiyati. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va mактабдан ташқари давлат та’лим муассасалари педагог кадрларини attestatsiyadan o‘tkazish tartiblari. Xalq ta’limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalarini tuzish tartiblari.

2-mavzu: Ma’naviy–tarbiyaviy va axloqiy ishlarni rejalashtirish. (2 soat nazariy mashg‘ulot)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid qarorlari, umumiy o‘rta ta’lim mактабларida «Yoshlar tashkiloti» ish faoliyatini samarali tashkil etish.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining samarasini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyulda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son qarorining mazmun va mohiyatini tinglovchilarga o‘rgatish.

3-mavzu: Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari. (2 soat nazariy mashg‘ulot)

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish tamoyillari.

Sinf raxbari sinfda o‘quvchilarni boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me’yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni uyg‘otish, o‘quvchilarni o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida ota-onalar va mahalla bilan hamkorlikda faoliyatini tashkil etish tartiblari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ta’lim muassasalarini boshqarishda maktab rahbariga qo‘yiladigan talablar va

ularning pedagogik imkoniyatlari. Maktab rahbarining vaqtdan unumli foydalana olish madaniyati.

Pedagog kadrlarining attestatsiya natijalarini baholash mezonlari bilan kurs tinglovchilarni tanishtirib borish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

2-mavzu: Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘zbekiston Respublikasi Sh.M.Mirziyoyevni asarlari, nutq va ma’ruzalarida rahbarning jamoaga nisbatan xususiyatlari. Ta’lim muassasasi rahbarlarining bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasini baholash ko‘rsatkichlari.

Raxbar axloqi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda rAXBARNING ma’naviy yetkulik darajasi hamda ijtimoiy faol pozitsiyasi.

3-mavzu: Ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ish faoliyatini tashkil etish. (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari ish faoliyatini tashkil etish, huquqbazarlik, profilaktika, jinoyatchilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e’tiqod, mehrshavqatlilik, taksikamaniya, chekuvchilik, tartibbazarlik, diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo‘yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Boshqaruvda qarorlar qabul qilish (BQQ) tushunchasining mohiyati va alohida xususiyatlari. Zamonaviy rahbarning asosiy funksiyalari va rahbarning muhim kompetensiyalariga talablar (SWOT tahlil). Boshqaruv qarorlarining turlari. Qarorlar qabul qilishda rahbarning etik muammolari

4-mavzu: Huquqbazarlik, jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo‘yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish (4 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarining huquqbazarlik, jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, ekstremizmni oldini olish bo‘yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

5-mavzu: Sinf rahbarining ta’lim-tarbiya jarayoni va darsdan keyingi faoliyatini tashkil etishdagi o‘rni. (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Inson shaxsining kamol topishida tarbiyaviy soatlarni ahamiyati.voyaga etmagan, huquq-tartibot idoralari, buzg‘unchi axborotlar, axborot oqimi, narkomaniya, tamaki, media manbalar, kognitivlik, «ommaviy madaniyat» xurujlari, intellektual va kreativ rivojlantirish.

6-mavzu: O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish. (4 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va «ommaviy madaniyat» kabi salbiy holatlarning oldini olishda sinf rahbarining asosiy vazifalari. Voyaga etmagan o‘quvchi qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarining oldini olish.Sinfda o‘quvchilarining «Ijtimoiy pasporti»ni yuritish, O‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini

mazmunli tashkil etish,qarovsizlik, nazoratsizlik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, «Eng faol o‘quvchi», «Eng faol sinf», «Orasta qizlar» ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish.

7-mavzu: Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda buyuk allomalar va mutafakkirlar ilmiy asarlarining o‘rni (4 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarning ma’naviyatini o‘stirishda tarixiy shaxslar, shaharlar, madaniy yodgorliklarni eslash va xotiralash sannalari va bayramlarini o‘tkazishni ahamiyati, fozilu fuzalolar, zabardast olim, hijriy-qamariy, tasavvufiyirfoniy, sivilizatsiya, «tirik bomba»ga tushunchalarini mazmun-mohiyati.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda tarixiy xujjatlar va qo‘shimcha adabiyotlar bilash ishslashning ahamiyati. O‘quvchilarni tarixiy xujjatlar va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishslash ko‘nikmalarini xosil qilish yo‘llari.

8-mavzu: Ta’lim muassasasida ma’naviy – tarbiyaviy va axloqiy ishlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etilishi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Xalq ta’limi vazirligining «Ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy va axloqiy ishlarni bo‘yicha direktor o‘rinbosari va sinf rahbarlari» to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomning mazmun mohiyati. «Yo‘l xaritasi»ni tuzish. Ma’naviy – tarbiyaviy axloqiy ishlarni rejalashtirish. Tarbiyaviy ishlarni monitoringi. Ma’naviy – tarbiyaviy va axloqiy ishlarni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, nazorat turlari.

Vaqt, uning qadri va inson hayotidagi ahamiyati. Ustuvorliklarni aniqlash va shu asosda maqsadlarni belgilash hamda ishlarni rejalashtirish. Qo‘l ostidagilarga ishlarni samarali taqsimlash va vakolatlarni uzatish. Vaqttagi yo‘qotishlarning oldini olish va vaqt ni tejash usullaridan foydalanish.

9-mavzu: Dars tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari (4 soat amaliy ashg‘ulot)

Dars tahlilida yo‘l qo‘yiladigan asosiy xato va kamchiliklar. Darsga tashrif buyurilganda o‘qituvchi mahoratini baholash. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan ko‘zlangan maqsad.

10-mavzu: Ta’lim muassasalarida voyaga etmaganlar bilan shug‘ullanishni tashkil etish va nazorat qilish(4 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarni ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish va chiqarish tartibi.Ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olingan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etish. Huquqbuzar, profilaktika, g‘ayriijtimoiy, amnistiya akti yoki afv etish, «ijtimoiy pasporti», guruhbozlik, gayrijitimoiy, o‘tkir til‘li jismlar profilaktika inspektori bilan o‘qituvchi, o‘quvchilar bilan ishslash.

11-mavzu: Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan vazifalar(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan vazifalar. O‘zlashtiri sust bo‘lgan o‘quvchilar muammosining pedagogik va psixologik

tomonlari.

12-mavzu: Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan faoliyatni tashkil etish va boshqarish (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalaridagi bo’shlqlarni to’ldirish ota-onalar bilan ishslash yo’llari

13-mavzu: Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Hamkorlik ishlarini amalga oshirish bosqichlari. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining vazifalari.(Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulot. Ta’lim muassasasi direktori o‘rinbosarining faoliyatini o‘rganish hamda o‘zaro tajriba almashish (6 soat)

MUSTAQIL TA’LIM MAZMUNI

Modulga oid o‘rganolgan materiallar asosida « Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar»,» Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan vazifalari» mavzusida mustaqil ish bajariladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan topshiriqlar echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqari

II

METODLAR

“SWOT -TAHLIL” METODI

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard taffakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S - (Strength) - kuchli tomonlari

W - (Weakness) -zaif, kuchsiz tomonlari

O - (Opportunity) - imkoniyatlari

T - (Threat) - to'siqlar

Namuna: O'quvchi shaxsi rivojlanishida va o'qitishida differensial yondashuvning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | | |
|----------|---|--|
| S | O'quvchi shaxsi rivojlanishida va o'qitishda differensial yondashuvning kuchli tomonlari | O'quvchilarning o'zlashtirishning yaxshilash. Ta'limga moslashishdagi qiyinchiliklarni aniqlash |
| W | O'quvchi shaxsi rivojlanishida va o'qitishda differensial yondashuvning kuchsiz tomonlari | Biror topshiriqni bajarishda muvaffaqiyatsizlik ro'y berganda unga qiziqishning ko'pincha kamayishi |
| O | O'quvchi shaxsi rivojlanishida va o'qitishda differensial yondashuvning imkoniyatlari (ichki) | Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik ketma ket ro'y berganda muvaffaqiyatga mubolag'ali bahoning berilishi |
| T | To'siqlar (tashqi) | Vaqt tanqisligi sharoitida muammoli mazmundagi topshiriqni bajarishda ish samaradorligi odatda pasayishi |

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida jihatlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiylari va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rGANILADI. Bu nterfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga. imkoniyat

yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («sase» - aniq vaziyat, hodisa, «study» - o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisalardan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (Now), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish Bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--|---|
| 1-bosqich: <u>Keys</u> va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish | ^ yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ^ axborotni umumlashtirish; ^ axborot tahlili; |
| 2-bosqich: <u>Keysni aniqlashtirish</u> va o‘quv topshirig‘ni belgilash | ^ individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ^ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: <u>Keysdagi asosiy muammoni tahlil etit orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlabqilish;</u> | ^ individual va guruhda ishlash; ^ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ^ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ^ muqobil asosiy muammoni tahlil |
| 4-bosqich: <u>Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</u> | ^ yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ^ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ^ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy |

«FSMU» metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metodishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘zlashtirish materialini mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assessment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysidi, farqlarini aniqlashtiradi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

| Tushunchalar | Mazmuni |
|-----------------------------------|---------|
| Dars jarayonini tashkil etish | |
| Pedagog faoliyatini nazorat etish | |

Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki jihat orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma- ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

«To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘sib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘siladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiyligiga yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

III

**NAZARIY
MASHG'ULOTLAR**

1-mavzu:Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida (2 soat nazariy mashg‘ulot)

REJA:

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida.

2.Zamonaviy boshqaruv tizimida maqsad va vazifalarning o‘rni.

Tayanch so ‘zlar: ta’lim muassasasini boshqarish; zamonaviy boshqaruv; kasbiy-pedagogik tayyorgarlik; pedagogik mahorat; tahliliy mahorat; tashxislovchi; ta’limning yangi modeli; kichik maqsadlar; bosh maqsadlar; menejer.

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi deyilganda, uning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy etukligi tushuniladi.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birini to‘ldiradi, o‘zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlari bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo‘llaniladi. Shu sababli, rahbarning ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar, rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, ilm-fan, texnika, texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot va axborotlar globallashuvi jarayonida uzluksiz ta’lim tizimini boshqarishda izchil faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardir.

O‘zbekiston Respublikasida joriy etilgan “Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, u ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish”ni taqozo qiladi.

Kuzatishlarimiz bugungi kunda ta’lim muassasalarini ilmiy-metodik asosda boshqarishda:

uzluksiz ta’lim bosqichlari orasida uzviylikning to‘la ta’minlanmaganligi;

- rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligi ta’lim mazmuni va uning metodik ta’minotidan orqada qolishi;

- aksariyat maktab rahbarlarida ijodiy va ijtimoiy faollik, g‘oyaviy-siyosiy etukligi etarli darajada emasligi;

- umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlarini tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan etarlicha asoslanmaganligi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun bo‘lgan

metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tibor berilmaslik kabi nuqsonlar mavjud ekanligi tasdiqlanmoqda.

Maktabning umumiyl vazifasi quyidagi savollarga beriladigan javoblar bilan belgilanadi:

- maktab o'z faoliyatini aynan kimlar va qanday ta'lim ehtiyojlariga yo'naltiradi? Vazifani belgilash bu - ijtimoiy buyurtmaga ko'r-ko'rona ergashish yoki faqat maktabning ichki ishi bo'lib qolmay, balki tashqi hamda ichki ehtiyoj va imkoniyatlar teng kelishi bilan belgilanadimi?;
- u o'quvchilarining qanday kontingentini hisobga oladi? Bu savollarga beriladigan javoblar umumiyl yoki ixtisoslashgan maktablarning har biri uchun alohida-alohida bo'ladimi?
- maktab qanday darajadagi ta'lim xizmatlarini ko'rsata oladi?
- maktab uchun qanday ta'lim vazifalari ustuvor?
- ta'lim xizmatlaridan tashqari, maktab o'quvchilariga yana nimalarni taklif qilishi mumkin?
- maktab o'z xodimlari uchun nimalar qila oladi?
- maktab keng ijtimoiy doiraga nisbatan hududiy ta'lim tizimi uchun qanday tayyorlanayapti? SHuni qayd etish lozimki, maktabning vazifalarini muntazam tanlash ushbu hududdagi butun aholining manfaatlarini ifodalovchi ta'lim tizimi xodimlari bilan moslashgan bo'lishi lozim.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi - bu ularning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy etukligidan iborat.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birini to'ldiradi, o'zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlar bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo'llaniladi. SHu sababli, rahbarning ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o'rinni egallaydi.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalariga yuqori idoralardan tushgan buyruqlar, ko'rsatma, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalarni ko'r-ko'rona, nomigagina ijrochilar emas, balki o'z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar tayinlanishini davrning o'zi taqozo etmoqda. CHunki rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e'tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta'lim muassasasining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi.

Rahbarlik faoliyatining eng nozik jihat - bu o'quv muassasasida o'qituvchi va xodimlar bilan ish olib borish, ular faoliyatini tashkil etish, pedagogik jamoani bir maqsad-muddao yo'lida birlashtirish, ularning hurmatini

qozonish, sevimli rahbariga aylanish hisoblanadi. Bu esa rahbardan ijtimoiy psixologiya, muloqot san'ati va mahorati to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga hamda kommunikativ, konstruktiv va tashkilotchilik qobiliyatlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Boshqaruv pedagogikasi yoki tadqiqotchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan birga bu masalaga hayotiy tajribalar asosida ba’zi bir yondashuv va fikrlar bildirish foydadan holi bo‘lmaydi. Unda yangi rahbar qanday qilib pedagogik jamoa hurmatini qozonishi mumkinligi, shuningdek “muammoli” xodimlar bilan ishlashda nimalarga e’tibor qaratish kerakligi to‘g‘risida quyidagi tavsiyalar beriladi:

- *pedagogik mahorat_ta’lim* jarayoni xususiyatlarini bilish, uni tashkil etish va harakatga keltira olish ko‘nikmasi hisoblanadi;
- *texnologik mahorat_konstruktiv* va tashkilotchilik qobiliyatları bilan bog‘liq bo‘lib, aniq ish faoliyatini uddalash, ya’ni axborot olish, uni etkazish, ishni tashkil etish va rejalashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi;
- *kommunikativ mahorat_insonlarni* to‘g‘ri tushunish, ular bilan hamkorlikda harakat qilish, muloqot qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalardan tashkil topadi;
- *tahliliy mahorat_ta’lim* jarayonini chuqur va puxta tushunish, tizimning eng oddiy va murakkab elementlarini bilish, yaxlitlikni qismlarga ajratish, aksincha, qismlarni yaxlitlash, o‘z faoliyatini taftish va tahlil qila bilishdan iboratdir;
- *xizmat yuzasidan munosabatga kirishish mahorati_rahbarlik* bir necha bosqichni o‘zida mujassam etgani bilan ancha murakkabligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda ta’lim muassasasi oldiga maqsad qo‘yishda maktab rahbari:

- ta’lim tizimida mavjud ehtiyoj va muammolarning tahlili maqsad qo‘yishning bosh omili bo‘lib xizmat qilishi, bunda dastlabki imkoniyatlar va vositalar, zahiralar hisobga olinishi kerakligi;
- maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb bo‘lishi lozimligi;
- maqsadlar murakkab, biroq aniq bo‘lishi, mактабning yaqin kelajakdagи rivojlanishini ifodalashi shartligi;
- maqsadlar qanchalik puxta (istalgan natijaning aniq darjasasi va unga erishish muddati ko‘rsatilgan holda) shakllantirilgan bo‘lsa, ularga erishish shuncha oson kechishi;
- maqsadlar tashxislovchi, rag‘batlantiruvchi, izlanishga va tashabbuskorlikka undovchi xarakterga ega bo‘lishi lozimligi;
- maqsadlar mактаб oldida turgan vazifalarga mos kelishi kerakl-igi;
- hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha sub’ektlariga ma’lum, ular uchun tushunarli holda qabul qilinganligi jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini ta’minlashi;

- kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad hamda intilishlarga bo‘ysundirilishi maqsadga muvofiqligi talablarni hisobga olishi lozimligini ko‘rsatmoqda.

O‘quvchilarning hayotiy ehtiyojlariga mos va samarali usullarni qo‘llash orqali bilimlar taqdim etilishi, ko‘nikmalar hosil qilinishi, ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirishga pedagogik hamda boshqaruv jihatdan shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Mazkur texnologiyaning afzalliklari shundan iboratki, bunda:

- o‘qituvchining kuchsiz o‘quvchilarga yordam, kuchlilariga e’tibor berishi uchun qulay pedagogik shart-sharoit vujudga keladi;
- o‘quvchilarning tahsil olish sur’ati va bilimlarni o‘zlashtirish sifati ortadi;
- o‘quvchilarning tahsil olishga bo‘lgan qiziqishi, ehtiyoji va mayllari kuchayadi.

Maktabni ilmiy-metodik asosda boshqarish - o‘qituvchi va o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, maktab hayotining barcha jabhalarida o‘qituvchi, o‘quvchilar, oila va jamoat tashkilotlarining ishtirokini ta’minalash hamda ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirgan holda yo‘lga qo‘yish ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirishdan iboratdir.

O‘quvchilarning millati, dini, e’tiqodlari, ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy sharoiti va qobiliyatidan qat’iy nazar, o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlari uchun ijodiy muhit va imkoniyat yaratish, pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, erkin rivojlanishlarini ta’minalash, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan —DTS doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqdigi”ga amal qilishni ta’minalaydi.

Respublikamizda amal silayotgan ta’limning yangi modeli - ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan yangilash bilan bir qatorda, ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltiradi. Bu esa o‘quv muassasalarini rivojlantirishning asosiy omilidir. Shunga ko‘ra, maktab rahbarlari tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ijodkorlik sifatlariga ega bo‘lishlari kerak. Ular muvaffaqiyatlarni ta’minalovchi vazifalarning qanchalik to‘g‘riliqi va o‘z vaqtida ta’lim-tarbiyani tashkil etishda yangi yondashuvning asosiy mohiyati, an’anaviy ta’limda ko‘zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o‘qitishdan voz kechish va uning o‘rniga:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil etish;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlashi va mustaqil faoliyatiga keng yo‘l ochish;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo‘llashni amalga oshirish muhimdir.

Yangicha pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o‘quvchi shaxsiga tabaqlashgan yondashuv, ya’ni ta’lim jarayonini individualashtirish tamoyilini ro‘yogga chiqarishni talab etadi. Mazkur tamoyillar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda:

- o‘rtalagi saviyali o‘quvchiga nisbatan mo‘ljal olishdan voz kechish;
- har bir o‘quvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatları, tanlagan yo‘nalishlari, shaxsiy sifatlari, akliy intellektual xususiyatlarini aniklash;
- har bir o‘kuvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o‘quv topshiriqlarini tayyorlash;
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘kuvchi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Maktablarda ta’lim jarayonini ilmiy-metodik asosda tashkil etishning muhim jihatni sifatida fan o‘kituvchilarining bilim, malaka, kasb-mahorati doirasida zamon talablariga muvofik faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlovchi uzlucksiz metodik xizmatni vujudga keltirish zarur.

O‘qitish metodlarining har biri o‘zining umumdidaktik mohiyatiga ko‘ra, ta’lim jarayonining sub’ektlari o‘kituvchi va o‘kuvchining hamkorligidagi harakat modeli hisoblanadi.

Zamonaviy boshqaruvi tizimida maqsad va vazifalarning o‘rni

Tashkiliy faoliyat maqsadi xar kanday tashkilot uchun kutilayotgan provard natija, faoliyat samarasidir.

Alovida xususiyatlari:

Tashkiliy faoliyat maksadidan foydalanib, umumiyligi ishning provard natijasini baxolash, faoliyat yo‘nalishi va ko‘lamini yangilash mumkin.

Muayyan omillarga etishish yoxud ularni saqlab qolish tashkiliy faoliyatning bosh maksadidir.

Tashkiliy faoliyat maksadlari xamisha istikbolli rivojlanishni nazarda tutuvchi gipotezalarga asoslanadi. SHuning uchun bu xil gipotezalarning puxtaligi samarali natijaga erishish uchun muxim garovga aylanadi.

Istiqlolli rivojlanish rejasi qanchalik uzoq, vaqtini qamrab olsa, tashkiliy faoliyat maqsadlari shunchalik ehtimoliy tusga ega bo‘ladi.

Tashkiliy faoliyat maqsadlarining tavsifi.

Konkret va anik, o‘lchamlarga ega bo‘lgan maqsadlar. Tashkiliy faoliyat maqsadlarini bu xilda belgilash, tashkilot rahbariyatiga jarayon davomida navbatdagi tashkiliy karorlarni kabul kilish va ishning borishini baxolashga, tashkilot faoliyatining pirovard natijaga nisbatan nechog‘lik samarali xamda to‘g‘riligini belgilashga imkon yaratadi.

Maqsadlarni va o‘lchovini hisobga olib belgilash. Mazkur tamoyilga ko‘ra, eng avvalo, uzoq muddatga, so‘ngra o‘rtacha va qisqa vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan maqsadlar belgilab olinadi. Maqsadlarning real tarzda qo‘yilishi, ya’ni mavjud shart-sharoitlarda ularga erishish mumkin bo‘lishi lozim. Turli tashkiliy maqsadlarning bir-biriga zid kelmasligiga alovida e’tibor berish shart.

Vazifalar pirovard natijaga erishish uchun avvalrok bajarilishi lozim bo‘lgananiq tadbirdir.

Alovida xususiyatlari.

Tashkiliy vazifalar faoliyatning bevosita maqsadlarini ifodalaydi. Ularni miqdoriy jihatdan o‘lchash mumkin. Odatda vazifalar deb, anik ijrochining zimmasiga yuklangan va bajarilishi muddatlari aniq belgilangan ishlarni nazarda tutishadi.

Pedagogik jixatdan olganda, tashkiliy vazifalar konkret lavozimiga nisbatan belgilanadi. Xar bir lavozim doirasida bajarilishi bo‘lgan ishlar majmui pirovard natijaga erishish yo‘lidagi muxim bosqich sanaladi.

Tashkiliy vazifalar kategoriyasi:

- odamlar bilan ishlash;
- predmetlar bilan ishlash;
- axborot bilan ishlash.

Maqsadlar shajarası: tashkiliy maqsadlarning o‘zaro tobelligi va kengaytirilishi. Maqsadlar shajarasining modeli amaliy faoliyat uchun juda kulay vosita bulib, u boshqaruvchilikning tashkiliy maqsadlari va vazifalarini belgilashga nisbatan tizimli (tartibli yondashuvga - imkoniyat beradi. Maqsadlar shajarası yordamida ularning tartiblashtirilgan ierarxik tuzilmasi ta’riflanadi.

Tashkiliy faoliyatning umumiy maqsadi.

Tashkilotning kichik tizimlari faoliyatini belgilovchi maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish;
- marketing;
- personal;
- moliya.

Bosh maqsad(lar)ni kichik maqsadlarga ajratish qoidalari:

- bosh (umumiy) maqsad faoliyatning pirovard natijasini ifodalashi lozim;
 - umumiy tashkiliy maqsadning ierarxik tuzilmasini tuzish davomida ushbu muxim tamoyilga e’tibor berish lozim: faoliyatning kelgusi bosqchidagi maqsadlarga etishish uchun ilgarigi bosqichining maqsadlarini ruyobga oshirish lozim;
 - tashkiliy faoliyatning turli xil bosqichlarida maqsadlarga erishish yo‘llariga emas, balki ularning mazmuni (natija)ga e’tibor berish shart;
 - tashkiliy faoliyatning xar bir bosqichida kuyiladigan maqsadlar tamomila mustaqil bo‘lishi, biri-biridan kelib chiqarmasligi kerak;
 - maqsadlar shajarasining asosini belgilangan vaqtin mobaynida ma’lum tartibda bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifalar majmui tashkil etishi lozim;
- umumiy tashkiliy maqsadning kichikrok maqsadlarga ajratilishidabosh maqsadning murakkabligi, ko‘lami va tashkiliy tuzilmasini e’tiborga olish muximdir;
- tashkiliy maqsadlarni belgilash jarayonida nafaqat maqsadlarshajarasiga, balki

maqsadlarning rivojlanish dinamikasiga xam alohida e'tibor berish lozim. Tashkilot faoliyatining istiqbol rejasini tayyorlash chog'ida jarayonning dinamik modelidan foydalaniadi.

Maqsadlar(natija)ga ko‘ra boshqarish konsepsiysi.

Boshqaruvchilik faoliyatining yaxlit tizimi sifatida menejment tashkilot oldiga kuyilgan barcha maqsad va vazifalarning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. SHu sababdan boshqaruva tizimining xar pog'onasida turgan rahbarlar o'z vakolatlari doirasidan kelib chiqib, oldida turgan aniq maqsadlarni yaxshi anglashi kerak. Ushbu asosda maqsadli faoliyatning muayyan davrida menejer ko'l ostidagi xodimlarning faoliyatini yo'lga qo'yishi lozim. Menejmentning umumiy maqsadlari va vazifalari boshqaruvchilik tizimining barcha pog'onalaridagi menejerlar bilan baham jihat ishlab chikiladi.

Maqsad (natija)ga ko‘ra boshqarish jarayonining bosqichlari:

- boshqaruva tizimining barcha pog'onalaridagi menejerlarning vakolatlari va majburiyatlari ko'lami belgilanadi;
- belgilab quyilgan majburiyatlar doirasida boshqaruvning maqsadi va vazifalari ishlab chiqiladi, so'ngra o'zaro muvofiqlashtiriladi.

Muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga real darajada erishish imkoniyatlari va vositalari rejalashtiriladi;

- xar bir pog'onadagi menejerning faoliyati nazorat ostiga olinadi, tahlil qilinadi, baxolanadi. Olingan natijalarga ko'ra berilgan topshiriqlarga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Bu xolatda faoliyat maqsadlarini kaytadan muvofiklashtirish zaruriyati tug'ilishi mumkin.

Konsepsiyaning foydali jihatlari:

- boshkaruv tizimidagi har bir menejer o'zining va muassasaning maqsadlarini aniq va to'g'ri tasavvur etsagina ish unumдорligi oshadi;
- umumiy tashkiliy maqsadlar va vazifalarni belgilash jarayonida barcha pog'onadagi menejerlarning bevosita ishtiroki ta'minlangani taqdirda, ularning o'zishiga qizikishi hamda mas'uliyati ortadi;

pirovard natijaga bosqichma-bosqich erishish imkoniyatining mavjudligi. Zero, rejaga muvofik ma'lum vaqt mobaynida muayyan natijalarga erishish ko'zda tutiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida boshqarish xususiyatlariga quyidagilarni qo'shish maqsadga muvofikdir:

har bir shaxs ijodiy kuchlarining namoyon bo'lishi imkonini beruvchi boshqaruv shakli va uslublarigina maqbuldir;

boshqaruv moslanuvchan bo'lishi kerak, ya'ni boshqaruv Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarit maqsadida o'zgarayotgan vaziyatlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi kerak;

jamoaning o'quv-tarbiya faoliyatini rejalashtirishda moddiy xarajatlar

masalalarini ularning maksimal samaradorligi asnosida hal qilit (iqtisodiy dastaklarni ishga solish) zarur;

boshqarish jamiyat rivojining ob'ektiv qonunlarini bilish, yangi hodisalarni umumlashtirish, ishdagi ilg'or yo'naliislarni hisobga olish ishlariga tayanadi;

boshqarishni takomillashtirishda sub'ektivizmga yo'l qo'yilmaydi, muvaffaqiyatlar vazifalarning qanchalik to'g'ri qo'yilganligi va o'z vaqtida bajarilishiga bog'likdir;

boshqarishning samaradorligiga rahbar xodimlar va shu kabilarning bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligi ta'sir qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni boshqarishda zamonaviy tamoyillari

Takomillashgan ta'lim muassasasini yaratishning birinchi bosqich maqsadlarini belgilash

Maqsad – bu vaqtning aniq belgilangan davrida ta'lim muassasasi real erishishi mumkin bo'lgan, istalgan natijaning muayyan, sifatiy, ayrim hollarda esa, sopolik bilan mikdoriy tavsiflangan qiyofasidir.

Har qanday maqsad besh asosiy jihatga ega bo'lishi kerak:

1. Mukammal mazmunga ega, ya'ni natijaning barcha tavsiflarining aniq-ravshanligi.
2. Nazoratlilik.
3. Vaqt (muhalat)ning belgilanganligi.
4. Reallik (imkoniyatga muvofikdigi).
5. Asoslanganlik.

Qo'yilgan maqsad shu jihatlarga ega bo'lishi uchun jiddiy analitik va oldindan prognozlash ishlari o'tkazidishi kerak.

Maqsadni anikdash — kutilayotgan natijaga xos bo'ladigan tavsiflar berish bo'lib, bu tavsiflarga ko'ra, natijaga erishilganlik yoki erishilmaganlikni tekshirish mumkin bo'lsin. Aytaylik, ma'lum bir ta'lim muassasasida muayyan o'quv yili uchun maqsadlar quyidagicha ifodalangan:

4-sinfdan (1-bosqich) 5-sinfga (2-bosqich) o'tishda o'quvchilarining o'zlashtirishi davlat ta'lim standartida belgilangan minimal darajadan ortiqroq bo'lishi kerak.

1-sinfni tugatish chog'ida o'quvchilarining o'qish sur'ati bir daqiqada 90 so'zdan kam bo'lmasligi kerak va hokazo.

Albatta, bu foizlar va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlar nimagadir asoslangan bo'lishi, ya'ni ular qaerdan olingani, boshlang'ich hisob nuqtasi ko'rsatilishi kerak.

Ta'lim muassasasining rivojlanish dasturini ishlab chiqishda, strategiya belgilangandan so'ng, istalgan kelajakka tomon harakatning birinchi bosqichi maqsadlari ifodalaniishi kerak. Ular Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan maqsadlarga mos kelishi kerak.

Istalgan natijalar proqnoz qilingandan so'ng ta'limning turli bosqichlarida

kutilayotgan o‘zgarishlar qay darajada o‘zaro bog‘langanligi va maqsadlarga tuzatish kiritilishi zarurati bor-yo‘qligini anikdash zarur. G ap shundaki, har qanday innovatsiya, u nimaga tegishli bo‘lmashin (ta’lim va tarbiya mazmuni, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish, uslublar va hokazo), barcha sinflar va bosqichlarda kiritilmaydi. Bir yangilik 5-sinfdan kiritilsa, boshqasi 7-sinfdan kiritilishi mumkin va hokazo. Bunda joriy qilingan yangilik avvalgi bosqich sinflarida olingan ta’lim va tarbiya natijalari bilan tutashishi yoki tutashmasligi yuqori bosqichga yangi dastur bo‘yicha ta’lim olganlar va yangi dastur bo‘yicha ta’lim olmaganlar o‘tishining sifat jihatidan bir xil bo‘lishi mumkin yoki mumkin emasligi haqida o‘ylab ko‘rish.

Nazorat savollari:

1. Ta’lim muassasalarini ilmiy-metodik asosda boshqarish nima?
2. Maktabning umumiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Rahbarlik faoliyatining eng nozik jihatni nimalardan iborat?
- 4.“Muammoli” xodimlar bilan ishslashda nimalarga e’tibor qaratish kerak ?
- 5.Maktabni samarali boshqarish deganda nimalarni tushinasiz?
- 6.Tashkiliy faoliyat maqsadlarining tavsifi nima?
- 7.Tashkiliy vazifalar kategoriyasiga nimalar kiradi?
- 8.Maqsad (natija)ga ko‘ra boshqarish jarayonining bosqichlari nimadan iborat?
- 10.Qanday maqsad besh asosiy jihatga ega bo‘lishi kerak?

2-mavzu: Ma’naviy–tarbiyaviy va axloqiy ishlarni rejalashtirish.

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

REJA:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid qarorlarining mazmun mohiyati.
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Yoshlar tashkiloti” ish faoliyatini samarali tashkil etish.

Tayanch so‘zlar: ekstremizm, terrorizm, mafkuraviy immunitet, bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, yot g‘oyalar ta’siri, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar, «Har bir oila – tadbirkor»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid qarorlarining mazmunmohiyati. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Yoshlar tashkiloti” ish faoliyatini samarali tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagি “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-sonli qarorida quyidagi vazifalar belgilandi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy- axloqiy

va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o‘rtta’lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta’lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta’minalash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar – Kelajagimiz»Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar etarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar ob’ektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining etishmasligi bolalarining sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

to‘rtinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavzei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, etakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik etarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali kadrlarning etishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning etarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi

ishlarni yanada takomillashtirish, ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasigamuvofiq:

1. Quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma’naviy- axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish bo‘yicha kompleks chora- tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda Dastur deb yuritiladi) tasdiqlani:

- yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
- pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining bazaviy tarif stavkalari:

a) 2018 yil 1 sentyabrdan:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun 1,1 baravarga; yuqori sinf o‘qituvchilar uchun o‘rtacha 1,24 baravargacha; direktor, uning o‘rinbosarlari va axborot-resurs markazi (kutubxona) mudirlari va kutubxonachilari uchun 1,1 baravarga oshirilsin.

b) 2019 yil 1 yanvardan:

- oliy toifali o‘qituvchilar uchun 1,25 baravarga;
- birinchi toifali o‘qituvchilar uchun 1,2 baravarga;
- ikkinchi toifali o‘qituvchilar uchun 1,15 baravarga;
- mutaxassis o‘qituvchilar uchun 1,1 baravarga;

direktor, uning o‘rinbosarlari, axborot-resurs markazi (kutubxona) mudirlari va kutubxonachilari uchun 1,1 baravarga oshirilsin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining dars va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda sinf journalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo‘yicha hisobotlar va qo‘srimcha ma’lumotlarni talab qilish qat’iyan taqiqlandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi ikki oy muddatda:

hududiy, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga

kiritgan o‘quvchilarni tayyorlagan pedagog kadrlarga eng kam ish haqining 5 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda bir martalik pul mukofoti berish tartibini;

umumiylar o‘rtalama ta’lim muassasalarini faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikasiya qilish va asosiy faoliyati bo‘yicha qo‘shimcha. pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini;

ta’lim rivojiga munosib hissa qo‘shgan, davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan pedagog kadrlarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga qarashli sanatoriysog‘lomlashtirish muassasalarida imtiyozli shartlarda sog‘lomlashtirish tartibini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifalari yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Qurilish vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi, Markaziy bank, «O‘zshaharqurilishinvest» va «Qishloqqurilishinvest» injiniring kompaniyalari bilan birgalikda ikki oy muddatda har yili qishloq va shaharlarda namunaviy loyihamalar bo‘yicha qurilayotgan arzon uyojlarning bir qismini xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida dastlabki badali 10 foiz bo‘lgan ipoteka krediti sifatida berish, shuningdek, «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida pedagog xodimlarning oila a’zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 foiz stavka miqdorida kreditlar berish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshirildi..

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxat bo‘yicha xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlarga iste’mol kreditlari, shu jumladan, avtotransport vositalari sotib olish uchun maxsus jamg‘arma hisobidan quyidagi shartlarda kreditlar berish tartibi o‘rnatildi: kreditni berish muddati — 1 yil imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga; dastlabki badal summasi — sotib olinayotgan avtotransport vositasi qiymatining 25 foizi;

kredit uchun foiz stavkasi — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim vazirligining 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablari, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablar, san’at va madaniyat maktab-internatlari, olimpiya zaxiralari maktab-internatlari hamda akademik litseylar bitiruvchilariga a’lo bilimi, namunali xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi uchun beriladigan oltin va kumush medallarni ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi.

7. Quyidagilar taqiqlandi:

xalq ta’limi xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga,

majburiy mehnatga, shu jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari hamda boshqa turdag'i ishlarga jalb qilish;

xalq ta’limi xodimlarini ularning kasbiy faoliyatini bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning bosma nashrlarga majburan obuna bo‘lishini tashkil etish;

xalq ta’limi muassasalari faoliyatini qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan asoslarga va o‘rnatilgan tartibga rioya etmagan holda tekshirish.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mazkur talablar buzilgan hollarda tegishli javobgarlikka tortilishi haqida qat’iy ogohlantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ- 3907-son qaroriga1-ilovaga binoan Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi

Nazorat savollari:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-tonli qarorini mazmuni nimadan iborat?

2.“Yoshlar tashkiloti” ish faoliyatini mazmuni nima?

3-mavzu: Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari.

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

REJA:

1. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari.

2. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish tamoyillari.

1. Hamkorlik ishlarini amalga oshirish bosqichlari.

Tayanch so‘zlar:oila instituti, tarixiy an'analar, yagona g‘oya - milliy mafkuraga sadoqat, nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi, hamkorlik tamoyillari.

(IZOH: Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-tonli qarori qabul qilingan).

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari

Hamkorlik konsepsiyasining eng asosiy maqsadi - har bir bolaning hayotda o‘z o‘rnini topib, o‘z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas’uliyatini sezal

oladigan, insonparvar bo‘lishiga qaratilgan.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda:

— xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf- odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish;

— milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, barkamol avlodni shakllantirishning muhim shartlari:

birinchidan, yosh avlodga o‘zligimiz, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarini, jamiyat oldida turgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el- yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya - milliy mafkuraga sadoqat

ruhida tarbiyalash

uchinchidan, yoshlarni O‘zbekistonga munosib voris bo‘la oladigan baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash;

to‘rtinchidan, yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtida jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek: *birinchidan*, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi; *ikkinchidan*, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishiga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga; *to‘rtinchidan*, insondagi mavjud salohiyatni to‘la ro‘yobga chiqarishga; *beshinchidan*, umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

2010 yil 12 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, Senat tomonidan esa 2010 yil 28 avgustda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi” qonunida voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lib, uni amalga oshirishda jamoatchilik tashkilotlari, ta’lim muassasalari, huquqiy-targ‘ibot organlari hamda ota-onalarning vazifalari, ularni hamkorlikda amalga oshirish tizimi yaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasida “Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va

manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishlari uchun javobgardirlar” deb belgilab qo‘yilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 3.2 bandida ta’lim oluvchilarga shart-sharoit yaratishda jamoatchilik boshqaruvinı rivojlantirishga, 4.4 bandida esa mustaqil O‘zbekiston Respublikasi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari, otonalar, oila, mahalla qo‘mitalari, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ko‘plab jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qilishga alohida e’tibor berilgan.



Mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, shuningdek bugungi kunda jamiyatda kuchayib borayotgan loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun zararli ekanligini yoritib berishda, Yurtboshimizning “G‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilini yoshlar ongiga singdirish, vatanini, millat ravnaqini o‘ylaydigan, uni chin dildan sevadigan barkamol avlod qilib shakllantirishda “Oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligi” konsepsiyasining o‘rni muhimdir.

Konsepsiyada oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ko‘rsatilgan vazifalari, yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari hamda hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish tizimi, hamkorlik kengashining ishlash tartibi berilib, uni hayotga tatbiq etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Hamkorlik ishlarini amalga oshirish bosqichlari.

Bosqich: Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy tushunchalar berish va bu tadbirlarga tibbiyot xodimlarini, ibratli oilalarни jalb qilish (yosh oilalarmi oilaviy sharoitini o'rganib chiqish va doimo ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash).

1. Bosqich: Farzandning mактабгача bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga-o'zi xizmat qilish, qo'shiq va raqsga tushish, mustaqil ravishda bilim olish, maktabga tayyorlash guruhlari, "Yakshanbalik maktablari" ishini tashkil qilish.

2. Bosqich: Kichik (6-11 yosh) maktab yoshidagi davrda bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, ularning iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, ularda o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, atrof-muhitga ongli munosabatni, vatanparvarlikni shakllantirish.

3. Bosqich: O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishi, bilimga chanqoqlik va aql-zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, turli kasblarga yo'naltirish, jamoatchilik asosida o'z o'rnini topishga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun qonun, jamoatchilik va ota-ona oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

4. Bosqich: Yoshlarning (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashi, ta'lim olishlari bo'yicha ish bilan ta'minlash, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat oldidagi fuqarolik burchini ado etish, mustaqil oila qurishga yo'llanmalar berish.

Nazorat savollari:

1. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiysi mazmuni nimadan iborat?

2. Uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish tamoyillari nimadan iborat?

4. Xamkorlik bosqichlari mazmuni nimadan iborat?

IV

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

MAZMUNI

1-mavzu Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarini boshqarishni tashkil etish pedagogik muammo sifatida (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda ta’lim muassasasini boshqarishni tashkil etishga oid bilimlarni rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalilanadi.

1- topshiriq: ta’lim muassasalarini boshqarishda maktab rahbariga qo‘yiladigan talablar va ularning pedagogik imkoniyatlari

2- topshiriq: maktab rahbarining vaqtdan unumli foydalana olish madaniyati.

AQLIY HUJUM



“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga (g‘oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi.“Aqliy hujum”ni uyuştirish bir muncha sodda bo‘lib, undan ta’lim mazmunini o‘zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo‘l keladi. Dastlab guruh yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo echimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘zga kishi g‘oyalariiga hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “aqliy hujum” yo‘li bilan qisqa minutlarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarining har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bildirilgan g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Ta’lim muassasalarini boshqarishda maktab rahbariga qo‘yiladigan talablar va ularning pedagogik imkoniyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning mas’uliyat - rahbar xodimning asosiy xususiyatlaridan biridir. Rahbar mas’uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas’uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o‘zligiga nisbatan mas’ullik

hissidan boshlanadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlariga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ishda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish, vaziyatni pedagogik tahlil qila bilish, vaziyatdan to‘g‘ri chiqqa bilish, har bir ishga ijodiy yondashish, o‘zining shaxsiy ibrati, ishga bo‘lgan munosabati bilan pedagogik jamoani ergashtira bilish.

2. Pedagogik mahorat va boshqara olish mahorati, fan yutuqlarini o‘zlashtirish, yangi g‘oyalar, ichki imkoniyatlarni qidirib topib, uni amaliyatga tatbiq etish.

3. Umummadaniyatlilik, ziyolilik, milliy qadriyatlarni qadrlash, jahon madaniyati durdonalaridan xabardorlik, dunyoqarashning kengligi, mehribonlik, insonparvarlik, o‘qituvchi, o‘quvchi shaxsini hurmat qilish.

4. *Pedagogik madaniyat* - hozirgi zamon pedagogika, psixologiya sohasiga oid yangiliklardan xabardor bo‘lish, innovatsion texnologiya, didaktik bilimlardan boxabarlik. Kuchli pedagogik qobiliyatga egalik.

5. *Tashkilotchilik* - har bir pedagog xodimga uning xarakteri, imkoniyatlari va ehtiyojidan kelib chiqib vazifa berish, muomala qilish. Jamoa ishonchiga kirish, aytilgan fikr, taklif, qabul qilingan qarorning o‘z vaqtida bajarilishiga erishish. Pedagogik jamoa, mакtab oldida turgan vazifalar, maqsadlar, istiqbolni aniq belgilash.

6. *Kommunikativlik* - odamlar bilan o‘zaro samimiy munosabat o‘rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishontira bilish, yordam berish, xodimlar kayfiyatini ko‘tarish, ixtiyoriy-majburiy o‘z orqasidan ergashtirish.

7. *Aqlan etuklik* - jamoaning har bir a’zosini, o‘quvchini, ota-onani e’tibor bilan eshita bilish, har bir ishning muqobil variantlarini e’tiborga olish va amalga oshirish.

8. *Nutq madaniyatiga egalik* - mantiqli, qisqa, lo‘nda, obrazli fikrlay bilish, fikrni qiyomiga etkazish, o‘z so‘zamolligi bilan suhbatdoshi (yoki jamoa) qalbiga kirish kabilalar ijodkor rahbarda mujassam bo‘lmog‘i kerak.

Shu bilan birga ta’lim muassasalar rahbarlarining ish faoliyatida zarur deb hisoblangan quyidagi talablar:

- o‘z fanini yaxshi bilishi va o‘qitishning zamonaviy usullari, uslublari, ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda boshqa o‘qituvchilarga namuna bo‘lishi;

- izlanuvchan, yangilikka intiluvchi, ilg‘or o‘qituvchilar tajribalarini o‘rganib, pedagogik jamoa a’zolariga ham o‘rgata olishi;

- dunyoqarashi keng bo‘lishi, o‘zining siyosiy-mafkuraviy, ilmiy-metodik va rahbarlik malakasini muntazam oshirib borishi;

- mакtab jamoasi, ota-onalar, mahalla va jamoatchilik o‘rtasida etarlicha obro‘ga ega bo‘lishi;

- sezgir, kishilarga e’tibor bilan yaxshi muomala va munosabatda bo‘ladigan, ularning mehnatini to‘g‘ri qadrlay oladigan adolatli va qat’iyatli bo‘lishi;

- mакtab doirasida barcha sohalardagi ishlarni chuqur o‘rganishi, tanqidiy tahlil

etib, uni yaxshilash uchun aniq chora-tadbirlar belgilay olishi va amalga oshirishni ta'minlashi;

- fidoyilik, mas'uliyatlilik, poklik, qat'iylik, jur'atlilik, jamoasi manfaati yo'lida jonkuyarlik ko'rsatish, mehnatsevarlik,adolatli, o'ziga va o'zgalarga talabchanlik ko'rsatib, barchaga namuna bo'lishi;
- shaxsiy ma'lumoti va uslubiy bilim doirasini doimiy ravishda boyitib borishi, vaqtı-vaqtı bilan bu haqida o'ziga hisobot berishi, ya'ni o'z- o'zini nazorat qila olishi;
- individual xususiyatlariga ko'ra shaxsiy rivojlanish tizimini yuzaga keltirish: kasbiy qobiliyat va mahoratini takomillashtirishi, o'z malakasini muntazam oshirib borishni shaxsiy reja asosida tashkil etishi;
- zamonaviy rusumdag'i kompyuter vositalari bilan muomala qila olishi, ya'ni unda ishlay olish ko'nikmasini egallagan bo'lishi, internet tizimi orqali axborotlarni olish va maktab jamoasi orasida ommalashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- xodimlarning yoshi, jinsi, milliy va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular bilan ishchan muloqot o'rnata olishi;
- maktab jamoasi sha'ni, obro'sini o'yplashi, joylardagi xalq ta'limini boshqaruvchi organlar vakillari maktab jamoasi oldida uning obro'yi va sha'niga putur etkazishga yo'l qo'ymasligi, maktab jamoasini himoya qilishi, biroq zarur hollarda o'zi intizomsizlikka yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan ayrim intizomiy choralarni ko'llay olishi;
- u o'z faoliyatida kamchilikka yo'l qo'ygan pedagoglar bilan imkon qadar yakkama-yakka suhbat o'tkazishi, tanqid qilinganda ham xodimning shaxsiga emas, balki uning noto'g'ri faoliyatiga nisbatan munosabat bildirishi, shu bilan birga u o'zi tanqid qilayotgan xodimining ijobiliy salohiyat imkoniyatlarini ham eslatib o'tishi;
- pedagoglarga ko'proq erkinlik va mustaqillik berishi, ularning har bir qadamini nazorat qilishdan saqlanishi, yangiliklarni joriy qilayotganda yo'l qo'ygan xatolarini kechirishi, ularni o'zları to'g'rilashi uchun vaqt va imkoniyat berishi;
- pedagog xodimlarga sust, shijoatsiz, mujmal topshiriqlar bermaslik;
- nutqida nuqsoni bo'lgan, muomala madaniyatidan bexabar, mijg'ov, orastalikni yoqtirmaydigan va o'zi ham didsiz, tartibsiz kiyinib yuradigan shaxslar maktab rahbari lavozimiga tayinlamaslik;
- dunyoda hech narsa abadiy bo'limgani kabi, rahbarlik ham abadiy bo'lmasligi, uni faqatgina o'z farovonligini ta'minlash manbai deb tushunmasligi, bunday kayfiyatga qarshi unda ma'muriy-ijtimoiy, axloqiy, huquqiy immunitet bo'lishi;
- so'zi bilan faoliyati orasida mutanosiblik bo'lishi, doimo axloqiy, huquqiy, ijtimoiyadolat me'yorlariga rioya qilishi, o'z vijdoni oldida mas'uliyatni his qilishi zarur.

Samarali rahbarlikka xos xislatlar qatoriga:

- Strategik rejorashtirishga moyillikning kuchliligi;

- Ishchilarni, mehnat resurslarini taqsimlash bo‘yicha maq-bul va o‘z vaqtida qaror qabul qilish;
- Faoliyat doirasini kengaytirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o‘z mas’uliyatini oshirishga intilish;
- Favqulodda sharoitda ijodiy va ratsional qaror qabul qila olish;
- O‘z kuchiga ishonch;
- O‘z huquqlarini anglash va mas’uliyatni his qilish;
- Kezi kelganda qurbon berishga ham tayyor turish;
- Muloqot malakalarini mukammallashtirishga intilish;
- Murakkab va inqirozli vaziyatdagi jarayonlarni tahlil etish va muammolarning echimlarini topa olish
- Mehnatga yuksak qadriyat sifatida qarash va unga butun kuch-g‘ayratni safarbar etish;
- Aybdorni izlash emas, balki muammoni hal etishga intilish, tavakkaldan qo‘rqmaydigan va mustaqil fikrdagi xodimlar bilan ishlash xohishi;
- Amalga oshirilayotgan g‘oya va natijalarni ishlab chiqarishga, joriy etishga xuddi shaxsiy mulkdek qarashlarni kiritish mumkin.

Uzluksiz metodik xizmat - o‘zaro bog‘langan va maqsad - mohiyati jihatidan o‘qituvchilarining DTSda belgilab berilgan talablar darajasida faoliyat ko‘rsatishlarini metodik asosda to‘liq ta’minlashdan iborat bo‘lgan yaxlit tizimdir.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda davlat va uni boshqarish ishlari avloddan- avlodga o‘tib sayqallanib, takomillashib kelgan. Buyuk allomalar, davlat rahbarlarining boshqaruv haqidagi o‘gitlari hozirgi mustaqillik davrida ham barcha rahbarlarga boshqaruv ishlarida dasturilamal bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy rahbarlik to‘g‘risida fikr yurita borib shuni ta’kidlashimiz joizki, rahbar mas’uliyati, o‘z ish faoliyati bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, malakasi, tajribasi haqida gap ketganda quyidagi muhim jihatlar sanab o‘tilishi zarur:

- rahbarlikka mosligi;
- mas’uliyatni his etish darjasasi;
- sadoqatliligi, mustaqillikka bo‘lgan ishonchi;
- sobiq totalitar tuzumga munosabati, uning asoratlaridan to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
- tashkilotchilik qobiliyati;
- mustaqillik vazifalarini amalga oshirishda xalq bilan o‘zaro hamkorlikda ish yuritishi;
 - o‘z atrofiga sog‘lom kuchlarni to‘plashi va ularga tayanishi;
 - rasmiyatchilikka berilmasligi;
 - o‘z bilimini muntazam oshirib borishi;
 - yangicha tafakkur tarziga, fikrlar xilma-xilligiga ega bo‘lishi;

- o‘zgalar fikrini eshitishi va hurmat qilishi;
- o‘z manfaatini boshqalar manfaati bilan uyg‘un qo‘yishi.

Bu fikrlar har bir rahbar uchun kundalik ish faoliyatida harakat dasturiga aylanishi kerak. Darhaqiqat, boshqaruv nihoyatda murakkab va serqirra jarayon, shuning uchun, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Bunda boshqaruvchi (menejer) faoliyatini tashkil qilishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lib, ulardan asosiyatlari qatoriga:

kompetentlilik - bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish;

insonparvarlik - o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-onalarga do‘stona munosabatda bo‘lish. Ular hurmatini joyiga qo‘yish, e’zozlash;

o‘z kasbini sevish- o‘ziga ishonch, optimizm, o‘z faoliyatini mahoratli boshqarishga erishish;

pragmatizm- ishning pirovard natijasini ko‘ra bilish va unga erishish, ish vaqtidan unumli foydalanish, barcha ichki va tashqi imkoniyatlarni ishga sola bilish;

boshqaruvning ustuvor sohalari - oldindan bashorat etish, ko‘ra bilish. Rejalashtirishning ijro mexanizmini ishslash; *konstruktivlik* - kuchlarni muvofiqlashtirish; *nazorat* - o‘quv ishini boshqarishlarni kiritish mumkin.

Ma’lumki, respublikamizda maktab rahbarlari tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti va maxsus fakultetlar mavjud emas. Rahbarlik salohiyati bevosita o‘qituvchining mактабдаги ish faoliyati davomida shakllanadi. Undan eng avvalo bilim, tajriba, o‘z ishiga sodiqlik, tashabbuskorlik, kompetentlik, tadbirkorlik, halollik, talabchanlik, adolatlilik, madaniyatllilik va jamoani ma’lum maqsadga yo‘naltira bilish ko‘nikmasi talab etiladi.

Hozirda zamonaviy maktab rahbari qanday bo‘lishi kerak? Uning faoliyat jarayonlari qanday vazifalarni o‘ziga qamraydi? Zamonaviy maktab rahbarining asosiy fazilatlari, sifatlari va faoliyat qirralari nimalarda. namoyon bo‘ladi? Maktab rahbarining faoliyati ta’lim-tarbiya jarayoniga qanday ta’sir qiladi? Ushbu savollarga javob berish asosida zamonaviy maktab rahbariga xos bo‘lgan asosiy fazilatlar, sifatlar va xususiyatlari keltiriladi.

Ta’lim mazmunini sifatli ta’minlashda ijodkor maktab rahbarining faoliyatini shartli tarzda uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1.Ta’lim strategiyasini belgilash. Bunga rahbar va uning o‘rinbosarlari innovatsion va samara beradigan g‘oyalarga ega, tashabbuskor bo‘lishi, bu g‘oyalalar asosida maktab faoliyatini rejalashtirishi va bu reja bilan jamoani tanishtirish jarayoni kiradi.

2.Texnologik jarayon. Ishlab chiqilgan nazariy yo‘nalishdagi pedagogik g‘oyalarni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini jamoa bilan belgilab chiqishdan iborat.

3.Shaxsiy munosabatlar o‘rnatish. Bu ilg‘or pedagogik g‘oyalarni amalga oshirishga kirishish, ularni amalga oshirishda pedagogik jamoa, ota-onalar, o‘quvchilar hamda davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishni o‘z ichiga oladi.

Rossiya tadqiqotchilari, xususan, V.M. Shepel tomonidan tavsija etilgan rahbar professiogrammasida favqulodda qobiliyat, fundamental bilim va boy tajriba ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, olim rahbarning g'oyaviy-axloqiy (dunyoqarashi, madaniyati, fuqarolik sifatlari), ilmiy - professional (tajribasi, nazariy va amaliy omilkorligi), tashkilotchilik (kadrlar bilan ishlay olishi, ularning ishini rejalashtirish va nazorat qilish), psixofizik (ruhiy sifatlari, tizimli, mantiqiy mushohada eta olishi, dunyoqarashining kengligi, dunyoqarashining kengligi, xotirasining kuchliligi, irodasining mustahkamligi) xususiyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi.

Maktab rahbarining vaqtdan unumli foydalana olish madaniyati

Rahbarning vaqtni boshqarishi muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifani to'g'ri belgilash, xodimlar o'rtasida ishni taqsimlay olish qobiliyatiga asoslanadi.

Umumiy o'rta ta'lif maktab rahbari ish faoliyatida vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik oqibatida quyidagi muammolar kelib chiqishi mumkin:

1.*Doimiy shoshilish.* Shoshilish holatida shaxs biron-bir masala ustida to'xtab, batafsil mulohaza yuritolmaydi, jamoaga mos qaror qabul qila olmaydi va qaralayotgan masalaga takroran qaytishga to'g'ri keladi.

2.*Charchash.* Doimiy shoshilinch sharoitida uzoq vaqt ishlash, o'rindbosarlariga ishlarni to'g'ri taqsimlamaslik natijasida yuzaga keladigan holat.

3.*Pala-partishlik.* Ishni yomon tashkil etish, rejalashtirmaslik natijasi. Bu ayrim hollarda inson o'z hissiyotini boshqara olmaslik oqibatida namoyon bo'ladi.

4.*Ishni rejalashtirmaslik.* Ko'p hollarda bu xislat alohida shaxs emas, balki u ishlaydigan tashkilot muammosi hamdir.

5.*Mehnat qilishga bo'lgan motivatsiyaning sustligi.* Bu omil ish unumdarligining pastligiga va natijada me'yordagi vazifalarni vaqtida bajara olmaslikka sabab bo'ladi.

6.*Iroda sustligi.* Diqqatni jamlay olmaslikda, beqarorlikda namoyon bo'ladi. Qaror qabul qilishning qiyinligi uning ijrosini ham orqaga cho'zib yuboradi.

8.Ishni bajarishda yoki uni tashkil etishda kasbiy mahorat - professionalizmning etishmasligi.

Vaqtni samarali boshqarish bo'yicha har bir rahbar va pedagog xodim quyidagilarni yodda tutishi lozim:

1. Vaqtni haqiqatan ham juda muhim vazifalarni hal etishga sarflash.

2. Kunni rejalar bilan to'ldirib yubormaslik, belgilangan ishlar orasida tasodifiy va tezkor ishlar uchun bo'shliqlar qoldirmaslik.

3. Muhim (3 tagacha) va ikkinchi darajali (5 tagacha) ishlarni rejalashtirish.

4. Kunini qiyin, muhim va yoqimsizroq ishlardan boshlash va yakunlashda oddiyroq, yoqimliroq ishlarga o'tish.

5. Eski ishni tugallab, keyin yangisiga kirishish. Yangi ishni boshlab har qanday sharoitda uni tugatishga ishonch hosil qilish.

6. Vaqtni ko‘p oladigan yoki o‘z vaqtini rahbar hisobidan tejaydigan xodimlardan uzoqroq bo‘lish.

7. Vaqtni boshqarishga oid qobiliyatni tahlil qilishga o‘rganish.

8. O‘zini “harakatsizliqda” ayblayvermaslik. Rahbar faoliyatida ijodiy tanaffuslar bo‘lib turishi maqsadga muvofiq.

«Iqir-chiqirlar bezovta qilganligi» doim quloqqa chalinadi, xizmat vazifalarini bajarishga vaqt qolmaydi. Ijod haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Aytish joizki, bunday so‘zlar asoslidir. Rahbar bu hakda jiddiy o‘ylab ko‘rishi kerak. CHarchagan, holdan toygan xodim yoki maktab o‘qituvchisi ijodiy ishlashga qodir emas.

Nima qilish kerak?

- Xodim (o‘qituvchi)ning ortiqcha ishlashida aybdorlarni o‘zingizdan tashqarida izlamang.

- O‘qituvchi vaqt uchun sabot bilan, izchil ish olib boring.

- Sizning ko‘rsatma, talablaringiz qancha vaqt sarf talab qilayotganligini tahlil qiling.

- Muayyan bir xodim ish vaqtini xronometraj qiling, vaqtning ishga oid bo‘lmagan sarflarini aniqlang va tahlil qiling.

Eslatma. «Rahbar va vaqt»

1.O‘zining va boshqalar vaqtini tashkil kilishga o‘rganish vaqtni idora qilishni o‘rganishdir.

2.Hamma narsani o‘z vaqtida qilish — hayotdagi va ishdagi eng katta boylik.

3.Siz vaqtga qanday munosabatda bo‘lsangiz, u sizga shunday munosabatda bo‘ladi.

4.Rahbar vaqtdan unumli foydalanishga va boshqalarni shunga o‘rgatishga majbur bo‘lgan tashkilotchidir.

5.O‘z vaqtida bajarilmagan narsa o‘z ijrosi uchuy ancha ko‘p vaqt va kuch talab qiladi.

6. Vaqt ozligidagina emas, balki ko‘pligida ham ishlashni bilish kerak.

7.Rahbar vaqt ustidan hukmron emas, lekin u vaqtdan oqilona foydalanishi mumkin.

8.Har qanday vaqt oralig‘ida biror foydali va zarur narsa qilish mumkin.

9.Hozir va bugun bajarish mumkin bo‘lgan narsani keyinga va ertaga qoldirmaganingiz yaxshi.

10.Vaqt ozligida yoki yo‘kdigida vaqt topa bilish — raqbarning eng oliy san’ati.

11.Eng qimmat haq boy berilgan va yo‘qotilgan vaqt uchun to‘langan hakdir.

12.Eng ko‘p tarqalgan jinoyat vaqtini o‘g‘irlash, sarflash va behuda o‘tkazishdir.

Vaqtdan foydalanishni o‘rganish maqsadga yo‘l topish demakdir.

Xulosa

Dars jarayonida ta’kidlanganidek, raqbarning belgilangan vaqtdan samarali

foydanishi muvaffaqiyatlari boshqaruv bilan chambarchas bog'likdir. Bu esa, o'z navbatida, quyidagi xulosalarni kdlishga asos bo'ladi.

Birinchi xulosa. Rahbarlar haftalik vaqtini byudjetining o'tkazilgan xronometraji natijalarining ko'rsatishicha, ular eng ko'p vaqtini ma'muriy - xo'jalik faoliyatga, yuqori tashkilotlar topshiriqlari bo'yicha hisobotlar tayyorlashga, majlislarda ishtirok etishga sarflaydilar.

Pedagoglar jamoalari bilan ishslashga, ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining holatini tahlil qilishga sarf qilinadigan vaqt o'rtacha bor-yo'g'i 10-15 foizni tashkil etmoqda. Ushbu natijalar rahbarlar faoliyatida pedagogik yo'naliishga e'tibor sustligini ko'rsatadi.

Bu, o'z navbatida, ta'lim boshqaruvi idoralari va muassasalari rahbarlarining malakasini doimiy oshirish, bunda ularning kasbiy faoliyatlaridagi pedagogik yo'naliishni kuchaytirish, rahbarlikning pedagogik va tashkiliy-xo'jalik jihatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish zaruratini hisobga olish vazifasini qo'yadi.

Ikkinci xulosa. Darsdagi muhokamalar jarayonida, tinglovchilar tajribalaridan kelib chiqqan holda, yillik, oylik, haftalik va kunlik ish maromini belgilab olib, vaqtdan samarali foydalanish rejalarini tuzish va uni ongli ravishda joriy etish lozimligini ta'kidlashdi.

Uchinchi xulosa. Ishlab chiqarilgan rejaga asosan, amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarni quyidagi tarzda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Pirovard maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan zarur bo'lgan ishlar.
2. Kelajak haftada, vaqt imkon bersa, bajariladigan ishlar.
3. Kelajak haftada, vaqt ortib qolganida, bajariladigan ishlar.

Rahbarning o'z o'rinnbosarlari, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasiga nisbatan boshqarishi ikki xil amalga oshiriladi: tashkiliy va uslubiy.

Tashkiliy tomoni - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonni amalga oshirishda o'rinnbosarlari, o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqara olishdir.

Uslubiy tomoni - rahbarlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy, amaliy, kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lish hamda o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishdek ilmiy malakaga ham ega bo'lishdan iborat.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim muassasalari rahbarlariga qo'yiladigan asosiy talablar nimadan iborat?
2. Ta'lim muassasalar rahbarlarining ish faoliyatida zarur deb hisoblangan qanday talablar mavjud?
3. Rahbar mas'uliyati, o'z ish faoliyati bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, malakasi, tajribasi haqida gap ketganda qanday muhim jihatlarni sanab o'tar edingiz?
4. Boshqaruvchi (menejer) faoliyatini tashkil qilishning eng asosiy tamoyillar nimadan iborat?

5. Rahbar ish faoliyatida vaqtini to‘g‘ri taqsimlamaslik oqibatida qanday muammolar kelib chiqadi?
6. Vaqtini samarali boshqarish bo‘yicha har bir rahbar va pedagog xodim nimalarni yodda tutishi lozim?

2-mavzu: Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda zamonaviy rahbar ma’naviy qiyofasi va unga qo‘yiladigan talablarga oid bilimlarni rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalilanadi.

1- topshiriq - Rahbar ma’naviyatining boshqaruvda namoyon bo‘lishi

2- topshiriq - Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar

MUNOZARA.



Bu metod yordamida o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o‘quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar

Munozarani o‘tkazish metodikasi

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o‘qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.
2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirig‘ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:
 - “hujum”dan maqsad - muammo echimiga oid variantlarni mumkin qadar ko‘proq taklif etish;
 - o‘z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo echimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g‘oyalar umumiy fikrga zid bo‘lsada, hech biri rad etilmaydi;
 - boshqa ishtirokchilar g‘oyalarini ham rivojlantiring;
 - taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug‘ullanasisiz.
3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g‘oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so‘zga chiquvchilar tartibi o‘rnataladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi.

Agar biror bir kishi tomonidan “aqliy hujum”ni o’tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g’oyalar paydo bo‘lguncha davom etaveradi.

4.Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e’lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum” ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g’oyalarini mustahkamlaydilar. g’oyalar guruh bo‘yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o‘rtaga qo‘yilgan muammoning echimiga tegishli bo‘lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

IZOH: Amerikacha munozara metodi turli shakllarda tashkil etilishi e’tirof etilgan. Bizning amaliyotda eng ko‘p tarqalgan turi - bu “telemunozara” hisoblanadi yoki aniqroq aytadigan bo‘lsak, jurnalist quddus A’zamning o‘quvchilar bilan telemuloqoti ana shu metodning o‘zginasidir.

Teleshou usulidagi munozara afzalliklari xususida ikki og‘iz: bu shaklda tashkil etish bir vaqtning o‘zida guruhda ma’ruza va munozara metodlarini qo‘llash imkoniyatini beradi. 3-5 kishi bo‘lgan guruh oldindan tanlangan mavzu bo‘yicha boshqa qatnashchi (tomoshabin)lar ishtirokida munozara o’tkazadilar. Tomoshabinlar muhokamaga keyinroq qo‘silib o‘z fikrlarini aytishadi yoki savol beradilar.

Teleshou shaklida tashkil etilgan munozarada berilgan mavzu bo‘yicha turli fikrlarni birmuncha aniq ifodalashga imkoniyat tug‘ildi. Albatta, bu erda muhokamaga jalb etilganlar suhbatga puxta tayyorgarlik ko‘rishlari yoki shu soha bilimdonlari bo‘lishlari bilan birgalikda asosiy mavzudan chetga chiqib ketmasliklari kerak.

Teleshouda har bir ishtirokchiga o‘z fikrini to‘liq bayon qilishlari uchun keng imkoniyatlar berishi lozim (3-5 min). Boshlovchi munozara borishini kuzatib boradi, agar belgilangan mavzudan chetga chiqish hollari ro‘y bersa, darhol munozaraga aralashish shart

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Rahbar ma’naviyatining boshqaruvda namoyon bo‘lishi

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma’rifat va madaniyatni o‘rgatish, ularni komillikka etaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Aristoteldan keyin, SHarq va G‘arbda “Muallimi soniy”, ya’ni “Ikkinchi muallim” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, “Yaxshi xulqlar”, “Baxt-saodatga erishish haqida” kabi asarlarida sardor, etakchiga xos xislatlar haqida yozadi. Forobiy bunday fazilatlar deganda, bilimdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo‘yish, haqiqiy ma’naviy komillikka intilish,adolatli bo‘lish kabi xislatlarni tushungan.

Masalan, fozillar shahrining (davlat nazarda utilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo‘lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat

qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg‘un keladi.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida etakchiga xos bo‘lgan 12 ta xislat haqida quyidagilarni ta’kidlaydi:

birinchidan, to‘rt muchasi sog‘lom bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a’zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog‘- salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini aniq tasavvur qila olishi zarur;

uchinchidan, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-
to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur;

to‘rtinchidan, zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar- bilinmas alomatlari va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur;

beshinchidan, u fikrini aniq tushuntirish maqsadida, uni chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur;

oltinchidan, u (ustozlardan) ta’lim olishga, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish-o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, mashaqqatlardan qochmaydigan bo‘lishi zarur;

ettinchidan, eb-ichishda ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini tiya olishi, (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur;

sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘on va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur;

to‘qqizinchidan, u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug‘ma olivhimmat bo‘lishi, ulug‘, oliv ishlarga intilishi zarur;

o‘ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur;

o‘n birinchidan, tabiatanadolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘rvuchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchaniadolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni ravo ko‘rvuchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur;

o‘n ikkinchidan, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur¹ deb hisoblaydi.

Rahbarlikning eng buyuk mezoni - Adolat. Bu so‘zning zamirida butun xalq

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2004. 41-42-б.

taqdiri, jamiyat istiqboli, mamlakatimiz kelajagi mujassam bo‘lgan. Buni chuqurroq anglaylik. Adolat hamma narsadan ustun bo‘lishi kerak.

«Kuch - adolatda» degan Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan o‘git-nasihatlarini esimizdan, xayolimizdan chiqarishga haqqimiz yo‘q.

O‘zidan bir pog‘ona yuqori bo‘lgan kishining oldida ikki bukilib, o‘zidan bir pog‘ona past bo‘lgan odamni oyoqosti qilish eski mustabid tuzum va jamiyatning timsoli edi. Biz bunday illatlardan qutulishimiz, uni butunlay yo‘qotishimiz kerak.

Qo‘lingiz ostidagi kishilar sizga faqat xizmat yuzasidan hisobot berishi mumkin, xalos. Inson sifatida, shaxs sifatida, qolaversa, fuqaro sifatida siz bilan teng huquqli ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

Haqiqiy rahbar barchaga birday odilona munosabatda bo‘ladi. Albatta, odamlar har xil bo‘ladi. Ularning orasida gap uqmaydigan, ba’zan esa ro‘yirost e’tiroz bildiradiganlar ham bo‘ladi. Xalq degani barcha fazilatlari bilan bir qatorda nuqsonlari bilan ham yaxlitligicha xalqdir. Haqiqiy rahbar ana shu yaxlitlikni anglab, aql bilan his etib, ularning boshini qovushtirib, o‘ziga ergashtira olishi bilan xalq oldida munosib hurmat va izzat qozonadi.

Rahbar xodim qiyofasini belgilashda muhim mezonlardan bo‘lgan yuksak ma’naviyat, mas’uliyat va madaniyatatlilik darajasi ham muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi, madaniyati va unga qo‘yilgan talablar

Dunyoda kasbiy mehnatning ko‘p turlari mavjud va ular muayyan sohalar va tarmoqlarga ajratilgan holda boshqariladi, nazorat qilinadi. Aytish joizki, har bir kasb va u biriktirilgan boshqaruv tarmog‘i yoki sohasining o‘ziga xos madaniy-axloqiy an’analari mavjud. Lekin bugungi hayot tajribasi hanuzga qadar ko‘plab sohalar qatorida boshqaruvda ham axloqning me’yoriy yoki qonuniy talablari ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi. Chunki hech bir lug‘atda “boshqaruv axloqi” kodeksi yoki me’yori tushunchasiga duch kelinmaydi, vaholanki shifokorlar axloqi, pedagogik axloqi, huquqshunos axloqi, harbiylar, siyosatchilar va boshqalar axloqi haqida fikrlar juda ko‘p bildiriladi.

Hozirgi sharoitda boshqaruv tizimida ishlayotgan har qanday rahbar uchun, u biron bir korxona, taskilot, jamoa rahbari bo‘ladimi yoki siyosiy arbob bo‘ladimi, odamlar bilan muloqot madaniyatini o‘zlashtirish, jonli so‘z vositasida kishilarga O‘zbekiston hukumati siyosatini to‘g‘ri tushuntira olish, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish va fuqarolik burchlarini chuqur anglab etishlariga yordam berish muhim ahamiyatga ega.

Rahbar xodim murakkab, bahsli va tortishuvlar sharoitida oqillik holatida bo‘lishi kerak. Aqlga suyanish ortiqcha hatti-harakatlardan saqlaydi. Rahbar xodim o‘zini tuta bilishida jamoaga o‘rnak bo‘lishi kerak. Aks holda, rahbar xodimning o‘zni tuta olmasligi jamoada noqulay kayfiyatni keltirib chiqaradi va rahbar obro‘siga ziyon

etkazadi. Zero, bu madaniy fazilatlar rahbar xodim tomonidan tajriba vositasida izchil o'zlashtirilib borilishi kerak.

Shuning uchun axloq insonning shaxsiy qadriyatiga aylanganda, uning aniq faoliyati va xatti-harakatlariga ko'chib o'tganda real yo'naltiruvchi kuchga, burchga aylanadi. Mazkur munosabatlarsiz axloqning mavjudligini ta'minlab bo'lmaydi. Aynan shu xususiyatlar axloqning jamiyatda bir xil qoidalar asosida yashayotgan turli manfaatli munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy funksiyasini ifoda qiladi.

Abu ali Ibn Sino "Axloq haqida" gi risolasida inson to'g'risida gapirib, odamdag'i yaxshi va yomon xulqning hammasi ijtimoiy sharoit, tarbiya vaadolat natijasida vujudga kelishi ta'kidlaydi. Yaxshi axloqli kishida insonning eng yaxshi fazilatlari mujassamlashganini aytadi. Shunday fazilatlar jumlasiga insonparvarlik, haqiqiy do'stlik, sadoqatlik, kelajakka ishonch bilan qarash, mehnatsevarliik, mustahkam irodi, tadbirkorlik va shu kabilarni ko'rsatib, u kishilarni shunday fazilat egasi bo'lishiga chaqiradi. U kishilardagi qo'rkoqlik, ikki yuzlamachilik, aldamchilik, munofikdik, dangasalik va ochko'zlik kabi salbiy hislatlarni qoralaydi va odamlarni bunday illatdan ochishga undaydi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov va davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev asrlari, nutq va ma'ruzalaridan kelib chikqan holda rahbarning jamoaga nisbatan ko'yidagi xususiyatlari keltiriladi:

- kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;
- oljanoblik va beg'arazlik, xolislik;
- kishilarning kadr - kimmatica etish;
- fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- odamlarga ishonch kishilarning o'z kuchiga qobiliyatiga bo'lgan ishonchini ko'llab - kuvvatlay olish uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf kilishga yo'naltira bilish;
- yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish va tashki ko'rinishdagi ozodaligi;
- hushmuomalalik, sopolik;
- kamsukumlik, vazminlik;
- andishalilik, mas'uliyatlilik;
- mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda o'zaro yordam va ko'llab - kuvvatlash;
- prinsipiallik va ishonch;
- talabchanlik, qat'iy tartib-intizomni saklash;
- tankidiy tahlil, shaxsiy javobgarlik, mas'uliyatlilik;
- yukori darajadagi fukarolik vatanparvarlik va baynalminallik. Jamiyat baxt - saodati yo'lida halol mehnat kilish jamiyat boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish.

Rahbarga qo'yiladigan talablar:

- ma'naviy etuklik;
- huquqiy etuklik;

- axloqiy etuklik;
- yuqori saviya va ong;
- ma'rifatchilik;
- madaniyatllilik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his kilish halollik;
- shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga kodirlik;
- kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- tashabbus va ilg'orlikni ko'llab - kuvvatlash qobiliyati;
- prinsipiallik;
- tankidga chidamli bo'lish o'z - o'zini tadkik kila bilish.

Intizomga va mehnatga bo'lgan munosabat:

- Mehnatsevarlik;
- Jamoa urtasida intizomni yo'lga ko'ya bilish;
- Atrofdagilarni mehnatsevarlikni tarbiyala bilish;
 - Bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab minglab kishilar takdirining bedahl ta'sir etishi mumkin.

Tashkilotchilik qobiliyati:

- Xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olish;
- Qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
- Jipslashgan jamoani vujudga keltira olish maqsad sari intiluvchanlik.

Prezident Sh.Mirziyoev rahbar xodimlar quyidagi xislat va qirralarga ega bo'lishini ko'rsatib o'tadi:

- shaxsning aqliy, ahloqiy va ruhiy jihatdan rahbarlikka mosligi;
- ma'naviy-madaniy qiyofasining yuksakligi.
- rahbarlik salohiyatini his eta olish.
- rahbarlik madaniyati, o'z tajriba va malakasini muntazam oshirib borish.
- o'zlikni anglash, tarix va milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g'ururi, iftixori, milliy istiqlol g'oyasiga sodiqligi.
 - ijtimoiy hayotda halollik,adolat, qonunchilik va haqiqatga tayanishi.
 - boshqaruvda demokratik tamoyillarni qo'llay olish qobiliyati.
 - o'z manfaatinixalq-odamlar manfaati bilan uyg'un ko'rishi, jamiyat manfaatini ko'zlashi.
 - faoliyatda manfaatparastlik, shaxsiyatparastlik, boqimandalik, mahalliychilik, ta'magirlik kabi illatlarga murosasiz kurash olib borish.
 - kadrlar zaxirasini yaratish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va halol, haqiqat yuzasidan ularni joy-joyiga qo'yish.

Har bir rahbar o'zi uchun muloqotning etikaviy tartiblarini o'zlashtiradi, shaxsiy fazilatlari va tajribalari bilan boyitadi, manfaat hamda ehtiyojlari doirasida undan

foydanadi. Muhimi u, o‘z-o‘zini baholay olish, tashqaridan kuzatish, xattiharakatlarini muntaazam ravishda tahlil qilish, tanqidiy baho berish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Mazkur etikaviy normalarga amal qilish, zero, uning talablari axloqqa nisbatan nisbiy ko‘rinit kasb qilsada, professional xizmat doirasida muvofaqqiyatga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliyotda ko‘pchilik rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarning o‘z lavozimida qancha muddat ishlaganiga, ya’ni boshqaruv jarayonida orttirgan tajribasiga bog‘liq deb hisoblanadi. Tadqiqotlarda esa, ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi asosan ularning boshqaruv yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy tayyorgarligiga va shaxsiy sifatlariga bog‘liq, deb ko‘rsatiladi.

Mazkur fikrga asoslangan holda, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy tayyorgarligiga va ega bo‘lgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni keltirish mumkin.

Barcha bo‘g‘inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro‘sni, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

Rahbar har qanday vaziyatlarda ham o‘zini tuta olishi, tashabbuskor bo‘lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqa olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, ko‘pchilik dardi bilan yashashi, hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo‘lishi, so‘zi bilan ishi bir bo‘lishi, maqsadni aniq qo‘ya oladigan va uning ijrosini ta’minlaydigan bo‘lishi, vijdonli va adolatli bo‘lishi, samimiyl, vazmin, bag‘rikeng bo‘lishi, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan bo‘lishi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga etadigan, xushmuomala inson bo‘lishi kerak.

Lavozim vazifalari bo‘yicha qo‘yilgan talablarda rahbar va pedagog kadrlar tomonidan birinchi navbatda davlat siyosatini, ta’lim sohasiga oid bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qoidalarini chuqur bilishiga va o‘z faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilgan.

U.I.Inoyatovning ta’kidlashicha, ta’lim muassasasi rahbarlarining bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasini baholash mezonida baholashning alohida ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. Kvalifikatsiya - bu rahbarning pedagogika sohasidagi bilimi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi hamda kasbiga nisbatan qo‘yilayotgan ijtimoiy me’yor va talablarni bilishi, shuningdek, bo‘lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda ta’lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo‘nalishida tushunchalarga ega bo‘lishi.

2. Kasbiy mahorat - bu mavjud yagona pedagogik talablar asosida, pedagogik xodimlar hamda o‘quvchilarning imkoniyatlarini o‘rganib, ularni hisobga olgan holda, maktab jamoasini shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarini hal etish yo‘llarini ko‘rsatish; jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni mакtabni boshqarish ishlariga jalg etish; o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning xatti- harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlash; boshqaruв faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash; maktab jamoasi faoliyati hamda pedagogik xodimlarning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yo‘nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko‘nikma va malakalardan iborat.

3. Faoliyat unumдорligi - bu ta’lim oluvchilarning davlat ta’lim standartlari asosidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari.

“Dominantlik” so‘zi bir necha ma’noni bildiradi. Rahbarlik mavzusidan kelib chiqilsa, —o‘zgalarga ta’sir etish” degan ma’noni anglatadi. Yuqorida ta’kidlangan ma’nodagi «ta’sir etish» iborasi hissiyot tufayli o‘zgalarni o‘ziga jalg eta bilish, o‘zaro munosabat natijasida o‘ziga nisbatan xayrixohlik tuyg‘usini shakllantirishni anglatadi. Chunki tashkilotning ilg‘or faoliyati uchun rahbar zimmasidagi majburiyat va vakolatlarning o‘zi etarli emas. Boshqaruв sohasi mutaxassislari G.Kuns va S.Donnelling fikricha, “Agar xodimlar rahbariyat tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalargagina riosa etib mehnat qilganlarida, ular imkoniyatlarini 60-65 % ishlata olar va o‘z

majburiyatlarini bajarib, ishdan bo‘shamaslikka bahona topar edilar. Xodimlarning qobiliyatidan to‘la foydalanish niyatida bo‘lgan rahbar ularda shunga loyiq histuyg‘uni uyg‘ota olishi lozim” Bu o‘rinda rahbarning etakchilik qobiliyati namoyon bo‘ladi. Tashkilot doirasidagi norasmiy munosabatlar tizimida peshqadam rahbargina o‘z xodimlari qobiliyatini jamoa ishiga to‘liq, ya’ni 100 foiz jalg eta olishi mumkin.

“Rahbar muloqotining samaradorligi” trening ssenariysi

| Ajra tilgan vaqt | Mavzu: | Trening o‘tkazish usuli | Ish jarayoni | Moddiy- texnikaviy ta’minot |
|--|---------------------------|----------------------------|--|--|
| 1 modul: Jamoa oldida chiqishning tarkibi va mantig‘i | | | | |
| 15 minut | Tanishuv, kirish so‘zi | Mo’jaz ma’ruza, mashq | “O‘zini taqdim etish” mashqi. Ishtirokchilar doira shaklida davraga o‘tiradilar. Ularga yo‘riqnomalar beriladi. Ishtirokchilar navbat bilan 1 daqiqa vaqt ichida o‘zlari haqida gapirib beradilar. | Kompyuter, proektor, ekran, flip-chart, |

| | | | | |
|---|---|--|---|---|
| | | | Bunda tinglovchilarda u haqda jonli tasavvur uyg'onishi kerak. SHuning uchun, anketa ma'lumotlari bilan cheklanish kerak emas. Masalan, ismining kelib chiqish tarixi yoki hayotini o'zgartirib yuborgan biron-bir voqeа yoki yoshligidan qolgan yorqin xotira, hayotida qilgan eng dadil, g'ayri oddiy ishi, g'urur tuyg'usini uyg'otadigan yutug'i va h.k. haqida gapirishi mumkin. Har bir ishtirokchiga 30 sekund vaqt beriladi. | markerlar |
| 20 minut | Boshqaruvda muloqotning ahamiyati va asosiy qoidalari | Mini ma'ruza va mo'jaz so'rov | Interaktiv usulda kichik ma'ruza qilinadi va ish jarayonida so'rov o'tkaziladi. Nazariy ma'lumotlar jamlangan tarqatma material beriladi. | Kompyuterproektor, ekran, flip-chart, markerlar |
| 10 minut | O'zini baholash | "Men – haqiqiy" mashqi | (Mashqdan ko'zlangan maqsad – o'zini-o'zi o'rganish va o'zi haqidagi tasavvurni kengaytirish imkoniyatlarini ochish). Tinglovchilarga quyidagi topshiriq beriladi: 1. O'zingizga "Men kimman?" savolini bering va hayolingizga kelgan birinchi 10ta javobni yozib oling. 2. O'zingiz hurmat qilgan (siz uchun ahamiyatli bo'lgan) odamni ko'z oldingizga keltiring va u Sizga qanday baho berishi mumkinligini tasavvur qiling. 10ta javobni qayd eting. 3. 1- va 2-punktdagi javoblarni solishtiring. Topshiriq bajarilgach, tinglovchilar o'z javoblari bilan tanishtirishadi. | Ish daftari |
| 2-modul. Muloqotga jarayonida vujudga keladigan to'siqlar, ularning sabablari hamda ularni bartaraf etish usullari | | | | |
| 25 minut | Muloqot samaradorligiga | Rolli o'yin. Guruhiy tahlil, bahs-munozara | Muloqot jarayoni tasvirlangan video lavha namoyish etiladi, undagi holat ishtirokchilar tomonidan nazariy | Kompyuterproektor, ekran, |

| | | | |
|--|--|---|--------------------------|
| | salbiy ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni bartaraf etish usullari | <p>ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.</p> <p>Ishchan (vaziyatli) o'yin o'tkaziladi ("rahbar va hodim", "murojaat bilan kelgan fuqaro va rahbar").</p> <p>Ishtirokchilar tarkibidan ikkita talabgor tanlab olinadi. Ularga rol taqsimlanadi: biri raxbar, biri murojaat bilan kelgan fuqaro. "Fuqaro" murojaat mavzusini o'zi tanlaydi. "Rahbar"ga trener suhbat olib borish bo'yicha yo'riqnomalar beradi. U muomula bilmaydigan rahbar. Fuqaroning so'zlarini e'tiborsiz tinglaydi. Ko'ziga qaramay, nigohini boshqa joylarga qaratadi. "Fuqaro" o'z fikrini yaxshi izohlay olmasa, keskin ravishda muomula qiladi. Agar "fuqaro" so'zlarini noto'g'ri talaffuz qilsa, jerkib beradi. "Fuqaro"ning fikriga butunlay befarqligini ko'rsatadi va tezrok xonasidan chiqarib yuborishga intiladi.</p> <p>Suhbatga 3 minut vaqt ajratiladi. Suhbat tiganidan keyin, rahbar rolini o'ynagan ishtirokchidan tashqari barcha ishtirokchilar suhbatni muhokama qiladilar. "Suhbat qanaqa o'tdi?", "Rahbar nimani noto'g'ri qildi?", "Rahbarning xatti harakatlari". Trener barcha +/- larni Flipchartga ikki ustun qilib yozib boradi.</p> <p>Yana bir juft ishtirokchi tanlab olinadi. Ularga rol taqsimlanadi: biri raxbar, biri murojaat bilan kelgan fuqaro. "Fuqaro" murojaat mavzusini o'zi tanlaydi. "Rahbar"ga trener suhbat olib borish bo'yicha yo'riqnomalar beradi: "Rahbar "fuqaro"ni kulib kutib oladi. Unga iloji boricha yordam berishga harakat qiladi. Suhbatdoshining nutqini diqqat bilan eshitadi. Bu suhbatga ham 3 minut vaqt ajratiladi. Suhbatning muhokamasi "Fuqaro"ning fikridan boshlanadi. Yofna Flipchartga barcha +/-</p> | flip-chart, markerlar |
|--|--|---|--------------------------|

| | | | | |
|-------------|---|---------------|--|---|
| | | | lar yozib boriladi. | |
| 10 minut | Muloqotga halaqit beruvchi to'siqlar va ularni bartaraf etish | Mo'jaz maruza | <p>Muloqot jarayonida vujudga keladigan to'siqlar, ularning sabablari hamda bartaraf etish usullari haqida ma'lumot beriladi. Muloqotdagi to'siqlar – bu axborotni yaratish, uzatish va tushunish yo'lida paydo bo'ladigan g'ovlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - jismoniy to'siqlar (ishtirokchilar o'rtaсидаги masofaning kattaligi, shovqin, harorat yuqori/pastligi, texnik vositalarning nosozligi, vaqt limiti va h.k.); - fonetik to'siqlar (yoqimsiz ovoz, kuchli aksent, yomon diksiya va h.k.); -noverbal vositalardan noto'g'ri foydalanish/noverbal signallarning noto'g'riliği; -psixologik to'siqlar (shaxsiy sifatlar, baholash va tasavvurlar, hayajon va asabiylik, hamkorga qiziqishning yo'qligi, hamkor haqidagi tasavvurlar va h.k.); -semantik to'siqlar (notanish til yoki sleng, ko'p ma'noli tushuncha/so'zlar, ideomatik iboralar –maqol, matal va h.k., sinonimlar); -sotsial to'siqlar (jins, yosh, madaniy va ma'lumotlilik darajasi va h.k.); -teskari aloqaning yo'qligi. | Kompyuter, ekran, flip-chart, markerlar |
| 20 minut | Muloqotga halaqit beruvchi to'siqlar- ni bartaraf etish | Keys | <p>Ishtirokchilarga ikkita vaziyat aks ettirilgan keys-rolik namoyish etiladi. Biri emotsional fuqaro bilan rahbarning muloqoti, yana biri fuqaroning murojaatini hal qilish rahbar vakolati doirasida amalga oshirilishi qiyin bo'lgan masala bo'yicha suhabat. Ishtirokchilar 2 guruhga bo'linadi va keyslar guruhlarda muhokama qilishadi. Ishtirokchilar roliklardagi qahramonlarning to'g'ri va noto'g'ri harakatlarini aniqlab, ularni ko'rsatilgan me'yorlar asosida izohlashadi.</p> | Kompyuter, ekran, flip-chart, markerlar |

| | | | | |
|--|--|--|--|---|
| | | | Muhokama natijalari flipchartlarga yozib boriladi. Har ikki guruhnинг echimi tinglanadi (3min). Umumiy muhokama olib boriladi. | |
| 10 minut | Tanaffus | Nafas va diksiyani to‘g‘rilashga oid mashq | Ishtirokchilar nafas olish va diksiya bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga oid mashqlar bajarishadi | Ochiq joy |
| 3-modul. Nutqni tarkibiy tashkil etish va jamoa oldida chiqishning emotSIONALLIGI jihatlari | | | | |
| 25 minut | Jamoa oldida chiqishning ifodaliligi | “Mos emas” va “Hayot metaforalari” mashqlari | <p>Mashqlarning mohiyati va bajarish tartibi tushuntiriladi.</p> <p>1. Ishtirokchilar 6ta kartochkaga 6ta so‘z yozishadi (2ta jonli, 2ta jonsiz narsa, 2ta mavhum tushuncha nomlari). So‘ng ixtiyoriy ravishda turli kartochkalarni tanlashadi va ularda ko‘rsatilgan narsalar o‘rtasidagi umumiy jihatni topishga harakat qilishadi.</p> <p>2. Ishtirokchilar 3 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh ixtiyoriy bir so‘zga metafora topadi. Mashq bahs shaklida kechadi. 1-ishtirokchi tanlagan metaforani asoslovchi 1 daqiqlik nutq qiladi. Keyingi ishtirokchi 2 daqiqa davomida avvalgisining o‘xshatishida kamchilik topib, o‘z metaforasining to‘g‘riligini asoslaydi va h.k. oxirida birinchi ishtirokchiga e’tirozlarga munosabat bildirish va javob berish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.</p> <p>Mazkur mashqlar abstrakt tafakkurni rivojlantirish, analogiya asosda fikrlash, kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan.</p> | Bo‘sh qog‘oz kartochkalar, ruchkalar, flip-chart, markerlar |
| 20 minut | Muloqotda hamkorha moslashish (bir fikrning o‘zini turli | “Kuzgi o‘rmon” va “Tuyg‘ular prizmasining uch qirrasi” mashqlari | Ishtirokchilarga uch modallik (vizual, audial, kinestet) haqida qisqacha tushuncha beriladi va muloqot samaradorligini oshirishda odamlardagi bu xususiyatni hisobga olish muhimligi ochib beriladi. | Flip-chart, markerlar, ruchkalar, matn va to‘ldirish uchun maxsus |

| | | | | |
|--|--|--|--|----------|
| | modalliklar da aytish qibiliyatini shakllantirish va nutq ifodalili gini rivojlantirish) | | <p>1.“kuzgi o‘rmon” mashqi meditativ mashqlar qatoriga kiradi. Shuning uchun bu mashqni o‘tkazishda shunga muvofiq mug‘itni shakllantirish muhim ahamiyatga ega (to‘liq sukunat saqlanishi, ishtirokchilar o‘zi uchun qulay holatda o‘tirishi, ko‘zni yumib o‘tirishi va h.k. kerak). Uch modallikdagi matn birin-ketin o‘qib eshittiriladi. So‘ng ishtirokchilar o‘zlariga qaysi matn kuchliroq ta’sir etganini aytishadi. SHu tariqa ular o‘zidagi ustuvor modallikni aniqlashadi.</p> <p>2. “Tuyg‘ular prizmasining uch qirrasi” mashqini bajarishda ishtirokchilar biron-bir tushunchani navbatma-navbat 3 modallik “tili”da ifoda qilishadi. Masalan, birinchi ishtirokchi “mehmonlar yuzida tabassumni ko‘rish – bu yaxshi oilaviy voqeа-hodisalar haqidagi hikoyani tinglash”, -desa, keyingisi, masalan, shunday deyishi mumkin: “YAxshi oilaviy voqeа-hodisalar haqidagi hikoyani tinglash – bu yangi pishirilgan somsa xidini tuyish”. Uchinchi ishtirokchi: “yangi pishirilgan somsa xidini tuyish – bu oilaviy albomni tomosha qilish”, - deyishi mumkin va h.k. Ishtirokchilarga bir necha dastlabki tushunchalar beriladi.</p> | blanklar |
|--|--|--|--|----------|

4-modul. Qaytma aloqa. “Erkin minbar” mashqi (treningda orttirilgan tajribani sinovdan o‘tkazish)

| | | | | |
|----------|--------------------------------------|-----------------|--|-----------------------|
| 10 minut | “Erkin minbar” mashqi. Teskari aloqa | Fikr almashinuv | <p>Qaytma aloqa – bu retsipient kommunikatorga bilib yoki bilmay uzatayotgan (verbal va noverbal) axborot. Qaytma aloqa ko‘rinishlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Baholashsiz teskari aloqa • Pozitiv teskari aloqa – kommunikatorga ijobiy munosabat ko‘rsatish | Flip-chart, markerlar |
|----------|--------------------------------------|-----------------|--|-----------------------|

| | | | |
|--|--|---|--|
| | | <ul style="list-style-type: none"> • Negativ teskari aloqa – kommunikatorga salbiy munosabatni ko‘rsatish. <p>Trening yakunida qatnashchilar o‘z fikr – mulohazalari bilan o‘rtoqlashishadi (qanday ma’lumotga ega bo‘ldi, nima o‘rgandi). Bunda ular trening paytida tilga olingan qoida va mezonlarni qo‘llashadi.</p> | |
|--|--|---|--|

Nazorat uchun savollar:

1. Rahbar ma’naviyatining boshqaruvda namoyon bo‘lishi deganda nimani tushinasiz?
2. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida etakchiga xos bo‘lgan qaysi xislatlarni bilasiz?
3. Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy qiyofasi nimadan iborat?
4. Ta’lim muassasalari rahbarlarining ma’naviy madaniyati nimadan iborat?
5. Rahbarning jamoaga nisbatan qanday xususiyatlar bor?
6. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Rahbarga qo‘yiladigan talablar nimadan iborat?
7. Sh.M.Mirziyoev rahbar xodimlar qanday xislat va qirralarga ega bo‘lishini ko‘rsatib o‘tdi?

3-mavzu: Ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘ribbosari ish faoliyatini tashkil etish. (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda ta’lim muassasasi direktorining ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘ribbosari faoliyatini tashkil etishga oid bilimlarni rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalaniladi.

1-guruh uchun topshiriq - Ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘ribbosari ish faoliyatini ilmiy-metodik asosida tashkil etish

2-guruh uchun topshiriq- Maktabda ma’naviy -ma’rifiy ishlarni rejalashtirish

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”

metodini guruhlarda o‘rganish va tarix darslariga moslashtirish



Kichik guruhlarda ishlash o‘quvchilarning darsda faolligini ta’minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o‘rganishga imkonи tug‘ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o‘rgatadi.

Qo‘llash algartmi

1. FAOLIYATNI TANLASH. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o‘quvchilar uni o‘rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari zarur bo‘ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2.ZARURIY ASOS YARATISH. O‘quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo‘yicha ba’zi bilim, ko‘nikma va malakalarni oldindan egallagan bo‘lishlari kerak.

3.GURUHNI SHAKLLANTIRISH. Odatda har bir guruhda 3-5 o‘quvchi bo‘ladi, (ehtimol, kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma’qul. Guruh o‘lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o‘quvchilar soni, o‘quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o‘zaro harakatiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir. (jinsi, o‘zlashtirish darajasi va boshqa belgilarni asosida). Guruhda ishlash o‘quvchilar o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o‘quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o‘taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish, hohish bo‘yicha yoki hisob bo‘yicha amalga oshiriladi.

4.ANIQ YO‘L-YO‘RIQLAR KO‘RSATISH. O‘quvchilarga faoliyatni bajarish bo‘yicha aniq va xajm jihatdan ko‘p bo‘lmagan tushuntirish beriladi. O‘qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo‘lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta’minlanadi. O‘quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko‘riladi.

5.QO‘LLAB QUVVATLASH VA YO‘NALTIRISH. O‘qituvchi zarurat tug‘ilsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to‘g‘ri yo‘nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta’ziyq o‘tkazilmaydi.

6.MUHOKAMA QILISH VA BAHOLASH. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo‘yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o‘z sardorini

belgilaydi. Zarurat tug‘ilsa, faoliyat natijalari bo‘yicha bildirilgan fikrlar o‘qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo‘lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishslash natijalari o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to‘g‘ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“O‘Z O‘RNINGNI TOP”

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo‘yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning echimini topish mumkin. Undan ko‘pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o‘tilayotgan mavzuni o‘rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomonidan. Ikkinchidan, o‘quvchilarga o‘z fikrini bayon qilishga, muloqot ko‘nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Uchinchidan, dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1.Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga “roziman”, boshqasiga “rozi emasman” degan so‘zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo‘yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Xalq ta’limi vazirligining 2007 yil 21 yanvardagi “Ta’lim muassasasi direktorining ”Ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari to‘g‘risidagi Nizom” 19-sonli buyrugi bilan tasdiqlangan. Mazkur nizom mazmuniga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari bilan boyitildi. Jumladan: “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” (2017 yil 28 iyul), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017 yil 14 mart).

Umumta’lim maktablar direktorining Ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari - bosh pedagog-tarbiyachi bo‘lib, u yuksak fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligi, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan bilimdonligi, ilmiy va ijodiy dunyoqarashining kengligi, bolalarga, insonlarga nisbatan muhabbati, pedagogik jihatdan o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish mavjudligi, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi, umumiyyedagi madaniyatni egallaganligi va yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Direktor o‘rinbosariga quyidagi malaka talablari quyiladi:

- a) kamida bakalavr darajasidagi oliy ma’lumot;
- b) 3 yildan kam bo‘limgan pedagogik ish staji;
- v) malaka toifasi kamida 2-toifali o‘qituvchi.

Direktor o‘rnbosarining bosh maqsadi ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlar tizimini shakllantirish bo‘lib, asosiy vazifalari ta’lim muassasasi tarbiyaviy jarayoniga milliy g‘oya asoslarini tatbiq etish, tarbiya jarayonidagi asosiy va yordamchi vositalarni aniqlash, pedagog xodimlar va o‘quvchilar uchun tarbiyaviy dasturlarni tuzish, tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash, jamoa tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalari bilan ishslash, o‘quvchi shaxsining tarbiyalanganlik darajasini tahlil etib borish kabilardan iboratdir.

Direktor o‘rnbosari maktab ustavida o‘z lavozim vazifalarini bajarilishini tashkil etadi va uni nazoratga oladi.

Jumladan quyida berilayotgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi:

1.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Respublika Prezidentining ta’limni rivojlantirish va takomillashtirish haqidagi Farmon va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yuqori tashkilot qarorlari va buyruqlari hamda ular bilan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlarni o‘rganib boradi va amalyotga tatbiq etib boradi.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5601-sonli farmoni, “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli va “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 2017 yil 28 iyuldagagi PQ-3160-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sinf rahbarlari va yoshlar tashkiloti, kutubxonachi (ARM) ishlarini yo‘naltirib va muvofiqlashtirib boradi.

3. O‘quvchi-yoshlar dunyoqrashini shakllantirishda miliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma’naviy merosi asosida ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e’tiqod, mehr-shavqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi.

4. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida quyidagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi: qonunbazarlik, jinoyatchilik, giyohvandlik, taksikamaniya, chekuvchilik, tartibbazarlik, diniy aqidaparastliklar va shunga o‘xhash noxush ishlarning oldini olish tadbiralarini belgilaydi.

5. O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Konstitutsiyasi va Davlat ramzlariga sadoqat hislarini tarbiyalaydi.

6. Maktab, sinf, ota-onalar qo‘mitalari ishini tashkil etib, uni yo‘naltirib boradi.

7. Mahallalar, jamg‘armalar, prokrotura, ichki ishlar, sog‘liqni saqlash boshqarma va bo‘limlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish bo‘yicha reja

ishlab chiqadi va uning bajarilishini ta'minlaydi.

8. Tarbiyaviy ishlarga barcha o'qituvchilar jamoasi, «Yoshlar tashkiloti» jamg'armasi va boshqa tashkilotlar, bolalar etakchisi, o'quvchilar, pedagoglar, mahalla va ota-onalar qo'mitasi a'zolarini jalb qiladi, ular ishlarini muvofiqlashtiradi.

9. Islomdagi mavjud yuksak ma'naviy umuminsoniy qadriyatlarni, madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishiga ularning ta'sirini, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitlarida ularning o'rni va rolini o'rganadi hamda ularni ochib beradi.

10. Ekstremizm va diniy aqidaparastlikning har qanday shakllari reksion mohiyatini keng tushuntirish, uning yoshlarga ta'sirining oldini olish bo'yicha chora-tdbirlar ishlab chiqadi hamda uni hayotga tatbiq etadi.

11. O'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida respublikamizda yashab turuvchi xalqlar, millatlr o'rtasida do'stlik va totuvlik siyosati asoslarini targ'ib qilish va har tomonlama tushuntirish ishlarini olib boradi.

12. Ta'limning o'quvchilar qobiliyatları va iste'dod-larining har tomonlama namoyon bo'lishiga qaratilganligini ta'minlovchi jarayonini tashkil etishni va uning mazmunini tubdan yangilash, milliy va umuminsoniy ideallar va qadriyatlarning ustuvor ahamiyati, shaxs va atrof-muhit munosabatlarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarning dunyoqarashini yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy tafakkurini shakllantirish bo'yicha chora-tdbirlar belgilaydi.

13. O'quvchilarni maktabda va yozgi oromgohlarda dam olishlarini ta'minlash bo'yicha sinf rahbarlari va ota-onalar qo'mitalari bilan ishlarni tashkil etadi.

14. Tarixiy kunlar, milliy marosimlar, bayramlarning tashkiliy va tarbiyaviy jihatdan yuqori saviyada o'tishini ta'minlaydi.

15. Sinf rahbarlari va etakchilar bilan birgalikda tanaffus paytlarida o'quvchilar orasida madaniy, didaktik o'yinlar tashkil etishni yo'lga qo'yadi. Maktab radiouzelini tasdiqlangan tadbir va rejalar asosida ishlashini ta'minlaydi hamda tadbirlar mazmunini takomillashtirib boradi.

16. O'qituvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda olib borayotgan ilg'or tajribalarini o'rganadi va ommalashtirib boradi.

17. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Ular bilan to'garak ishlarini tashkil etish bo'yicha shartnomalar tuzadi hamda unda belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Erkin fikrlovchi «Fidokorlar», "Fozil insonlar", "Orasta qizlar" va boshqa klublariga o'quvchilarni sinf rahbarlari bilan hamkorlikka jalb qiladi va muntazam ravishda nazorat qilib boradi.

18. O'qituvchi va o'quvchilar orasida tozalik, poklik bo'lishiga erishish, tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish, ularning tibbiy ko'rikdan o'tishlarining tashkil etilishini ta'minlaydi. Bu borada tibbiyot xodimlari bilan hamkorlik ishlarini tashkil etadi.

19. Mahalliy hokimiyat huzuridagi voyaga etmagan yoshlar bilan ishslash

komissiyasi, tuman ichki ishlar bo‘limi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlarni ishlab chiqadi va uning bajarilishini taminlaydi.

Maktab rahbari bilan birgalikda nufuzli, obru-e’tiborga ega bo‘lgan mutaxassislardan iborat targ‘ibot guruhlari tashkil etish, uni bir o‘quv yilida amalga oshiradigan faoliyati bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqadi hamda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida quyidagi mazmundagi vazifalar bo‘yicha davra suhbatlar, tushintirish ishlari olib boriladi:

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan vazifalar;

targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minalashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish;

yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalinish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishslash, ushbu toifani ijtimoiy- iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an‘analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr- oqibat muhitini mustahkamlash kabi yo‘nalishdagi mavzular haqida.

Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish. *Ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari o‘z ish yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritishi maqsadga muvofiqli*. Jumladan:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan aholi bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish,

fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo‘lish va byurokratik

holatlarga yo‘l qo‘ymaslik orqali ta’minlash;

huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa voyaga etmaganlar va yoshlar o‘rtasida oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini anikdash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokuzatuv, elektron hisobga olish va o‘zaro axborot almashish, idoralararo ma’lumotlar bazalari tizimlarini profilaktik ishlarga keng joriy etish;

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini, qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilik darajasi haqidagi ma’lumotlarni aholiga etkazish masalalarida ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qilish, Internet butunjahon axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularni bartaraf etish jarayoni to‘g‘risida keng jamoatchilikni tezkor xabardor qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini, shu jumladan huquqbuzarliklar dinamikasi, ularni sodir etish takroriyligi, ijtimoiy fikr, profilaktik ishlar natijasidan fuqarolarning qoniqish hosil qilishi va aholi bilan hamkorlik darajasini inobatga oladigan baholashning aniq mezonlarini joriy etish;

ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda aholi bandligini ta’minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga etmaganlarning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, profilaktik ishlarini olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

Farg‘ona viloyati, Qo‘shtepa tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 21-sonli umumta’lim maktabining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnibosari – Ulug‘bek Po’latov tomonidan nomenklatura yuritish yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan edi.

2019 yil 29 avgust kuni Xalq ta’limi vazirining 282-sonli buyrug‘i tasdiqlandi.

1 papka Yillik ish reja va ijrosi yuzasidan hujjatlar to’plami (yuqori tashkilotlar

rejasи, muhim tashabbuslar va ta'lim muassasasi umumiy rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan tasdiqlangan ish rejasи, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar va hisobotlar)

2 papka Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir hujjatlar to'plami (voyaga yetmaganlar ishlari idoralararo komissiya va ichki ro'yxatga olingan o'quvchilar, odam savdosiga, giyohvandlikka, diniy ekstremizm va aqidaparastlikka, OITSga qarshi kurash, yo'l harakati va yong'in xavfsizligi yunalishiga oid yuqori tashkilotlar rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan, tasdiqlangan, ta'lim muassasasining tadbirlar rejasи, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar va hisobotlar)

3 papka "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga doir hujjatlar to'plami (yuqori tashkilotlarning shu jumladan xotin-qizlar qo'mitasi hamkorlik rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan tasdiqlangan ta'lim muassasasining tadbirlar rejasи, undagi tadbirlarning bajarilish yuzasidan tegishli hujjatlar va hisobotlar)

4 papka Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiradigan fanlar, tarbiyaviy soatlar o'qitilishiga hamda sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi faoliyatiga doir hujjatlar to'plami (ushbu yunalishga doir hujjatlar bilan birga mobil telefonidan foydalanish tartibi, muassasaning ichki tartib qoidalari, odob- axloq qoidalariiga oid tadbirlar rejasи, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar va hisobotlar)

5 papka O'quvchilar davomatiga doir hujjatlar to'plami (yoshlar yetakchisi tomonidan umumlashtirilgan va xalq ta'limi bo'limiga taqdim etilgan davomat bo'yicha ma'lumotlar, muntazam va surunkali dars qoldiruvchi o'quvchilar va noqobil oila farzandlari bilan olib boriladigan tadbirlar rejasи, undagi tadbirlarning ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar)

6 papka Yil nomlanishi va yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari ijrosiga doir hujjatlar to'plami (yuqori tashkilotlar rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan tasdiqlangan tadbirlar rejasи, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar va hisobotlar)

7 papka O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to'garaklar faoliyati va ta'til kunlariga doir hujjatlar to'plami (fanlar, muhim tashabbuslar doirasida to'garaklarni faoliyatini tashkil etish va o'quvchilarni jalb etish rejasи, shuningdek, ta'til rejalar, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan hisobotlar)

Nazorat uchun savollar:

- 1.Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmunini aytинг?
- 2.Yettita papka haqida ma'lumot bering?

**4-mavzu: Huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo'yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish
(4 soat amaliy mashg'ulot)**

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: tinglovchilarda huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo'yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish oid bilimlarni rivojlantirish

Amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalaniladi.

1- guruh uchun topshiriq – O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish yo'llari.

2-guruh uchun topshiriq - Diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo'yicha profilaktikaviy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etilmas ekan, tarbiyaviy ishlarida samaradorlik bo'lmaydi. Shaxslarga pedagogik ta'sir etish usullaridan asosiy maqsad – tarbiyalanayotgan shaxslarga yakka tartibda pedagogik ta'sir etish orqali ularni jamiyat uchun foydali ishga jalb qilish.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish – mavjud tarbiyaviy usullar yig`indisi emas, balki tarbiyachining tarbiyalanuvchi ongiga ijobjiy ta'siri, muomalasi va murojaatidir. Har bir shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etishning o'z maqsadi bo`lib, unga erishish uchun barcha mavjud chora-tadbirlar ko'rildi. Shaxslarga yakka tartibda psixologik-pedagogik ta'sir etishda har doim ham ijobjiylik bo'laveradi, deb ayta olmaymiz. Chunki ba'zi bir shaxslarda salbiy jihatlar ustun bo'ladi, masalan, janjal chiqarishga moyillik, boshqalarni tushunishni xohlamaslik va hokazo. Yakka tartibdagi huquqbuzarlikning oldini olish quroli tarbiya usullaridir.

Tarbiya usullaridan eng ko'p tarqalgani mehnat qilishga undash bo`lib, u mehnatga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish esa jinoyatning oldini olishning o'ziga xos usuli. Bundan barcha huquqbuzarliklarning boshida bekorchilik turadi, deb xulosa qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham yakka tartibda huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarining xodimlaridan bosiqlik, bardoshlilik talab qilinadi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishdagi eng qiyin jarayon bu – psixologik tarbiyaviy ta'sir etish usullarini tanlash. Chunki har qanday yakka tartibda tarbiyaviy ta'sir etish o'ziga xos tarbiya usullarini qo'llashni talab qiladi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda pedagog nazariyachilar ilmiy kuzatishlarining ham o'z o'rni bor, masalan, amaliyotdagi tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi ichki ishlar organlarining xodimlari qo'llamayotgan usullarni nazariyachilar aniqlashlari va organ xodimlariga o'sha usullarni qo'llab ko'rishni tavsiya etishlari mumkin.

Tarbiya tizimida ichki ishlar organlari xodimlarining pedagogik faoliyatini quyidagilarga bo`lib o'rganilsa, to'g'ri deb o'ylaymiz, ya'ni:

- 1) shaxslarning psixikasiga og'zaki, yozma va texnik vositalar orqali ta'sir etish;
- 2) shaxslarning intellektual darajasi va uni rivojlantirishga pedagogik faoliyatni yo'naltirish;
- 3) shaxslarning xatti-harakatida tarbiyaga bo'yсuna bilish yoki bo'yсuna olmaslik harakatlarini ham o'r ganib borish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi (2000 yil 27 sentyabr) qarorida yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, tarbiyalash, ular o`rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalari va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahalliy hokimliklar huzuridagi mavjud komissiyalar o'z faoliyatini deyarli to'xtatib qo'yganligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin o'zlarining ishlariga mas'uliyat bilan qarayotgan, burchlarini vijdonan ado etayotgan, o'zlarining faoliyatida, ya'ni voyaga yetmagan yoshlarning ongi, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirishda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni jonlantirayotgan ichki ishlar organlarining xodimlari ham kam emas. Bunday tadbirlarning o'zi yetarli emas, deb o'ylaymiz. Buning uchun esa o'zaro hamkorlik kerak bo'ladi, masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklari, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Kamolot» jamg'armalari, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bog'lanish kerak bo'ladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari yoshlar, o'smirlarni tarbiyalash va o'qitish ishlarining qanday amalga oshirilayotgani ustidan nazoratni kuchaytirsalargina o'zaro hamkorlik jarayonining samarasini va dolzarbliyi yo'qolmaydi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy jihatdan bunday tarbiyaviy faoliyatga tayyor emasliklari ham ularning tarbiyaviy ta'sir etish usullaridan to'la foydala olmasliklariga sabab bo'ladi. Bunday hol iloji boricha takrorlanmasligi kerak, agar yana takrorlansa, keyingi safar tashkil etiladigan tarbiyaviy profilaktik tadbirga fuqarolar kelmasliklari ham mumkin yoki kelganlarida ham ijobjiy emas, balki salbiy fikr bilan qaytib ketadilar, o'zlarida tarbiyaning hyech qanday ta'sir kuchini sezmaydilar.

Bunday paytda tarbiyachi shaxs quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: bilimli bo'lismi, notiqlik san'atini mukammal egallagan bo'lishi (auditoriyani o'ziga jalb qila olishi), hayotiy amaliy tajribaga ega bo'lishi, auditoriyaning kayfiyatini tez ilg'ay olishi.

Yakka tartibdagi profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda kuzatish usuli juda qo'l keladi, chunki birinchi uchrashganlarida u doimo o'ziga xos, hyech kim bilan tenglashtirib bo'lmaydigan shaxsdek tuyuladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari

profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda ana shunday to'siqlarni yo'q qila olish san'atini egallaganliklari bilan ham ajralib turishlari lozim. Birinchidan, profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda obyekt bilan subyekt o'rtaida to'g'ridan-to'g'ri tarbiyaviy ta'sir etish ishlari olib boriladi, bunda dastlab, tarbiyaviy jarayon ataylab olib borilmayotgandek tuyuladi, lekin har qanday uchrashuv va tadbirning asosida o'ziga xos tarbiya, ta'sir etish hamda uning elementlari mavjud bo'ladi.

Jinoyatlarning oldini olish ishlari ikki tomonlama – umumijtimoiy hamda kriminologik, ya'ni maxsus tashkil etilgan tadbirlar orqali olib boriladi.

Yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda tarbiya obyekti doimo shaxslar, ularning ongi, psixologiyasi, sezgisi va axloqi bo'ladi, boshqacha aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining tarbiya obyekti alohida shaxslar, bir guruh shaxslar, mehnat jamoalari, oilalar bo'lishi mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, qadim-qadimdan tarbiyachilar o'rtaida tarbiyaviy ish olib bormoqchi bo'lsang, eng avvalo, kimga tarbiyaviy ta'sir etasan – o'shani bilishing kerak, degan fikr mavjud. Ushbu fikr juda to'g'ri bo'lib, haligacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

O'tkazilgan profilaktik tadbirlarning natijalarini, birinchidan, shaxsning ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida; ikkinchidan, uning ijtimoiy faolligida; uchinchidan, shaxsning o'zi doimo faol bo'lib, boshqalarni ham faolikka jalg etishida ko'rishimiz mumkin.

Yakka tartibda huquqbazarlikning oldini olishda huquqiy bilimlar va umuman, huquqning o'rni o'zgacha. Masalan, jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda huquq normalarini amaliyatda to'g'ri qo'llay olish nihoyatda muhim hisoblanadi, chunki huquq normalarini amaliyatda to'g'ri qo'llay olish tufayli shaxslarning axloqida ijobiylik yuzaga keladi. Bunday ijobiylik shaxsning jinoyat sodir qilishi yoki huquq normalarini buzishining oldini oladi. Hatto boshqalardan ham jinoyat yoki huquqbazarlikni sodir etmaslikni talab qilish darajasigacha yetadi.

«Har qanday aqli odam kasalni tuzatishdan avval, kasal bo'lmaslikning harakatini qiladi» degan mashhur hikmat jinoyatga qarshi kurashgandan ko'ra, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldini olgan yaxshi, degan fikrni tasdiqlaydi. Huquq normalari ijtimoiy faoliyatimizni tartibga solish bilan birga, u shaxslarni har qanday boshqa salbiy oqibatlardan ham himoya qiladi. Bu jamiyat rivojida o'ziga xos o'rin egallaydi, masalan, jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslar, nafaqat aynan sodir etgan jinoyatlari uchun jazosini o'tayapmiz, deb o'ylaydilar, shuningdek, ular boshqa jinoyat sodir etmaslik, uni sodir etgan shaxsning qilmishi aslo kechirilmasligini ham anglab yetadilar. Jinoyat sodir etilishi va huquqbazarlikning oldini olishda, nafaqat jinoyat huquqi, shuningdek, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, intizom choralaridani ham keng foydalaniladi.

Huquqbazarlikning oldini olishda amaldagi qonunlarning tarbiyaviy ahamiyati

ham o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Huquqiy bilimlarning shaxs ongiga ijobiy ta'sir etishi, bunday ijobiy ta'sir etishning natijalarini, ya'ni qonunga hurmat va shaxslarda qonunni buzmaslikning odat tusiga aylanganligida ko'rishimiz mumkin.

Shaxs xizmat faoliyatining ahamiyatini oshirish va ko`rsatishda huquq normalarining bugungi kundagi ta'siri, jinoyatning oldini olish va sodir etilgan jinoyatlarning sabablarini aniqlash hamda ochib berish - doim eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olish haqida Yu. V. Soloponovning fikriga qo'shilamiz, chunki uning fikri hayotdan olingan, ya'ni shaxsning sudlanganligi – bu uning uchun o'ziga xos sinov muddati hisoblanadi, chunki shaxs jazoni o'tab, o'zini erkin hayotga moslashganligini ko'rsata bilishi kerak. Bu fikr esa shaxsga ta'sir etishda o'ziga xos yakka tartibdagi profilaktika hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari, ayniqsa, profilaktika nozirlari profilaktik ishlarni jinoyat huquqi qonunlariga suyangan holda olib boradilar. Profilaktika vakillari jinoyatchilik va huquqbazarlikka qarshi kurash usullarini tanlaydilar va tartibga soladilar. Bundan tashqari, yakka tartibdagi huquqbazarlikning oldini olishda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi ham muhim manba hisoblanadi, chunki jinoyat huquqi bor joyda, albatta, jinoyat-prosessual huquqning bo'lishi tabiiy, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ular bir-birining faoliyatini to'ldiradi.

Shaxslarning sodir etadigan yakka tartibdagi huquqbazarliklarining oldini olishda ma'muriy javobgarlik, ya'ni aybdorning ishini o'rtoqlik sudiga berish, jarima to'latish kabilar ham muhim hisoblanadi. Balog'at yoshiga yetmagan shaxslarning sodir etgan jinoyatlarini o'rganib, tahlil qilib, bunday shaxslarning huquqiy ongiga ijobiy ta'sir qilish yo'llarini izlash davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar»ning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat: voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbazarlik va jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish; davlat idoralari, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va huquqbazarliklarning oldini olish masalalari yuzasidan faoliyatini muvofiqlashtirish.

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olishda ma'muriy huquq normalari o'ziga xos o'rinn tutadi, bunda shaxslarni ma'muriy ogohlantirish va jazolash usullari muhim hisoblanadi. Eng asosiysi – shaxslarga ma'muriy-huquqiy normalarni qo'llash orqali ichkilikbozlikka, tekinxo'rlikka, shuningdek, jamoat tartibini saqlash va residiv jinoyatchilikka qarshi to'la ma'nodagi kurash tadbirlarini amalga oshirish mumkin.

Shaxslarga nisbatan ma'muriy jazoni qo'llashning o'zi ularni har bir ishni

kelgusida o'ylab qilishga majbur etadi. Shaxsga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin, u yana jinoyat sodir etsa, endi ma'muriy jazo emas, balki undan qattiqroq jazo qo'llaniladi (albatta, ma'muriy jazoning muddati o'tmagan bo'lsa).

Qattiq jazoning qo'llanishi shaxs o'zining axloqini tuzatmaganidan, qilmishidan xulosa chiqarmaganidan dalolat beradi. Ma'muriy jazoni tayinlashning xavfli tomoni shundaki, jazolangan shaxs to'g'ri xulosa chiqarmay, kelgusida katta jinoyatlarning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lishi mumkin.

Yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olishda fuqaroviylar huquqning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud. Mehnat qonunlari ham bundan chetda qolmaydi, lekin bu qonunlarning barchasini o'rganish ushbu darslikning o'rganish obyektiga kirmaydi. Biz huquq normalari va ularning yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarga ta'sirini tahlil qilishimiz borasida shuni aytishimiz mumkinki, yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olishda huquqiy normalar tizimi mavjud bo'lib, bu tizim yakka huquqbazarlikning oldini olishni birma-bir o'rganadi.

Yakka tartibdagi huquqbazarliklarning oldini olish tarbiyaviy profilaktik ishlarning asosini tashkil qiladi. Uning quyidagi turlari mavjud :

- 1) umumiy;
- 2) maxsus;
- 3) huquqni himoya qiluvchi va huquqni tartibga soluvchi;
- 4) moddiy-ma'naviy va prosessual;
- 5) boshqaruvchi;
- 6) man qiluvchi.

Yakka tartibda huquqbazarlikning oldini olish uchun jinoiy va jinoiy-prosessual qonunlarni takomillashtirish zarur, shuningdek, bu muammoni nazariyotchi yuristlar, amaliyotchilar, psixologlar, pedagoglar hamkorlikda hal qilishlari kerak bo'ladi.

Jinoyatning oldini olish asosini tashkil qiluvchi huquqiy normalar va qonunlar jamoat tartibini saqlashda, ijtimoiy munosabatlarga kirishganda o'z kuchini, ta'sirini ko`rsatsagina ular jonli organizmga o'xshab, o'z vazifasini bajaradi deb o'ylaymiz.

Qonunni hayotga tatbiq etish turli shakllarda namoyon bo'ladi: birinchidan, huquqiy normalarga rioya qilish, ularni qo'llashda. Eng asosiysi, u shaxslarning xatti-harakatida nimalar mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab, ko`rsatib beruvchi quroq hisoblanadi; ikkinchidan, huquqiy normalardan hayotda va amaliyotda foydalanishda, bu esa ularni amaliyotga faol tatbiq etish deb qaraladi; uchinchidan, huquqiy normalarning ijrosini ta'minlash, bu ijroni esa, huquq normalaridan tashqari, har bir shaxs o'z burchi orqali amalga oshiradi. Shaxs o'z burchini bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga asoslanadi va rioya qiladi; to'rtinchidan, huquq normalari va qonunlarni qo'llash madaniyati, unda qonun chiqarishning o'zi birdan-bir maqsad emas, balki har qanday normativ hujjat kabi huquq normalari ham turmushda to'la ma'noda qo'llanilgandagina yashaydi. «Agar, – deb yozadi. U. Tadjixanov, – qonun bajarilmasa, u qonun emas, shior bo'lib qoladi, hayotiy emasligi ma'lum bo'lgan qonunni chiqargandan, chiqarmagan afzal. Talabchanlik va ijro intizomining yo'qligiga ko'pincha, qonunlar va boshqa qonuniy aktlarni bilmaslik sabab bo'ladi.

Mehnat va fuqarolik qonunlarining buzilishi fuqarolarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarining cheklanishiga olib keladiki, bu esa jamiyatdagi sog'lom ruhiy muhitning buzilishiga sharoit yaratadi».

Yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hozirgi kunda respublikamizda jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashda juda qo'l keladi. U jamiyatni ijtimoiy jihatdan boshqarish qonuniyatiga bo'ysunadi. Qonun buzilishining oldini olish huquqiy normalarga, qonunga to'la rioya qilish orqaligina amalga oshiriladi.

Yaxshi qonun, ya'ni aholining talab va istaklaridan kelib chiqib, o'z vaqtida qabul qilingan qonun doimo ijroda bo'ladi. Profilaktik tadbirlar ham aholi o'rtasida doimo izchil ravishda olib borilsa, qo'yilgan maqsadga erishiladi. Profilaktik tadbirlarning bajarilishi va profilaktik qonunlarning amal qilishi doimo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtojdir.

Yoshlar yakka tartibda sodir etiladigan huquqbazarliklarning oldini olishda ularni mehnatsevarlik, sabr-toqat, sabot-matonat, do'stlik va birdamlik ruhida tarbiyalash juda muhim bo`lib, bu oila baxti hamda bola kelajagining mustahkam zaminidir. Shuning uchun ham har bir ota-onan farzandini yoshligidan o'ziga mos ishlarga jalb qilishlari lozim.

Ota-onan bolasining ishini ko'rib, uning qilgan mehnati oila uchun qanchalik foydali ekanligiga baho bersa, – deb yozadi M. Vosiqova, – bolani mehnat qilishga qiziqtiradi, bu ham rag'batlantirish, ham pedagogikada tarbiyaning bir turi hisoblanadi.

Ba'zi ota-onalar tarbiyada o'ta qattiqqo'llikni qo'llab, farzandlariga yaxshi tarbiya bermoqchi bo'ladilar. Bu usul bilan ham bolalarni tarbiyalash to'g'ri emas, chunki bunday tarbiyalangan bolalar ota-onalarining mehri va erkinlikni sezmasliklari sababli, ko'pincha qo'pol muomalali va chehrasida kulgi bo'lmay, bemehr bo`lib yetishadilar, bolalarning bunday holatlari bilan jinoyatning o'rtasi bir qadamni tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatları mavjud. Ichki ishlar organlarining xodimlari o'zlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil qilishda mahoratli, tajribali pedagoglarning yordami va tajribasiga muhtojdirlar. Ichki ishlar organlarining xodimlari yakka tartibdagi profilaktik tadbirlardan tashqari, muktabda, bog'chada, bolalar uylarida ham o'ziga xos pedagogik-profilaktik yo'nalishdagi tadbirlarni olib boradilar. Masalan, profilaktika vakillarining faoliyatini olib ko'raylik. Ular nafaqat o'zlarining ma'muriy hududlaridagi fuqarolarning yoshini, millatini, qiziqishini, hayot tajribasini, balki ularning bilim saviyasi va tarbiyalanganlik darajasini ham o'rghanishlari zarur.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quvchilar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikni oldini olish uchun nimalar qlasiz?

2.Diniy aqidaparastlik, ekstremizm oldini olish bo‘yicha qanday profilaktikaviy va tadbirlarni amalga oshirasiz?

5-mavzu: Sinf rahbarining ta’lim-tarbiya jarayoni va darsdan keyingi faoliyatini tashkil etishdagi o‘rni. (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda ta’lim muassasasida o‘quvchilarning darsdan keyingi faoliyatini me’yoriy hujjatlar asosida tashkil qilishni metodologik asoslariga oid bilimlarni rivojlantirish

Amaliy mashg‘ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalaniлади.

1- guruh uchun topshiriq - sinf rahbarining sinfidagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni va darsdan keyingi faoliyatini tashkil etishdagi o‘rni

2- guruh uchun topshiriq - inson shaxsining kamol topishida tarbiyaviy soatlarni ahamiyati

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni ijrosini viloyatda samarali tashkil etish maqsadida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus yurtimizdagи yoshlarni har jahada munosib o‘rin egallashi va kamol topishi uchun muhim dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda.



Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste` dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinci tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo`naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o`rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To`rtinchi tashabbus yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo`naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalarini nazarda tutadi.

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchiligimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta`limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta`lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo`shimcha 1,5 mingta to`garak tashkil etish vazifasi qo`yildi. Inson shaxsining kamol topishida tarbiyaviy soatlarni ahamiyati

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo`lgan barcha g`oyalar qaytadan ko`rib chiqilishi, asosiy e`tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to`plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzuksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, muktab, mahalla, do`stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy akborot vositalari, san`at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham barcha sinf rahbarlari o`z tarbiyaviy faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Tarbiyaviy soatlar o`quvchilarda shakllangan qobiliyatlarni amaliyatga tatbiq etish maydoni hisoblanadi. To`g`ri tashkil etilgan tarbiyaviy soatlar o`quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tatbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O`quvchilarda xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notikdik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to`g`ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash tarbiyaviy soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, tarbiyaviy soatlar orqali o`quvchilarda to`g`ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo`sh vaqtini to`g`ri taqsimlash, o`z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to`garaklarni to`g`ri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki o`zi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Tarbiyaviy soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo`lib, quyidagi yo`nalishlarni o`z ichiga oladi. Vatanparvarlik axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigienik, ekologik hamda estetik tarbiya shuningdek, o`quvchilarni to`g`ri kasb tanlashga yo`naltiradi. Tarbiyaviy soatlarning mazkur

yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyliги, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o‘z- o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya -vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir tarbiyaviy soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumta’lim maktablarining 1-11-sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan “Tarbiyaviy soatlar uchun namunaviy mavzular rejasi” mazmunan tarbiyaviy- axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida o‘quvchilar uchun tarbiyaviy dars soatlarini o‘tishda nimalarga e’tibor berish kerakligi e’tiborga olingan.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Sinf rahbarining sinfidagi o‘quvchilarning darsdan keyingi faoliyatini tashkil etishdagi o‘rni nimadan iborat?
- 2.Huquq-tartibot idoralar bilan hamkorlikda jinoyatga moyilligi bor voyaga etmagan o‘quvchilarni bu yo‘ldan qaytirish bo‘yicha qanday ishlarni tashkil etadi?
- 3.Inson shaxsining kamol topishida tarbiyaviy soatlarni ahamiyati nimadan iborat?

6-mavzu: O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish. (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda o‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etishga oid bilimlarni rivojlantirish

Amaliy mashg‘ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalilaniladi.

1-guruh uchun topshiriq - o‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishda sinf rahbarining asosiy vazifalari 2-guruh uchun topshiriq - voyaga etmagan o‘quvchi qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarining oldini olish profilaktikasi

Asos bo‘ladigan huquqiy-me’yoriy hujjatlar

O‘quvchilar o‘rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik, huquqbazarlik, jinoyatchilik, erta tug‘ruq hamda ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat ” kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar (O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi tug‘risida”gi Qonuni)

O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” kabi salbiy holatlarning oldini olishda sinf rahbarining asosiy vazifalari

O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunli tashkil etish, boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me’yorlarini tatbiq etish, o‘quvchilarga shaxs sifatida qarab har tomonlama kamol toptirish, qobiliyatli va iste’dodli ayniqsa tarbiyasi og‘ir, huquqbazarlikka moyilligi bor o‘quvchilarni aniqlash, ular bilan yakka tartibda ishslash, bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil orqali qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashish, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash, har tomonlama qo’llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, shuningdek, ular o‘rtasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli huquqbazarliklar va salbiy holatlarning oldini olish kabi vazifalar bugungi kunda barcha pedagog xodimlar oldida turgan dolzarb masaladir.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bugungi kunning talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadida soha mutaxassislari tomonidan profilaktik tadbirlarni tashkil etish yo‘riqnomasi ishlab chiqildi.

Ta’lim muassasalarida mazkur yo‘riqnomada belgilangan vazifalarni samarali tashkil etish, amalga oshirish barchamizning, qolaversa soha mutaxassislarining oldida turgan kechiktirib bo‘lmaydigan doimiy vazifa hisoblanadi. SHularni inobatga olib, quyidagilar asosida tizimli ish tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

Ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri-sinf rahbari hisoblanadi. Unga, biriktirilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim-tarbiya olishlarini o‘qituvchilar, etakchi, psixolog, tibbiy xodim, ota-onalar, shuningdek ta’lim muassasasi rahbariyati orqali voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, xomiylik va vasiylik komissiyalar, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda tashkil etish yuklatilgan.

Shundan kelib chiqib, sinf rahbari tomonidan yangi o‘quv yilining boshidan boshlab, o‘quv yilining yakuniga qadar lavozim vazifalari doirasida bajarilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar:

1. Sinfda o‘quvchilarning “Ijtimoiy pasporti”ni yuritish (*o‘quvchi va uning ota-onasi, oilaviy sharoiti to‘g‘risida to‘lits ma’lumot banki*), ota-onalar bilan yaqin aloqani o‘rnatish, farzandlari to‘g‘risida o‘zaro tezkor axborot almashishni yo‘lga qo‘yish.

2. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha “So‘rov” o‘tkazish (*maktabdag‘i fan, sizitsishi hamda MTTMlaridagi to‘garak va sport seksiyalariga jalb etish*), natijasi bo‘yicha to‘garaklarga jalb etish, to‘garak rahbarlari va ota-onalar bilan o‘zaro axborot almashish, doimiy kuzatuvni yo‘lga qo‘yish.

3. O‘quvchilarni maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalariga to‘liq rioxaya qilishini ta’minlash, muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

4. O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, ularning ongiga tengdosh-tengdoshga tamoyilining mazmun-mohiyatini singdirish, shuningdek, ta’lim muassasalarida qolaversa ko‘cha-kuyda o‘quvchilar tomonidan ta’qiqlangan buyumlar (pichoq, xanjar, pakki, bita, dubinka, bigiz, kastet, o‘yin kartasi hamda o‘quvchilarning hayoti, sog‘ligiga ta’sir etuvchi kimyoviy va pirotexnik moddalar, maxsus sachratguvchi gaz, elektr toki o‘tkazuvchi jihozlar, ma’naviyati va xulqiga xavf solishi mumkin bo‘lgan boshqa predmetlar)ni olib yurilishi mumkin emasligi haqida doimiy tushuntirish ishlarini olib borish.

5. O‘quvchilarning darslarga to‘liq o‘quv qurollari bilan ishtirokini ta’minlash, davomatni nazorat qilish, monitoring yuritish.

6. O‘quvchilarni “Eng faol o‘quvchi” va “Eng faol sinf” nominatsiyalarida hamda jamoat ishlarida faol ishtirokini ta’minlash, monitoring yuritish.

1. O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik, sog‘lom turmush tarzi va huquqiy savodxonlikni targ‘ib qilish.

2. Sinfda hamda xavf guruhi ro‘yhatiga olingan o‘quvchilar bilan amalga

oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida maktab ma’muriyatiga axborot berib borish.

3. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda to‘liq ishtirokini ta’minalash.

O‘quvchilar o‘rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni tashkil etish

1. O‘quvchilarni xavf guruhi ro‘yhatiga olish sabablari.

O‘quvchilarning tarbiyasida ayrim salbiy holatlar aniqlansa, ya’ni tarbiyasi og‘ir, qiziqqon, janjalkash hamda o‘zlashtirishi past;

Dars jarayoniga sababsiz kelmayotgan, muntazam dars qoldiruvchi va chet elga noqonuniy chiqib ketgan, noqobil va notinch oila farzandlari;

Maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalariga to‘liq rioya qilmaydigan hamda ta’lim muassasalariga ta’qiqlangan buyumlarni olib kirgan o‘quvchilar xavf guruhi ro‘yhatiga olinadi.

2. Xavf guruhi ro‘yhatidagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan profilaktik ishlar va ro‘yhatdan chiqarish.

Xavf guruhi ro‘yhatiga olingan o‘quvchilarga sinf rahbari, psixolog, tibbiy xodim, bosh etakchi, mahalla faoli, profilaktika inspektori va faol o‘quvchini biriktirish.

O‘quvchi bilan yakka tartibda suhbat va tushuntirish ishlarini olib borish.

O‘quvchini ommaviy tadbirlar va jamoat ishlariga keng jalb etish.

Shu toifadagi o‘quvchilarning ota-onalari bilan yaqin aloqada bo‘lish va kunlik axborot almashishni yo‘lga qo‘yish.

Biriktirilgan mas’ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida o‘quvchilarda maktabning ichki tartib va odob-axloq qoilariga to‘liq rioya qilishi hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga nisbatan munosabatida ijobjiy o‘zgarishlar aniqdansa xavf guruhi ro‘yhatidan chiqariladi.

3. Maktabning ichki nazoratiga olish.

Umumta’lim maktabi huzuridagi “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining yig‘ilishi qarori bilan o‘quvchi bilan doimiy profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadida o‘quvchi ma’lum muddatga (3 oy, 6 oy, 9 oy, yil) maktabning ichki nazoratiga olinadi. Ushbu ishlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Xavf guruhi ro‘yhatidagi o‘quvchi bilan olib borilgan profilaktik tadbirlar ijobjiy natija bermagan holda, sinf rahbarining Jamoat kengashi raisi nomiga bergen bildirgisi va Jamoat kengashi yig‘ilishining qarori bilan ushbu o‘quvchi maktabning ichki nazoratiga olinadi.

2. Ichki ishlar bo‘limining xulosasi hamda hokimlik qoshidagi voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning qarori asosida ichki ishlar profilaktik hisobiga olingan o‘quvchi maktab Jamoat kengashi qarori asosida maktabning ichki nazoratiga qo‘yiladi.

3. “O‘quvchi” reydi davomida aniqlangan o‘quvchilar.

Qayd etilgan holatlarda maktabning ichki nazoratiga olingan o‘quvchilarga ma’ul xodimlar biriktiriladi va doimiy nazorat qilinadi.

4. Voyaga etmaganlar o‘rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik, huquqbazarlik va jinoyatchilikni sodir etilishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar.

Oiladagi nosog‘lom muhit (notinch va noqobil oila, oilada janjal, so‘kish, haqorat qilish, kamsitish);

Ota-onalar va farzand o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik;

Ota-onalar turli yumushlar bilan band (chet elga ishlash uchun chiqib ketgan);

Ota-onalar farzandining uyda, ko‘chada, ta’lim muassasasida va jamoat joylarida xulq-atvordan bexabarligi;

Ota-onalar tomonidan farzandining ta’lim-tarbiya olishiga. to‘sinqlik qilinishi;

Farzandning bo‘sh vaqtি to‘g‘ri tashkil etilmay qarovsiz va nazoratsiz qolishi;

Mahallada aholi va qo‘ni-qo‘shnilarning beparvoligi;

Ta’lim muassasasida nazoratni susaytirib yuborilganligi.

5. Ichki ishlar profilaktika hisobiga olish

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi (29.09.2010 yil, №O‘RQ - 263-son) Qonuni asosida amalga oshiriladi.

Bunda, quyidagi toifaga kiruvchi voyaga etmaganlar ichki ishlar profilaktika hisobiga olinadi:

nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar; g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar; ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida yoki ijtimoiy- huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida saqlanayotganlar;

ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga taqiqgangan buyumlarni olib kirganlar; ma’muriy huquqbazarliklar sodir etganlar;

voyaga etmaganni jazo qo‘llamasdan turib tuzatish mumkin deb etirof etilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganlar;

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmaganlar;

jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyyot chorasi qo‘llanganlar;

jinoiy jazodan ozod qilinganlar.

6. Maktab ichki nazoratiga olingan hamda ichki ishlar profilaktik hisobida turuvchi o‘quvchilar bilan ishslash:

1. Ushbu toifadagi o‘quvchilarga masullar biriktirish (MMIBDO‘, psixolog, bosh etakchisi, eng faol o‘quvchi (sinfdoshi), to‘garak rahbarlari, mahallaning diniy masalalar bo‘yicha maslahatchisi, profilaktika inspektori).

2. Namunaviy kun tartibi asosida ish yuritish va nazorat qilish.

3. O‘qish jarayonida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha har kunlik uy vazifalarini bajarilishida ko‘maklashish.

4. Huquq-tartibot xodimlari ishtirokida yakka tartibda suhbatlar o‘tkazish.

5. Bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan maktab qoshidagi fan, sport va qiziqishlar bo‘yicha hamda maktabdan tashqari talim muassasalari to‘garaklariga jalg etish.

6. Maktabdagagi jamoa ishlariga, manaviy-marifiy tadbirlar va madaniyat maskanlariga jalg etish.

7. Ota-onalar, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligida nazoratni kuchaytirish, o‘zaro axborot almashish.

8. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har oyda Jamoat kengashi raisiga axborot berib borish.

Voyaga etmagan o‘quvchi qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarining oldini olish profilaktikasi

Voyaga etmagan o‘quvchi qizlar o‘rtasida shaxsiy gigienik qoidalarni to‘g‘ri shakllantirish, tibbiy madaniyatni oshirish, ayniqsa qizlarning o‘zaro munosabatlaridan unumli foydalangan holda, ular o‘rtasida balog‘atga etmasdan turmush qurishning oldini olish, nikoh yoshidagi qizlar o‘rtasida oila muqaddasligi, turli munosabatlar, homiladorlikka oid jarayonlar haqida keng tushuncha berishga qaratilgan profilaktik tadbirlar bosqichma- bosqich quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Xususan:

1. Profilaktik targibot ishlar

Har yangi o‘quv yili davomida hududiy oilaviy poliklinikalar bilan hamkorlikda reja asosida (sentyabr-noyabr, aprel-may oylari) 7-9 va 10- 11- sinflar o‘quvchi qizlari tibbiy (UZI) ko‘rigidan o‘tkazish va aniqlangan kasalliklar bo‘yicha tizimli profilaktik-sog‘lomlashtirish ishlarini amalga oshirish.

Xavf guruhiga kiruvchi o‘quvchi qizlarning davomatini nazorat qilish, xulqida salbiy holatlar aniqlangan holda, takroran tibbiy (UZI) ko‘rikdan o‘tkazish.

Shuningdek, ularga sinf rahbari, psixolog, tibbiy xodim biriktirish va yakka tartibda tushuntirish ishlari olib borish.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchi qizlarni maktab yoshidan oilaviy hayotga tayyorlash, ular o‘rtasida reproduktiv salomatlik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, erta turmush qurish hamda balog‘atga etmasdan farzandli bo‘lishning oldini olish, milliy mentalitetimizga yot zararli ta’sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan soha mutaxassislari va namunali oilalar ishtirokida keng ko‘lamli axborot- targ‘ibot ishlari, davra suxbatlari va uchrashuvlar tashkil etish.

O‘quvchi qizlar o‘rtasida maktabning ichki tartibi va odob-axloq qoidalarni targ‘ib qilish va nazoratga olish.

“Odam salomatligi” va “Sog‘lom avlod asoslari” fanini soha mutaxassisli

tomonidan o‘qitilishini tashkil etish.

“Orasta qizlar” to‘garagi faoliyatini kuchaytirish.

“Salomatlik burchaklari”ni doimiy ravishda yangilab borishni ta’minlagsh.

2. Voyaga etmagan o‘quvchi qizlarda homiladorlik holati aniqlanganda amalga oshiriladigan asosiy ishlar.

Sinf rahbari, tibbiy xodim, psixolog va ota-onan ishtirokida. o‘quvchi qiz bilan yakka tartibda suhbat uyushtirish, tafsilotini aniqlash, tegishli profilaktik choralar belgilash.

Homilada nosog‘lom rivojlanish aniqlangan holda tug‘ruq xolatini to‘xtatish choralarini ko‘rish yoki homila sog‘lom rivojlanayotgan bo‘lsa tug‘ruq muddatiga qadar qat’iy shifokor nazoratiga olish.

Ota-onan, maktab ma’muriyati va sinf rahbarining mas’ulligida ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘liq jalb etish, ko‘maklashish va nazarat qilish.

3. Tug‘ruqdan keyingi amalga oshiriladigan profilaktik ishlar

O‘quvchi qizning oilaviy sharoiti inobatga olinib tug‘ilgan farzandni o‘rnatilgan tartibda “Go‘daklar uyiga” joylashtirish yoki ota-onan qaramog‘iga tarbiyalash uchun berish choralarini ko‘rish.

O‘quvchi qizning o‘qishini davom ettirishi uchun ota-onan, maktab ma’muriyati hamkorligida tegishli sharoitlar yaratish hamda o‘quvchi qizning davomati, fanlarni o‘zlashtirishi, bo‘sish vaqtini mazmunli tashkil etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish.

.

**Maktabning ichki nazoratiga va ichki ishlar profilaktika hisobiga olingan
o‘quvchilar uchun namunaviy kun tartibi**

| № | Vaqti | Band etish | Bandlik | Amalga oshirish mexanizmi | Mas’ul |
|----------|--------------|--|----------------|--|-----------------------------------|
| 1. | 08.00-13.20 | O‘quv jarayoni | 6 soat | 1. Dars jarayoniga o‘quvchini MMIBDO‘, o‘z vaqtida, o‘quv qurollari vasinf rahbari, maktab formasida kelishini nazoratfan o‘qituv-qilish. 2. O‘quvchining bilimi, malakasi, ko‘nikmalarini nazorat | |
| 2. | 13.20-14.00 | Engil tushlik | 40 daqiqa | 1. Ota-onalar tomonidan engil tushlik tashkil etiladi. 2. Tushlik qilishi uchun rahbari, bosh maktab oshxonasida sharoitoshpaz, ota-voratiladi | Maktab rahbari, sinf |
| 3. | 14.00-15.00 | Fan to‘garagi | Haf-tada marta | 1. To‘garak mashg‘ulotiga belgilangan reja asosida kelishinirahbari, ta’minalash. 2. Doimiy nazorat qilish. 3. Fan yo‘nalishi bo‘yicha tanlovlariга jalb etish | Sinf to‘garak rahbari |
| 4. | 15.00-16.00 | Sport sekxiyas i | Haf-tada marta | 1. Sport seksiyasiga belgilangan reja asosida kelishinirahbari, ta’minalash. 2. Doimiy nazorat qilish. 3. Sport muob拜oralariga jalb etish | Sinf jismoniy tarbiya |
| 5. | 16.00-17.30 | Maktabd an tashqari ta’lim muassasa si | Haf-tada marta | 1. Qiziqishi bo‘yicha to‘garakka belgilangan reja asosida kelishinirahbari, ta’minalash. 2. Sinf rahbari va to‘garak rahbari o‘rtasida o‘zaro axborot rahbari sinf almashish, monitoring yuritish | Maktab MMIBDO‘, MTTM sinf rahbari |
| 6. | 17.30-08.00 | Uyda, ota-ona kuzatuvi | Hаr kuni | 1. Ota-onsa tomonidan farzandiga uy vazifalarini vazifalarini tayyorlashda ko‘maklashish. 2. Uy yumushlariga jalb etish. 3. Madaniy hordiq olishi va madaniyat maskanlariga jalb etish. 4. Ertalab maktabga o‘z vaqtida etib borishini ta’minalash, nazorat | Ota-ona va oila a’zolari |

Maktabning ichki nazoratidan hamda ichki ishlar profilaktika hisobidan chiqarish tartibi.

1. O‘quvchining ta’lim-tarbiyasi va xulq-atvorida kuzatilgan ijobiy natijalar bo‘yicha biriktirilgan mas’ullar va sinf rahbari tomonidan maktab Jamoat kengashi raisi nomiga kiritilgan bildirgi asosida mакtab Jamoat kengashi yig‘ilishi qaroriga muvofiq nazoratga olingen o‘quvchi maktabning ichki nazoratidan olinadi.
2. Maktab Jamoat kengashi raisining hokimlik qoshidagi voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaga taqdim etgan ma’lumoti (yig‘ilish qarori) asosida o‘quvchi ichki ishlar profilaktika hisobidan chiqariladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.O‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” salbiy holatlarning oldini olish qanday usullarda tashkil etiladi?
- 2.Ma’naviy tahdidlar va “ommaviy madaniyat” salbiy holatlarning oldini olishdasinf rahbarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
- 3.Voyaga etmagan o‘quvchi qizlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarining oldini olish profilaktikasi qanday tashkil etiladi?

7-mavzu: Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etishda buyuk allomalar va mutafakkirlar ilmiy asarlarining o‘rni

(4 soat amaliy mashg‘ulot)

Ishning maqsadi: adabiyotlar tasnifini bilish, manbalarning darajalarini bilish, tarixiy manbalar turlarini bilish, tarixiy manbalar va ulardan dars jarayonida foydalanishni bilish, tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari va tamoyillarini bilish.

1-topshiriq.

Tarixiy manbalarni, ularning umumiylarini, o‘tmishni o‘zida aks ettirishiga qarab guruhlarga bo‘ling. Ularning har biriga misol keltiring. mumkin:

- Moddiy (ashyoviy) manbalar
- Etnografik manbalar
- Lingvistik manbalar
- Xalq og‘zaki ijodi
- Yozma manbalar
- Mo‘‘jaz rasm-miniatyuralar

2-topshiriq.

Kichik guruhlarda mavzuga tegishli badiiy adabiyotlardan lavhalarni darslikda, mavzuning mazmuniga moslang.

Nazorat savollari:

1. Qanday tarixiy manba turlarini bilasiz ?

2. Darslarida badiiy adabiyotdan qanday didaktik maqsadda foydalaniladi?
3. Badiiy adabiyotlar klassifitsiyasini keltiring.
4. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyatiga misollar keltiring
5. Badiiy adabiyotning qimmati nima bilan belgilanadi?

Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari

1-topshiriq. O‘zbek davlatchiligiga oida tarixiy manbalar klassifikatsiyasini tuzib chiqing va guruhlarda muhokama qiling.

2-topshiriq. Tarixiy badiiy adabiyotlar klassifikatsiyasini tuzing va ulardan tarix darslarida foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqing.

3 - topshiriq. Tarixiy manba va adabiyotlarni bosma va elektron holatda jamlash va ulardan tarix darlarida foydalanish.

“Hamkorlikda o‘qitish” texnologiyasi yordamida - Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asaridan Temurbekning shaklu shamoyili, xulq-atvori, xislatlari haqidagi ma’lumotni o‘rganish

I guruh:

Amir Temurning hayot paytida chizdirgan maxsus surati yo‘q. Lekin zamondoshi Ibn Arabshohning so‘z bilan ifodalagan surati bor. U Temurning shaklu shamoyilini bunday tasvirlaydi: “Temur qaddi-qomati kelishgan, baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag‘oyat kuchli, salobatli, yuzi oq-qizildan kelgan, lekin bironta dog‘i yo‘q, bug‘doy rang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, elkalari keng, barmoqpari yo‘g‘on, boldir va poychalari semiz, qaddu qomati kamoliga etgan, sersoqol, ikki ko‘zi bamisolli sham bo‘lsada, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi.

U o‘limdan qo‘rqmas, qartayib qolgan bo‘lsa-da iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgiyu, ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi (so‘zda) o‘ziga ozor etadigan biron narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar, ma’qulroq edi. U bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas va o‘ziga hosil bo‘ladigan yutuqdan shodlanmas edi”.

Amir Temur o‘tkir fikrlovchi, farosatli, ziyrak, do‘s-t-dushmanni bir qarashda ajrata biladigan, mard va haqgo‘y kishilarni yoqtiruvchi, dono va katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan kishilarni do‘s tutar, xoinlikni va xoinlarni yomon ko‘rardi.

“U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisalarni ko‘rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining albovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o‘tmas, o‘z farosati bilan haqgo‘y va yolgonchini ajratar edi. Ziyrakligi bilan haq nasihatgo‘ydan soxta nasihatgo‘yni ajrata olar, o‘z fikri va idroki bilan sal bo‘lmasa “uchar yulduz”ni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborar, o‘z farosati va mulohazalari bilan bexato aylanib turgan sayyora o‘qini o‘z orqasidan ergashtira olar edi”.

Hazrat Sohibqiron mard kishi edi: “Temur qo‘rqmas, shijoatli, botir kishilarni

o‘z orqasidan ergashtiruvchan bo‘lib, jasoratli, dovyurak va mard kishilarni yoqtirar edi”.

II guruh:

“Temur tengi yo‘q fe’l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, tafakkur dengizining qa’ri yo‘q, tadbiri tog‘iga na tekislig-u, na o‘ydim-chuqur orqali yo‘l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi”.

“Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyid shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to‘la izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko‘rar edi. Ularning har birining o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-ikromi va hurmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o‘z muruvvati bisotini yozar ediki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bahsida insof-u himmat bo‘lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo‘lib, qo‘rsligi ezguligi orasiga qo‘shilgan edi”.

Temur ahlu hunarni ham do‘s tutardi. “Temur har qanday hunar va kasb bo‘lmisin, agar unda biron fazilat va sharofat bo‘lsa, kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘yar edi”.

“U masxarabozlarni yoqtirmas edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim, tabiblarni o‘ziga yaqin tutib, ularning gaplariga e’tibor qilar va so‘zlarini tinglar edi”.

CHIQISH XARITASI

Chiqish xaritasi – bu grafik tashkilotchi bo‘lib, unda talabalar mavzuning yakunida kartochkada uchta bandlar bo‘yicha o‘z fikrlarini yozadilar:

1. Mashg‘ulotning asosiy qismi;
2. Mashg‘ulotning mavzusi bo‘yicha bir savol;
3. Mashg‘ulot materiali bo‘yicha umumiyl tafsilot.

Chiqish kartasining boshqa shaklini qo‘llash mumkin:

| | | |
|--|----------------------------------|--|
| Mashg‘ulotda nimani eslab qoldim | Nimani tushundim, o‘rganib oldim | Menga yoqqan va qiziqish uyg‘otgan narsa hamda nima menga yoqmadni |
| (passiv operativ xotirada qolgan ma’lumot) | (fikrlashga undagan ma’lumotlar) | (shaxsning emotsional-anglash sohasidagi olgan ma’lumotlari) |
| | | |

SAVOLLAR

Albatta, savollarni har kuni barcha o'qituvchilar beradilar, ammo bu savollar qaysi turdag'i savollar bo'ladi? Bu ko'pincha sinfda nazoratni qo'lga olish maqsadida yoki hattoki o'quvchilarni kamsitish uchun qo'llanadigan savllar bo'lishi mumkin. Boshqa ko'pincha qo'llanadigan savollar – bu "yopiq" deb ataluvchi savollardir. Ularga faqat bir to'g'ri javob bo'ladi va ular bilimni tekshirish uchun qo'llanadi. Mazkur uslubiy tavsiyanoma guruhdagi ko'pgina mashg'ulotlarni umumiylar munozara o'tkazish yo'li bilan tashkil qilishni tavsiya etadi. Mazkur munozaralar vaqtida siz beradigan ochiq savollar guruhning faolligini rag'batlantirish va ko'rib chiqilayotgan muammolarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bu erda yodda saqlash kerak bo'lgan eng asosiysi, bu "Men bu munozaradan nima kutayapman – "Ha" va "Yo'q" javoblarinimi yoki erkin qiziqarli muhokamanimi?". Quyida siz qo'llassingiz mumkin bo'lgan "ochiq" savollarga bir necha misollar keltiriladi.

- Faraziy savollar: "Agar ... bo'lsa, siz nima qilardingiz/o'ylandingiz". Ular ta'lim oluvchilarga u yoki bu vaziyatlarni tasavvur qilishlariga yordam beradi, fikrlash jarayonini kuchaytiradi.

- Fikrlashga undaydigan savollar: "Bu muammoni echishda biz qanday yordam berishimiz mumkin?"

- Rag'batlantiruvchi/ qo'llab-quvvatlovchi savollar: "Bu juda qiziq, keyin nima bo'ldi?". Ular ta'lim oluvchilarga shaxsiy tajribalari va qarashlari bilan o'rtoqlashlariga imkon beradi.

- Fikr bildirish savollari: "Siz to'g'risida nima deb o'ylaysiz?". Bunday savollar ta'lim oluvchilarga ularning fikrlari muhim va qiziqarli ekanligini bildirishda qo'llanadi.

- Surishtiruvchi savollar: "Nima uchun bunday deb o'ylasiz?". Xotirjamlik bilan berilgan bu savol ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini chuqurroq o'ylab ko'rishlari va tushuntirishlari/tahlil qilishlariga yordam beradi.

- Tushuntiruvchi/umumlashtiruvchi savollar: "Siz deb o'layapsiz desam, men haq bo'lamanmi?". Ta'lim oluvchi aytganlarini umumlashtirish va siz uni to'g'ri tushunganligingizni tekshirish, boshqa ta'lim oluvchilarni ular shu fikrga qanday munosabatda bo'lishlarini o'ylab ko'rishga undaydi.

- Rozilikni bildiruvchi savollar: "Ko'pchilik ekanligiga rozimilar?". Bunday savollar munozaraga undash uchun berilishi mumkin. Yoki munozara yakunida "Biz bu qismni tugatdikmi?" kabi savollar – keyingi mavzuga o'tishga ruxsat olish uchun beriladi.

Nihoyat, ikkilantiruvchi savollardan foydalanmaslikni esda tutishga harakat qiling, masalan "X - haq, shundaymi?". Bunday savollar ta'lim oluvchilarning faolligini sustlashtiradi. Bir zumda juda ko'p savol bermang va ikki ma'noni

anglatuvchi savollarni qo‘llamang.

Iltimos, boshni silkib ma’qullash, jilmayish yoki hatto siz ta’lim oluvchilar bilan bir darajada o’tirganligingiz ularning faolliklarini oshirishini esdan chiqarmang.

Sinf rahbarlari tomonidan har hafta “Tarbiyaviy soatlar”da o‘quvchilarning tayyorlagan “Buxoriy avlodlar”, “Marg‘inoniy avlodlari”, “Naqshband avlodlari”, “Islom sivilizatsiya bilimdoni” ochiq darslar uchun tayyorlagan matriallari atroflicha muhokama qilinadi va amaliy ko‘mak beriladi.

Shu bilan birga, “Ota-onalar majlislari” va Jamoat kengashi yig‘ilishlarida faol o‘quvchilar e’tirof etiladi (o‘quvchi haqida alohida ta’kidlab o‘tiladi, ota-onasiga minnatdorchilik bildiriladi, ma’naviy yoki moddiy rag‘batlantiriladi).

Bizdan mangu qoladigan narsa-Vatan shonu shuhrati, qudrati va salohiyatining yuksalishi uchun o‘zimizning fidoyi mehnatimiz bilan munosib hissa qo‘shishdir.

Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha’ni-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo‘lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e’tiqod, milliy g‘urur tuyg‘usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma’naviy bisotga ega bo‘lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda keljakka ishonch bo‘lmog‘i shartdir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tavsiyalarga ijodiy yondashgan holda qo‘shimchalar kiritish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari qanday tartibda rejalashtiriladi?
- 2.Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarni tashkil etishda buyuk allomalar, mutafakkirlar qoldirgan meroslari qaysi tartibda o‘rganiladi?
- 3.O‘quvchilarning ma’naviyatini o‘stirishda tarixiy shaxslar, shaharlar, madaniy yodgorliklarni eslash bo‘yicha qanday amaliy ishlar qilinadi?
- 4.Buyuk allomalar, mutafakkirlarni xotiralash maqsadida o‘tkaziladigan uchrashuvlar, seminarlar o‘tkazishni ahamiyati nimada?

8-mavzu: Ta’lim muassasasida ma’naviy – tarbiyaviy va axloqiy ishlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etilishi (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda Ta’lim muassasasida ma’naviy - tarbiyaviy va axloqiy ishlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etilishiga oid bilimlarni rivojlantirish

1- topshiriq - Xalq ta’limi vazirligining “Ma’naviy- ma’rifiy tarbiyaviy va

axloqiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari va sinf rahbarlari” to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomning mazmun mohiyati

2- topshiriq - Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Yoshlar tashkiloti” ish faoliyatini samarali tashkil etish

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Ma’naviyat- insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bulib singib boradi.

Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.

Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar:

1. Ma’naviy me’ros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

2. Xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalari.

3. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.

4. O‘tmish tariximizda amalga oshirilgan bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlar.

5. Oilaning o‘rni va ta’siri.

6. Mahallaning roli va ta’siri.

7. Ta’lim tarbiya tizimi.

Ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi.

Insonga xos orzu intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslash mumkin.

■ O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi.

■ Ma’naviyatimizni yuksaltirishda milliy urf-odatlarimizning ahamiyati kattadir.

■ Tarixiy xotiraga ega bo‘lish.

■ Vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish.

■ Qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

■ Eng buyuk jasorat-ma’naviy jasoratdir.

■ Har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama- zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish- haqiqiy qahramonlikdir.

■ Xalq ma’naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

“...Oila mustahkam bo‘lsagina,davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi”

Islom Karimov

Jahon xalqlari kabi O‘zbekistonda ham 15-may - Xalqaro Oila kuni bayram sifatida

nishonlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrida bo'lib o'tgan yalpi yig'ilishida 1994 yildan boshlab, har yili 15 May kuni Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilindi. Bu qarorni qabul qilishdan maqsad - barcha taraqqiyat parvar va tinchlikparvar insoniyat diqqatini inson o'z umrini o'tkazadigan, o'z orzu umidlari, baxtu saodatini hamda tinchligini ta'minlaydigan maskan - oilaning mustahkam bo'lishiga qaratishdir.

Oila muammolariga bag'ishlangan birinchi ilmiy ekspeditsiya G'arbda 1889 yilda boshlangan edi. Ma'lumki, har bir oilada o'ziga xos dunyo, munosabatlар mavjud. Uning o'z an'analari, qadriyatlari mavjud. Ilmiy natijalarining ahamiyatidan kelib chiqib, oradan yuz yil o'tgach, oila masalalari yanadolzarb tus oldi. BMT 1994 yilni "Xalqaro Oila yili" deb e'lon qildi. Bu tashabbus doirasida o'tkazilgan barcha tadbirlar oilaning davlat va jamiyat g'amxurligiga muhtoj ekanligini isbotladi.

BMT oila masalalarini echishni asosan quyidagi tamoyillar asosida hal qilishni taklif etadi:

- Oilaviy munosabatlarda jinsiy tenglik, o'zaro hurmat;
- Mehnat faoliyatida ayollarning teng ishtiroki;
- Bola tarbiyasida ota-onasi mas'uliyatining barobarligi;
- Nochar va muhtoj oilalarga doimiy g'amxo'rlikning kerakligi.

Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asl ma'nosi ham, oilani, onani, farzandni va qariyalarni ijtimoiy muhofaza qilishga qaratiladi. Buni o'tayotgan yillarimizning nomlanishidan ham anglashimiz mumkin-Inson manfaatlari, Oila, Ayollar. Sog'lom avlod, Onalar va bolalar, Qariyalarni qadrlash, Mehr va muruvvat, Ijtimoiy himoya yili, YOshlar yili. Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan Respublika "Oila" ilmiy - amaliy Markazi va uning viloyatlardagi bo'limlari oila muammolarini ilmiy jihatdan tadqiq etish_оргали, oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishga oid taviyalar ishlab chiqishadi. Oilani qo'llab quvvatlovchi tashkilotlarga yordam ko'rsatishni, yoshlarni istiqlol g'oyasi, Vatanga, oilaga,mahallasiga hurmat ruhida tarbiyalashni o'zining birlamchi vazifasi, deb biladi.

Xalqaro oila kuni arafasida Markazning ilmiy xodimlari an'anaga ko'ra, Respublikamizning turli tashkilot va idoralarida keng qamrovli tadqiqotlar ham o'tkazadi. Shuningdek, talaba va o'quvchilar uchun ochiq darslar, mahallalarda davra suhbatlari, uchrashuv va suhbatlar, tadbirkor oilalar ko'rgazmasi, 100 yosh bilan yuzlashganlar honadoniga tashriflar, oilaviy sport musaboqasi, kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi tadbirlar tashkil etish va o'tkazish rejalashtirilgan. Vaholanki, O'zbekiston oilalarining mustahkamligi borasida yutuqlar ham, muammolar ham kam emas. Hukumatimizning ayollar va o'sib kelayotgan avlod salomatligini yaxshilash borasidagi g'amxo'rligi sababli chaqaloqlar o'rtasidagi o'lim ko'rsatgichlari sezilarli kamaydi. Tug'ish yoshidagi ayollar o'rtasida o'lim kamaydi.

YOshlarning, ular ota-onalarining oila va nikoh masalalariga munosabatlari ham o'zgardi. Oila barqarorligini kafolatlovchi qonunlar va me'yorlar hayotimizga singib bormoqda.

Tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi

Maktabning o'quvchilarga tarbiyaviy ta'siri natijalarini baholash masalasi ancha murakkab. O'quvchilar juda ko'p omillar ta'sirida tarbiyalananadilar va qaysi omilning ta'siri kuchliroq deb baholash katta ekspert salohiyatini talab etadi.



Shu bilan birga, boshqa bir xil sharoitlarda biz ko'pincha bir maktab o'quvchilarining boshqa maktab o'quvchilariga nisbatan tarbiyaliroq ekanini kuzatamiz. Bu maktablar, odatda, ota-onalarning ham, jamoatchilikning ham hurmat-e'tiborini qozongan. Tarbiyalilik darajasini qanday baholash mumkin?

1. Turmush atalmish darajadagi xulosalar.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, maktabning ko'rinishi va sanitariya ahvoli yaxshi, mebellar yaxshi saklangan, darslarda intizomga rioya qilinadi, tanaffus paytlarida tegishli tartib mavjud, o'quvchilarning tashqi ko'rinishlari yaxshi, katta yoshdagilar bilan salomlashadi, yo'l beradi va hokazo.

2. O'qituvchilar, ota-onalar bilan test o'tkazish asosida chiqarilgan xulosalar. Maktab obro'si, bitiruvchilar takdiri va hokazolar aniqlanadi.

3. Maktab hujjatlarini o'rganish (sinf jurnallari, maktab bo'yicha navbatchilik daftari, "tarbiyasi qiyin bolalar" toifasiga kiritilganlar bilan ishslashni hisobga olish hujjatlari va hokazolar).

4. Davomat, darsga o'z vaqtida kelish, "tarbiyasi qiyin bolalar" bilan ishslash tahlil qilinadi, bu ishning natijaliligi o'rganiladi.

5. O'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlarini o'tkazish. Buning asosida axloqiy kategoriylar, huquqiy me'yorlarni bilish, iqtisodiy muammolarga, turli xuquqiy vaziyatlarga munosabatlari va hokazolar baholanadi.

Maktab hamfikr jamoasini vujudga keltirish, har bir o'quvchini u maktabni bitirguncha saqlab qolish va o'quvchining keyingi taqdiri bilan faol qiziqishga naqadar g'amxo'r munosabatda bo'lishini baholash ham juda muhim. Amalda biz buni umumiy majburiy ta'lim bo'yicha ishslash, o'quvchilar soni kontingentini saqlab qolish bo'yicha

ishlash deb ataymiz.

Bu muammoni aniqlash uchun ekspertlar, odatda:

1. Maktab hujjatlarini o‘rganadilar (buyruqlar va o‘quvchilar tarkibi harakati daftari, bir necha yil oo‘yicha sinf журнallari, mikrorayon o‘quvchilarining ro‘yxati, ularning boshqa mакtablarda o‘qiganliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hokazo). Hujjatlar o‘rganilayotganda ochiq va yashirin saralashga e’tibor beriladi, sabablari o‘rganiladi, o‘quvchilarning mакtabni bitirishga kelganlik ko‘rsatkich foizlari, bitiruvchilar taqsimoti aniqlanadi. Bolalarni maktab mikrorayonida o‘qitish masalasiga alohida e’tiborberiladi. Bunda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining ijro etilish masalasi eng muhim hisoblanadi.

. O‘quvchilar, ota-onalar o‘rtasida anketa so‘rovlari o‘tkaziladi.

3. Maktab ma’muriyati ma’lumotlariga ko‘ra, shu mакtabdan ketib, boshqa mакtabda o‘qishni davom ettirayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida shu ta’lim muassasalaridan olingan ma’lumotlar tanlab, o‘rganiladi.

4. So‘nggi yillarda mакtablarning rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda va ekspertlar bu masalani e’tibordan chetda qoldirmaydilar. Ehtimol, bu eng muhim masaladir.

5. Pedagogik kadrlar kasbiy bilimdonligining sifatiy holati va izchil o‘sishini baholash.

“VAQTNI BOSHQARISH” TRENINGI SSENARIYSI

| Vaqt | Mavzu | Trening uslubi | Ish jarayoni | Moddiy-texnik ta’minot |
|--|--|----------------|--|------------------------|
| 1-modul. Vaqt ni to‘g‘ri taqsimlash: ustuvorliklarni aniqlash, maqsadlarni belgilash, ishlarni rejorashtirish | | | | |
| 15 minut | Kirish. Vaqt – qayta tiklanmaydigan resurs | Taqdimot | Trening mavzusining rahbar kadrlar uchun ahamiyati ko‘rsatiladi. Trening hokim o‘rinbosarlarining xizmat vazifalari, kun tartibi va ish uslublariga mos ravishda ishlab chiqilgani ta’kidlanadi. Bunda hokim o‘rinbosarlarining asosiy vazifalari ijrochilarga vazifalarni taqsimlash, joriy nazoratni amalga oshirish, o‘z sohasi bilan bog‘liq faoliyatni takomillashtirish bilan bog‘liq choralarni ko‘rish ekani qayd etiladi. | Proektor, kompyuter |

| | | | | |
|----------|--|------------------------------------|--|---|
| 20 minut | Vaqtdan foydala-nish samara-dorligini aniqlash | Test | “Vaqtdan qanchalik samarali foydalanasiz?” mavzusida test o’tkaziladi va uning natijalari muhokama qilinadi. | Ish daftari, proektor, kompyuter |
| 20 minut | Vaqt kapitali | Mashq, shaxsiy tajriba muhoka masi | Har bir insonning “vaqt kapitali” miqdoriy ko’rsatkichga ega ekanligi va uning cheklanganligini anglash maqsadida “Vaqt kapitalimiz” degan 1-jadval to’ldiriladi. “Qancha vaqtimiz qoldi, tezlashish uchun nima qilish kerak?”, degan savollarga javoblar tinglanadi. SHundan so’ng vaqt kapitalini hisob-kitob qilishning yana bir varianti taklif etiladi. Har bir ishtirokchi o’z vaqt kapitalini taxminan aytadi. Keyin o’z vaqt kapitali miqdorini aniqlash maqsadida 2-jadval to’ldiradi. Ishtirokchilar mashq avvalida aytgan miqdor bilan mashq yakunida aytilgan aniq miqdorni qiyoslash imkoniga ega bo’ladilar. | Ish daftari, flipchart doska, kalkulyator |
| 30 minut | Rahbarlarning o’z vaqtini rejalashtirish amaliyoti-ni tanqidiy tahlil qilish | Keys-stadi | Keys: Yaqinda o’zingiz uzoq vaqt davomida oddiy xodim bo‘lib ishlagan mehnat jamoasiga sizni rahbar etib tanlashdi. Siz ishga doimiy kechikib keladigan xodimingizni 8.15ga o’z xonangizga chaqirtirgansiz, lekin o’zingiz tasodifiy ravishda 15 minutga kechikib qoldingiz. Xodimingiz esa o’z vaqtida kelib, sizni kutib turibdi. U bilan suhbatni qanday boshlaysiz? A) kechikkanimdan qat’i nazar uning ishga kechikishlari sabablarini tushuntirib berishini talab qilaman; B) xodimimdan uzr so’rab, keyin suhbatni boshlayman; V) salomlashaman, o’zimning kechikish sababimni tushuntirib, unga | Proektor, Kompyuter, ish daftari |

| | | | | |
|----------|---------------------|------------------|--|---|
| | | | <p>savol bilan murojaat qilaman: “Sizga o‘xshab ishga doimo kechikib keladigan rahbardan, Sizningcha, nima kutish mumkin?”,</p> <p>G) ishning ko‘zini o‘ylab, suhbatni bekor qilaman va uni boshqa vaqtga ko‘chiraman.</p> <p>Siz qanday yo‘lni tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun (javobingizni asoslang).</p> | |
| 30 minut | “Yarim soat” mashqi | Guruhiy muhokama | <p>Vaqtning qadrini ko‘rsatadigan yondashuvlardan biri – “yarim soat” yondashuvidir. Bu yondashuv “ortiqcha” daqiqalarimizni behuda sarflamay, ulardan samarali foydalanishga yordam beradi. Agar har kuni atigi yarim soat bo‘sh yoki tejalgan vaqtimizni biror ishga sarflasak, bir yilda bu vaqt 182 soatni tashkil etar ekan. Bu 200 soatga yaqin vaqtni biz o‘zimizni rivojlantiradigan yoki qiziqarli kitoblar o‘qishga, xorijiy tilni o‘rganishga sarflashimiz, trening yoki Internet-kursga bag‘ishlashimiz yoki sport bilan shug‘ullanishga ishlatishimiz mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, shunday yondashganda, bir yil davomida 20 ga yaqin katta hajmdagi kitob o‘qib chiqish yoki bir nechta kursni o‘qib tugatish mumkin ekan. Vaqt investitsiyalarimizni ana shunday, bir qaraganda, arzimagan, mayda loyihalarga sarflab, tanlangan yo‘nalishimizda katta muvaffaqiyatlarga erishishimiz mumkin. Bunday oddiy va samarali usul bilan vaqtni nafaqat pulga, balki bilimlarga, ko‘nikmalarga, sog‘liqqa, o‘zimizdan qoniqishga, baxt tuyg‘usiga</p> | Proektor, kompyuter, ish daftari, flipchart-doska |

| | | | | |
|----------|--|--------------------------------------|---|--|
| | | | aylantirish mumkin. (matn muhokamasi, bu tarzda tejalgan vaqt ni nimalarga sarflash mumkinligi bo‘yicha fikr almashinuv) | |
| 40 minut | Vaqtni tejash maqsadida ishlarni rejalash-tirish | “Kun tartibini o‘zgar-tirish” mashqi | <p>Ishtirokchilardan “ertangi kun” uchun 9.00 dan 18.00 gacha bajariladigan ishlar ro‘yxatini yozish so‘raladi (10 minut). Ishlar ro‘yxati tayyor bo‘lganida, trening ishtirokchilariga quyidagicha ko‘rsatma beriladi:</p> <p>“Quyidagi vaziyatni tasavvur qiling. Ertaga tushlikdan keyin siz ishlayotgan sohani boshqarayotgan vazir tashkilotingizga tashrif buyuradi. Rahbaringiz sizga kun davomida shu insonga hamrohlik qilishni topshirdi. Siz o‘zingizda yo‘q hursandsiz. Lekin buning uchun siz shu kunga rejalashtirgan barcha ishlaringizni 14.00gacha bitkazishingiz shart. Ishlarni ertasi kunga qoldirib bo‘lmaydi. Demak, vazifangiz – kunlik rejalashtirgan ishlaringizni 14.00gacha bitirish choralarini ko‘rish (10 minut).</p> <p>Treningning 2-3 ta ixtiyoriy ishtirokchilarining bu boradagi fikrlari tinglanadi (10 minut) – ular kun tartibini qanday o‘zgartirganliklari, nimadan voz kechishga tayyorliklari, qaysi ishlarni guruhlenaganliklari haqida fikrlarini bayon etadilar.</p> | ish daftari, flipchart-doska |
| 35 minut | Ishdagi ustuvorliklarni aniqlash va ishlarni rejalash-tirish | Eyzenxa uer jadvalini to‘ldirish | Eyzenxauer jadvalining mazmun-mohiyati, shu jadval bo‘yicha ishni tashkil etishning afzalliliklari, ustuvorliklarni aniqlashtirmaslikning ayanchli oqibatlari tushuntiriladi (10 minut). Trening ishtirokchilariga o‘z xizmat vakolatlaridan kelib chiqqan holda bir haftalik ishlarini Eyzenxauer | Kompyu-ter, proektor, ish daftari, flipchart-doska |

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
| | | | jadvali asosida rejalashtirish topshirig'i beriladi (15 minut). Trening ishtirokchilaridan 4-5 ta ixtiyor aylaganlarning bu boradagi fikrlari tinglanadi (10 minut) – ular ustuvorliklarni belgilashda, ishlarni taqsimlashda qanday mulohazalardan kelib chiqqanliklarini bayon etadilar. | |
|--|--|--|--|--|

2-modul. Vaqt ni tejash va undan unumli foydalanish texnologiyalari

| | | | | |
|----------|-----------------------------------|--|--|---|
| 20 minut | Vaqt o‘g‘rilari-ni bartaraf etish | «Vaqt o‘g‘rilari»ni aniqlash, guruhiy muhokama | Kichik guruhlarga bo‘linib, ish daftarlarida ish jarayonida vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlab, “vaqt o‘g‘rilari” ro‘yxatini tuzish va ularni bartaraf etish choralarini belgilash topshirig'i beriladi. Guruhdagi muhokamalardan keyin flipchart doskada guruhlarda ishlab chiqilgan variantlar umumlashtiriladi va muhokama qilinadi. Bu mashq trening ishtirokchilariga vaqt zaxiralarini topish va ulardan unumli foydalanish imkonini beradi. | Ish daftari, flipchart doska, stikerlar |
| 20 minut | Vakolatlarni uzatish | Mashq | Vakolatlarni uzatish – yuqori malakali rahbar kadrlarga xos ko‘nikmadir. Mashq davomida turli guruhlarda vakolatlarni uzatish algoritmi va asosiy qoidalari ishlab chiqiladi. Bunda qaysi vakolatlarni uzatish mumkin va qaysilarini uzatish mumkin emasligi aniqlanadi, vakolatlarni uzatish orqali maqsad va vazifalarga erishish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi, vakolatlarni uzatish uchun boshqaruv madaniyatini rivojlantirish zarurati asoslanadi, vakolatlarni uzatishning tashkiliy shart-sharoitlari: rahbar va xodimlar o‘rtasidagi rollar taqsimoti, mas’uliyat va majburiyatlarni | Ish daftari, flipchart doska, stikerlar |

| | | | | |
|----------|---|--|--|------------------------------------|
| | | | taqsimlash, vakolatlarni uzatishga xalaqit beruvchi omillar aniqlanadi. Ishtirokchilar vakolatlarni uzatish texnologiyasini o‘zlashtiradi: maqsad va vazifalarni belgilash, ijrochini tanlash, ijrochiga maqsad va vazifalarni tushuntirish, mas’uliyatni belgilash, faoliyatni rejalashtirish, muddatlarni belgilash, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va nazorat. Vakolatlarni uzatishning rasmiy va norasmiy qoidalari ishlab chiqilgach, rahbarlarning xodimlarga ustozlik qilishi, ish o‘rgatishining afzalliklari haqida fikr yuritiladi. | |
| 10 minut | Shaxsiy taymmenejment tizimini yaratish | Individual qoidalari ishlab chiqish, “O‘zingizga “Lakeyn savoli”-ni bering!” usuli | Treningning har bir ishtirokchisida o‘z ish kunini to‘g‘ri va samarali rejalashtirish ko‘nikmasini mustahkamlash maqsadida kun tartibini belgilash qoidalarni ishlab chiqish (individual) topshiriladi. Bundan tashqari, “O‘zingizga “Lakeyn savoli”ni bering!” usuli o‘rgatiladi. Unga ko‘ra, rahbar vaqtি-vaqtি bilan “hozirda vaqtни eng yuqori samaradorlik bilan o‘tkazish uchun nima qilish kerak?”, degan savolni o‘ziga o‘zi berishi kerak. Ayniqsa, vaqtdan to‘g‘ri foydalanayotganiga shubha tug‘ilishi hamonoq bu savol berilishi kerak. Inson bora-bora bu savolni berishga odatlanib qolishi kerak. Bunday savolni berish ko‘p sonli amaliyotni talab qiladi, biroq bunday tajriba ortishi sari insonda o‘ziga ishonch o‘sadi va inson doimiy ravishda bu savolga yaxshi javob topish haqida bosh qotirishga o‘rganib qoladi. | Kompyu -ter, proektor, ish daftari |
| 10 | Treningni | “Nishon” | Flipchart doskaga “Nishon” shaklidagi | Flipchart |

| | | | | |
|-------|----------|-------|--|----------------------|
| minut | baholash | usuli | qog'oz yopishtirilib, undagi 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar doirasida trening ishtirokchilari treningni baholashlari talab etiladi. | doska, flomas-terlar |
|-------|----------|-------|--|----------------------|

Nazorat uchun savollar:

- 1.Umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Yoshlar tashkiloti" ish faoliyatini samarali tashkil etishni omillari nimadan iborat?
- 2."Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy va axloqiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
- 3.Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
- 4."Yo'l xaritasi"ni nima uchun tuzish kerak?

9-mavzu. Dars tahlili, uni kuzatish va tahlil qilish. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: tinglovchilarda dars tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslariga oid bilimlarni rivojlantirish

Amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalilanildi.

1- guruh uchun topshiriq - Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan ko'zlangan maqsad

2- guruh uchun topshiriq - Darsga tashrif buyurilganda o'qituvchi mahoratini baholash

3- guruh uchun topshiriq - Dars tahlilida yo'l qo'yiladigan asosiy xato va kamchiliklar

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan ko'zlangan maqsad

Darslarni kuzatish va tahlil qilishda maktab rahbarlari faol ishtirok etishlari lozim. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. O'quv dasturlarining dars(pedagogik jarayon)da qay tarzda bajarilayotganligini nazorat qilish.
2. Dars jarayonida DTS talablarining bajarilishini aniqlash.
3. Mavzularning o'qituvchi tomonidan qay darajada to'g'ri ba-yon qili-nishini kuzatish.
4. Darsda yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha o'qituvchiga aniq maslahatlar va yo'nalishlar berish.
5. O'qituvchining yaxshi tajribalarini o'rganib, maktabdagi boshqa o'qituvchilar o'rtasida ommalashtirish.
6. O'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malaka, shuningdek ularning

shaxsiy sifatlarini nazorat qilish.

7. Maktab rahbariyatida darslarni kuzatish bo'yicha aniq reja hamda puxta ishlangan pedagogik tizimning mavjud bo'lishi, ularning bu tadbirga tayyorgarlik ko'rishi, darsning samaradorlik darajasini nazorat qilishi, uni borishi haqida aniq xulosalar chiqarish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha o'qituvchilarga takliflar berish malakasi bo'lishi lozim.

8. Darsni kuzatgandan keyin tegishli xulosalar chiqarish va o'qitu-v-chiga uning atroflicha qilingan tahlilini do'stona munosabatda taqdim etish kerak.

9. Tajribali o'qituvchilarning bir necha darslarini kuzatgandan ke-yin, unga kuzatish natijalarini umumlashtirgan holda, tahlil qilib berish mumkin.

10. O'quvchilardan nazorat ishlari olinganda, kuzatuvchi tomonidan un-i-ng-natijalarini aniqlagan holda, dars tahlilini bir kundan keyin berish maqsadga muvofiqdir.

11. Darsni kuzatish va uni to'g'ri tahlil qilish o'qituvchiga o'z xatolarini anglab etish va bartaraf qilish imkonini beribgina qolmay, balki, uning keyingi darslarga tayyorgarlik ko'rishdagi mas'uliyatini oshiradi. Natijada o'quvchilar chuqurroq bilim egallashlariga imkoniyat yaratiladi.

12. O'qituvchining darsi bo'yicha xulosa chiqarishda, uni tashkil etishga. mo'ljallangan ballarga asosan yakuniy baho berish maqsadga muvofiqdir. Agar o'qituvchi to'plagan ball 100 bilan 85 oralig'ida bo'lsa, uning faoliyati namunali, 84 bilan 75 oralig'ida ijobiy, 74 bilan 60 oralig'ida qoniqarli, 60 dan past bo'lgan holda esa qoniqarsiz bahoga ega bo'ladi (2.1.1.-jadval).

13. O'qituvchilar bir-birlarining darslarini kuzatish rejasini monitoring xonasida tashkil etilgan "Ekran"ga joylashtirish va har oyda kuzatish soni va sifati bo'yicha yig'ilishlarda hisobotlar berib borish tavsiya etiladi.

14. Maktab rahbarlari qachon, qaysi o'qituvchining darsini kuzatganligini dars tahlili daftariga belgilab boradi. Dars tahlilini 2.1.1.-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarning faoliyatini kuzatish, o'rganish va ularning tahlillaridanma'lumki, aksariyat maktablarda o'qituvchilarning ko'rgazmali, ochiq darslarni jamoa bo'lib kuzatish, tajriba va malakaga ega bo'lgan o'qituvchilarning dars berish usullarining yosh o'qituvchilar tomonidan o'rganilishi mobaynida tashkil qilinaltgan darslarni texnik vositalar yordamida amalga oshirish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Bu jarayonni ilmiy jihatdan asoslangan holda, to'g'ri tashkil etish hamda maktab ma'muriyati va yosh pedagoglarning muntazam ravishda darslarni kuzatishlari va nazorat qilishlari uchun ta'lim muassasalarida "Yopiq kichik telestudiya"lar tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bu ishlarni tayanch maktablar (I bosqich)da va moddiy-texnika bazalari etarli hamda tajriba va malakaga ega bo'lgan o'qituvchilar soni ko'p

bo‘lgan maktablar (II bosqich)da amalga oshirilishi mumkin

Mazkur “Yopiq kichik telestudiya”lar yordamida maktab rahbarlari, yosh o‘qituvchilar, yuqori tashkilotlardan kelgan kuzatuvchilar tomonidan ochiq darslarni yoki tajribali, malakali va tajribasi ommalashtirilayotgan o‘qituvchilarning darslarini kuzatish va tahlil etish imkoniyati yaratiladi.

Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan guruh va yakkama-yakka tartibda faoliyat yuritadi. Bunda quyidagi uslub va texnologiyalardan foydalanadi:

1. Algoritmlash (tayanch komponentlar, tayanch chizma, diagrammalar, qisqa axborotli tezislari).

2. Ijodiy topshiriqlar echish.

3. Modellashtirish (tahlil etish, muammoli savollar, manti-qiy tahlillar, qiyosiy taqqoslashlar).

4. Aqliy hujum.

5. Sintetik (analoglar yordamida) echim.

6. Nutq o‘stiruvchi dars.

7. Evristik suhbat (quyi sinflarda: yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilim berish; yuqori sinflarda: topqirlik, ziyraklik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta’lim usullari).

Dars tahlilida quyidagi psixologik holatlarga e’tibor berish zarur:

- o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish uslublarining qo‘llanilishi;
- diqqat-e’tibor, his-hayajon holatlarning kechishi;
- o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish maqsadida, yangi tushuncha va fikrlarning qo‘llanilishi;
- o‘quvchining aqliy faoliyatlarini ishga sola oldimi? SHunga muhit yarata oldimi? kabi savollarga javob bor lki yo‘qligi;
- o‘quvchi - o‘qituvchi muloqotlari uchun psixologik muhit vujudga keltirilgan lki keltirilmaganligi;

• dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, undash, ma’qullah, maqtash, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, hazil-mutoyiba qilish va maslahatlar berish kabi xatti-harakatlar unumli qo‘llanildimi?

• o‘qituvchi “Bolalarga do‘stona munosabatda bo‘lish” dastur loyihasi doirasida o‘quvchi bilan samimiylilikni va o‘zaro hurmatni joyiga qo‘yishga erisha oldimi?

• dars jarayonida ijodiy muhit yaratildimi? O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro tushunmovchilik sodir bo‘lgan holatlarda o‘qituvchi vaziyatdan chiqa oldimi?

• o‘qituvchi va o‘quvchi orasida muomala madaniyatiga erishildimi?

Yuqoridaagi psixologik muhitlarni hisobga olganda darsni tahlil etishni quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq:

1. Dars qaysi tilda olib borilishi, uning umumdarslar tizimidagi o‘rni.

2. Dars jarayonida didaktik maqsadlarning amalga oshirilishi.

3. Darsning mazmuni (darsda ilmiylik, tushunarilik, ketma ketlikka rioya qilinganligi).

4. Darsning uslubiy tomoni, ko‘rgazmali va texnika vositalarning to‘g‘ri tanlanganligi.

5. Darsda o‘quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashlarining tashkil etilishi.

6. O‘quv materialini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi, ularning bilim sifati va materialni tushungan holda o‘zlashtirilishi.

7. Darsda iqtidorli o‘quvchilarga e’tibor qaratilish darajasi.

8. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lganligi.

9. Darsda bolalarni rivojlantirish, tarbiyalashga e’tibor berilishi, darsni ularning dunyoqarashlariga moslash, o‘rganilayotgan materialga munosabatlari, ularni tahlil qila bilishlari, sintez va umumlashtira olishlari.

Darsni tahlil qilish rahbar va o‘qituvchi uchun avvalo pedagogik mahorat maktabidir. Ilmiy asoslangan pedagogik tahlil o‘qituvchiga darsning kamchiliklarini ko‘rish, ularni vaqtida yo‘qotish, mavjud muvaffaqiyatlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo‘limi mudirlari, o‘rinbosarlari, metodistlari tomonidan haftasiga kamida 2 soat, ta’lim muassasalari direktori, ularning o‘rinbosarlari tomonidan 4 soat, fan metodbirlashma rahbari tomonidan 2 soat, o‘qituvchilar tomonidan 1 soat o‘qituvchilar darslari kuzatilishi va tahlil qilinishi talab etiladi.

Dars tahlilida yo‘l qo‘yiladigan asosiy xato va kamchiliklar. Darsga tashrif buyurilganda o‘qituvchi mahoratini baholash

Darsni maqsadli, malakali tahlil qilish, ayniqsa, yosh va tajribasiz maktab rahbari va o‘qituvchilar uchun oson emas. Kuzatishlar va tajriba- sinov natijalarini hisobga olgan holda, rahbar va o‘qituvchilar tomonidan tez-tez yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Darsda o‘quvchilarning bilim egallahsga bo‘lgan qiziqishlarini faollashtirishning turli xil yo‘llaridan foydalanib, o‘qituvchi sinfning yuqori faolligiga erishadi, shu bilan bir qatorda ayrim o‘quvchilar uning nazaridan chetda qoladi va o‘quvchilarning bir qismi o‘quv jarayonida faol ishtiroy etmaydilar.

2. Soxta “muammolilik” Muammoli o‘qitish metodlaridan qanday bo‘lmisin foydalanishga harakat qilib, o‘qituvchi ayrim hollarda o‘z savollariga o‘quvchilardan to‘la fikrlanmagan taxminiy javoblar oladi.

3. O‘quvchilarni mustaqil ishlatish mobaynida yo‘lga qo‘yiladigan xatolar:

- dars jarayonida o‘quvchi tomonidan bajarilgan o‘quv topshiriqlarini tekshirmaslik;

- o‘quvchining mustaqilligini ta’minlash uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirmasdan, o‘quv jarayonini oldindan batafsil tahlil qilish;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari uchun ularning yoshlari va fanlarning xususiyatlarini hisobga olmasdan, ularga ortiqcha o‘quv vazifalari berish.

4. Muvaffaqiyatlari o‘qitish qoidalarini buzish:

- darsda ko‘rgazmali qurollarni me’yoridan ko‘p ishlatish;
- o‘qitishning texnik vositalaridan noo‘rin foydalanish;
- sun’iy tarzda zamonaviylikka intilish va tarbiyaviy daqiqalardan o‘z o‘rnida foydalanmaslik.

5. Asosiy ilmiy dalillar, qonuniyatlar, formulalar va isbotlash usullarining o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlash-tirilishiga sovuq-qonlik bilan qarash; og‘zaki so‘rov metodidan maqsadga muvofiq tarzda foydalanmaslik.

6. Har bir o‘quvchi va sinfdagi o‘quvchilar jamoasini to‘liq o‘rganmasdan turli sinflarda bir xil metodlar yordamida dars o‘tish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlardan samarali foydalana olmaslik, tabaqlashtirib o‘qitishga e’tibor qaratmaslik, o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini o‘z vaqtida ko‘rilmasligi.

7. Dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olmaslik, darsda yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quvchilarga tegishli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmaslik va ularni me’yoridan ortiqcha hamda to‘liq tushunib etilmagan uy vazifalari bilan band qilib qo‘yish, shuningdek, uyga berilgan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha zarur izohlar, sharhlar va tavsiyalar

berilmasligi tufayli o‘quv jarayoni samaradorligining past bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Darsga tashrif buyurilganda o‘qituvchi mahoratini qanday baholash kerak?

O‘quv faoliyati motivatsiyasi.

1. O‘rganilayotgan material, ahamiyatini, maqsadini tu shuntirish.
2. Bilim olishga qiziqishni o‘stirish.
3. Darsning muammoli-ijodiy tuzilishi.
4. O‘qitishning ijodiy motivatsiyasi.
5. Individual, guruq bilan va umumiylash.
6. O‘quvchilar bilimi va tajribasiga tuzatish kiritish.

7. Fan bo‘yicha maxsus mustaqil ishslash, xulosa chiqarish malakalarini shakllantirish.

I. O‘rganilayotgan material, mazmuni.

1. Materialning ilmiyligi va tushunarligi.
 2. Dolzarbliji va hayot bilan bog‘langanligi (aloqasi).
 3. O‘quv axborotining muammoliligi va jalb qila olishi.
 4. O‘zlashtirish uchun berilayotgan material hajmining optimalligi.
- II. Dars jarayoni tuzilishining samaralorligi.

1. Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.
2. Faoliyat turlari sur'atining, almashinuvining va o'zgarishining optimalligi.
3. Ko'rgazmalilik.
4. Yangi texnologiyalar (shu jumladan, axborot texnolo giyalari)dan foydalanit darajasi.
5. It usullarining oqilonaligi.
6. O'quvchilar ishini nazorat qilish.
7. O'qitish samarasi.
8. Tarbiyaviy ishlar samarasi.
9. O'quvchilar rivojlanishiga darsning ta'siri.

Darsning o'rtacha bali

Darsning har bir unsurini ballarda baholash mumkin:

- a'lo — 5 ball
- yaxshi — 4 ball
- qoniqarli — 3 ball
- element kuzatilmadi — 2 ball

O'qituvchi anketasi

| Nº | Savollar | Javoblar ha 1yo‘q |
|----|---|----------------------|
| 1. | Barcha o‘quv-tarbiya masalalarini hal qilishda maktab o‘qituvchilari o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro yordam berish mavjudmi? | |
| 2. | Pedagogik talablarda bir xillik bormi? | |
| 3. | O‘quvchilarning intizomi va xulq madaniyati sizni qoniqtiradimi? | |
| 4. | Pedagoglarning talablarini maktab o‘quvchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilar muhitida | |
| 5. | Jamoada har chorak yakuni sinflar kesimida tahlil qilinib, ota-onalar ishtirokida muhokama qilinadimi? Keyingi chorak vazi-falari belgilanadimi? Pedagogik faoliyatni baholashda pedagogik jamoada xolis tanqid va o‘zini-o‘zi tanqid (qilish) mavjudmi? | |
| 6. | O‘tgan o‘quv yili bo‘yicha o‘zingizning pedagogik mehnatingiz natijalaridan qonikdin-gizmi? | |
| 7. | Ma’muriyat Sizni nazorat qilganda qo‘rquvni his qilasizmi? | |
| 8. | Ishingizdagи muvaffaqiyatsizliklar va muammolarni ma’muriyatga ochiq aytib, o‘rtoq-lashasizmi? | |
| 9. | Ma’muriyat nazorati Sizga shak-shubhasiz foyda beradi, deb hisoblaysizmi? Va hokazolar. | |

Test o‘tkazish bo‘yicha ayrim tavsiyalar

- Test nazorati shaklidan foydalanishda «Sof test» deb atalgan (javoblarni tanlash mumkin bo‘lgan topshiriqdar) shakl bilan cheklanib qolmaslik kerak.
- Ayrim fanlar bo‘yicha testlardan tashqari umumiy o‘quv ko‘nikmalarini anikdashga yo‘naltirilgan testlardan foydalanish maqsadga muvofikdir.
 - Bilim darajalari bo‘yicha testlar.
 - 1 -daraja — o‘zlashtirilgan materialning reproduktiv me’yordagi minimal hajmi.
 - 2-daraja — asosiy dastur bo‘yicha bilimlardan rekonstruktiv me’yorda foydalanish.
 - 3-daraja — qo‘sishma materiallarni jalb qilgan holda, bilimlarni ijodiy qo‘llash.

- 1.Ma'muriyat Sizni nazorat qilganda ko'rquvni his qilasizmi?
 - 2.Nazorat paytida Sizning yutuk, va ijobjiy natijalaringiz e'tiborga olinadimi?
 - 3.Muammolar va muvaffaqiyatsizliklarni maktab ma'muriyatiga ochiq aytib, o'rtokdashasizmi?
 - 4.Faoliyatingiz taxdil qilinayotganda, o'z nuqtai nazaringizni himoya qilish imkoniga egamisiz?
 - 5.Nazorat natijasida, Siz sifatiroq natijalarga erishish yo'llari haqida aniq-ravshan tasavvurga ega bo'lasizmi?
 - 6.Nazoratdan so'ng yaxshiroq ishlayapman, deb ayta olasizmi?
 - 7.Nazorat Sizga shak-shubhasiz foyda beradi, deb hisoblaysizmi? Xulosa Ta'limga sifatini xolis baholash muammosiga bag'ishlangan sakkizinchidarsimiz ham nihoyasiga etmokda. Unda tinglovchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin.
- Birinchi xulosa. Ta'limga muassasasi faoliyatini xolis baholashda qanday mezonlardan foydalanishimiz juda muhimdir. Albatta, bunda dastur materiallarini o'quvchilarining asosiy qismi tomonidan o'zlashtirish darajasi davlat ta'limga standartlari talablariga muvofiq kelishi, pedagogik jamoa ishining murakkabligi oshirilgan dasturlar bo'yicha natijalari, maktablararo olimpiadalar, ko'rikarda ishtirok etish, tarbiyaviy ishlar natijalari kabilar hisobga olinishi maqsadga muvofikdir.

Ikkinci xulosa. Ta'limga muassasalarining yuqori natijalari, shubhasiz, quyidagi omillarga bog'liq: muassasaning moddiy - texnik bazasi, o'quv-uslubiy ta'minlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, kadrlar salohiyatidan foydalanish, axborotlar bilan ta'minlanish, maktab ichki iazorati va shu kabilalar.

Uchinchi xulosa. Biz jadal o'zgarayotgan dunyoda yashayapmiz. Garchi o'quvchilar ta'limga muassasalarida yaxshi o'qisalar ham, ularga chuqur, puxta bilimlar, ko'nikmalar berilsa ham, bu ozlik qiladi. Ta'limga muassasasi o'quvchini mustaqil fikrleshga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdani pozitsiyasiga ega bo'lishga, o'zining fikrini bildirishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashga o'rgatishi darkor. Ta'limga muassasasi faoliyati baholanayotganda mazkur jihatlar, albatta, inobatga olinishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat.
- 2.Dars tahlilida psixologik holatlarni o'rni nimadan iborat?
- 3.Dars tahlilida yo'l qo'yiladigan asosiy xato va kamchiliklar nimadan iborat?
- 4.Darsga tashrif buyurilganda o'qituvchi mahorati qanday baholanadi?
- 5.Darsni turlari va uning mazmuni nimadan iborat?
- 6.Darsni tahlil etishni qanday olib borish maqsadga muvofiq?
- 7.Dars jarayoni tuzilishining samaralorligi nimadan iborat?

10-mavzu: Ta’lim muassasalarida voyaga etmaganlar bilan shug‘ullanishni tashkil etish va nazorat qilish (4 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchilarda ta’lim muassasalarida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etish va nazorat qilish tartibiga oid bilimlarni rivojlantirish

1- guruh uchun topshiriq – O’quvchilarni ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish va chiqarish tartibi

2- guruh uchun topshiriq - Ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olingan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etish

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi, “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarni pg profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagи “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-2833-son qarori ijrosini ta’minalash, Xalq ta’limi vazirining 2018 yil 6 fevraldagи 33-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil egish va nazorat kilish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi asosida umumta’lim maktablarida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar bilan yakka tartibda faoliyat olib borish va ushbu yo‘nalishda tizimli nazorat o‘rnatish ishlarini yanada takomillashtirishni taqoza etadi.

O‘quvchilarni ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish va chiqarish targ‘ibi

Quyidagi toifadagi o‘quvchilar ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olinadi:

o‘rnatilgan tartibda ichki ishlar organlarining profilaktik xisobiga olingan (nazoratsiz yoki karovsiz kolgan; g‘ayriijtimoiy xatti- xarakatlar sodir etganlar;

ixtisoslashtirilgap o‘quv-tarbiya muassasalarida yoki ijgimoiy- huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida saqlanayotgan;

ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarga o‘zrli sabablersiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotgan;

ma’muriy huquqbo‘zarliklar sodir etgan; amnistiya akti asosida yoki kilmish yoxud shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘kotganligi sababli yoki aybdor o‘z kilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi yoxud yarashilganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga etmaganni jazo kullamasdan turib tuzatish mumkin deb e’tirof etilgan xollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan;

ijtimoiy xavfli kilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmanlar yoxud ruxiy kasallik bilan bog‘liq bo‘lman holda rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab etishga qodir bo‘lman;

jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lman extiyot chorasi qo‘llangan; majburlov choralari qo‘llangan holda jinoiy jazodan ozod qilingan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan, shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligi sababli yoki aybdor o‘z kilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan yoxud amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilingan; xukmning ijrosi kechiktirilgan;

shartli xukm qilinganlar, axlok tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan maxrum qilish bilan bog‘liq bulmagan boshka jazo turlariga hukm kilingan; jazoni ijro etish muassasalaridai ozod etilgan yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan kaytib kelgan;

ruxiy kasallik tufayli soglikni saklash muassasalarida xisobda turgan va huquqbo‘zarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan) o‘quvchilar;

tarbiyasi og‘ir, janjalkash, guruhbozlikni targ‘ib qiluvchi o‘quvchilar; maktabning ichki tartib va odob-axlok qoidalarini muntazam ravishda bo‘zuvchi o‘quvchilar;

dars jarayoniga sababsiz kelmayotgan, muntazam dars qoldiruvchi, darslardan qochib ketuvchi va chet elga noqonuniy chiqib ketgan o‘quvchilar;

notinch oilalar farzandlari;

huquqbo‘zarlik va gayriijtimoiy xatti-xarakatlarni sodir etishga moyil bo‘lgan o‘quvchilar;

ta’lim muassasalariga taqiqlangan buyumlar (o‘tkir tig‘li jismlar, o‘yin kargasi, turli zararli kimyoviy moddalar va pirotexnik vositalar, maxsus gaz sachratuvchi moslamalar, ma’naviyat va xulqka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi boshka predmetlar)ni olib kirgai yoki olib kirishga o‘ringan o‘quvchilar;

“Uquvchi” reydi davomida aniklangan o‘quvchilar;

o‘quvchilar orasida o‘tkazilgan psixologik so‘rovnomalar natijasida ruxiy xolatida sachbiy o‘zgarishlar aniqlangan o‘quvchilar.

Ichki ishlar profilaktik hisobiga olingan o‘quvchilar mazkur hisobda turgan muddatda ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga xam olinadi.

Uquvchilarni ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish sinf rahbari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining bildirishnomasi yoki ichki ishlar organining profilaktik xisobga olganligi haqidagi qarori asosida ta’lim muassasasi direktorining buyrugi bilan rasmiylashtiriladi.

Uquvchini ichki nazorat ro‘yxatiga olish haqidagi buyruqda o‘quvchi bilan

yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas’ul xodim(lar) haqidagi ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi shart.

O‘quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas’ul xodim sifatida sinf rahbari, maktab psixolog, yoshlar etakchisi yoki tajribali pedagoglardan bir nafari (zarur xollarda bir necha mas’ul) biriktiriladi.

Uquvchilarni ichki nazorat ro‘yxatidan chiqarish ularnipg xulqida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zatilganda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tegishli sinf rahbari va o‘quvchiga biriktirilgan mas’ul xodimning birgaliadagi bildirishnomasi yoki ichki ishlar organining profilaktik xisobdan chiqarish haqidagi qarori (shunday xisobda turganlar uchun) asosida ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Bildirishnomada o‘quvchi bilan olib borilgan yakka tartibdagi profilaktik, tarbiyaviy ishlar va ularning natijalari asoslangan holda ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatida turgan o‘quvchi o‘qishini boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirgan taqdirda, uning “ijtimoiy pasporti” (u bilan yakka tartibda olib borilgan ishlar haqidagi ma’lumot ilova qilingan holda) boshqa hujjatlari bilan birgalikda tegishli ta’lim muassasasiga yuboriladi.

Ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olingan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etish

Ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olingan o‘quvchilarga biriktirilgan mas’ul xodimlar o‘quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi.

Mas’ul xodim tegishli o‘quvchi(lar) bilan yakka tartibda shug‘ullanish bo‘yicha o‘z ish rejalarini tuzadi. Ish rsjalar ta’lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Ish rejada anik muddatlar ko‘rsatilgan holda kuyidagilar nazarda tutilgan bo‘lishi lozim:

o‘quvchining kizikishlarini inobatga olgan holda kayei tugarak(lar)ga jalb qilish;
o‘quvchining davomatini kunlik nazorat qilish;
darslarni o‘zlashtirishga amaliy yordam ko‘rsatish;
to‘garaklarga katnashishni muntazam o‘rtanib borish;
o‘quvchi bilan yakka tartibda olib boriladigan suxbatlar mavzularini ko‘rsatish;
profilaktika inspektori, fukarolarni o‘zini o‘zi boshkarish organi faollari bilan birgalikda o‘quvchining oilaviy sharoiti bilan tanishish;

o‘quvchining ota-onasi yoki ularning urnini bosuvchi shaxslar (bundan buyon matnda ota-onalar deb yuritiladi) bilai yakindanhamkorlik o‘rnatish» suhbatlashish. ularga farzand tarbiyasi bo‘yicha pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish;

o‘quvchidagi ijobiy (yoki salbiy) o‘zgarishlarni kayd etib borish;
zaruriyatdan kelib chikkan holda boshqa tegishli masalalar.

Mas’ul xodim tasdiqlangan reja asosida o‘quvchi bilan olib borilgan barcha profilaktik ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlab borish uchun alohida yig‘majild shakllantiradi.

Mas’ul xodim biriktirilgan o‘quvchi bilan profilaktik va tarbiyaviy ishlarni olib borishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari, tegishli sinf rahbari, maktab psixologgi, yoshlar etakchisi, shuniigdek, tegishli fan o‘qituvchilarini va to‘garak rahbarlari bilan yakin hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

Ta’lim muassasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish an o‘quvchilar bilan ta’lim muassasasida umumiyligi profilaktik tadbirlarni amalga oshiruvchi xodimlarning asosiy vazifalari.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosarining asosiy vazifalari:

biriktirilgan mas’ul xodimlarga, sinf rahbarlari va psixologgi tegishli metodik yordam ko‘rsatish;

o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan suxbatlar olib borishda ishtirok etish;

ta’lim muassasasida tashkil etiladigan turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarga ichki nazorat ro‘yxatidagi o‘quvchilarning jalb etilishini ta’minlash;

o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan tajribali pedagog xodimlar. ta’lim muassasasi xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, xududiy profilaktika inspektori va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi faollari bilan suhbatlar uyuştirish;

ta’lim muassasasi huzuridagi “Oila-maxalla-ta’lim muassasasi” xamkorligi jamoat Kengashi yig‘ilishlarida tarbiyasi og‘ir, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar ota-onalarining farzand tarbiyasidagi mas’uliyatsizliklarining muhokama qilib borilishini tashkil etish;

ichki nazorat ro‘yxatida turgan xar bir o‘quvchining xulqidagi ijobiy o‘zgarishlar va ular tomonidan erishilgan har bir yutukning e’tirof etilishi va ragbatlantirib borilishini ta’minlash.

Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari:

“Tarbiyaviy soat”larda o‘quvchilarda sog‘lom fikrlash, tibbiy madaiiyat, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, odob-axlok koidalariga rioya etish, darslarga jiddiy tayyorlanib kelish, bo‘sh vaqtlarida to‘garaklarga katnashish va kitobxonlikni targib qilish;

ta’lim muassasasi va undan tashkarida o‘quvchilar tomonidan takiklangan buyumlar (o‘tkir tigli jismlar, uyin kargasi, turli zararli kimyoviy moddalar va pirotexnik vositalar, maxsus gaz sachratuvchi moslamalar, kimmatbaxo buyumlar, ma’naviyatga va xulqka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi boshka predmetlar)ni olib yurish mumkin emasligi haqida doimiy tushuntirish ishlarini olib borish;

o‘quvchilarning oilaviy sharoitini o‘rtanish va ota-onasiga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish;

o‘quvchining kizikishlarini e’tiborga olgan holda tugaraklarga jalg qilish;

o‘quvchini ta’lim muassasasi va sinf mikyosida utkaziladigai turli madaniyma’rifiy tadbirlarg a muntazam ravishda jalg qilish;

o‘quvchining bush o‘zlashtirayotgan fanlar bo‘yicha faoliyatini muntazam taxlil kilib borish, fan o‘qituvchisiga darslarda ushbu o‘quvchini faollashtirish yuzasidan kerayuti tavsiyalar berish;

o‘quvchilarning darslarga tulik o‘quv kurollari bilan ishtirok etishi va davomatini, shuniigdek odob-axlok koidalariga rioya qilishini kunlik nazorat kilib borish;

o‘quvchilar maktabga kelmay kolgan xolatda zudlik bilan shu kunning o‘zida (bir navbatdagi maktablarda soat 10:00 gacha, ikki navbatli maktabda soat 15:00 gacha) ularning ota-onalari bilan telefon orqali bog‘lanib, vaziyatgaoydinlik kiritish, ota-onasi bilan bog‘lanish imkonni bo‘lmaganda, ta’limmuassasasi rahbariyatini ogoxlantirish;

o‘quvchining o‘qishi va xulqida ko‘zatilayotgan xar kanday o‘zgarishlarpi ularning ota-onalari va maktab rahbariyatiga ma’lum qilish;

o‘quvchining xulqidagi va fanlarni o‘zlashtirishidagi xar kanday ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish.

Ta’lim muassasasi nsixologining asosiy vazifalari: sinf rahbarlari bilan birgalikda o‘quvchilarning “ijtimoiy pasporti”ni (o‘quvchi vauning ota-onasi, oilaviy sharoiti to‘g‘risida to‘la ma’lumotlar banki) o‘quv yili boshida tuzish va uni tizimli ravishda (har chorakda) yangilab borish;

ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olingan o‘quvchilar uchun alohida yig‘majild shakllantirgan holda ular bilan tizimli ravishda yakka tartibda psixologik suxbat (xaftada kamida 1 marta) va so‘rovnomalar (oyda kamida 1 marta) o‘tkazish;

o‘quvchining xulqini va tarbiyasini ijobiy tomonga o‘zgartirish bo‘yicha xamda ijtimoiy moslashtirish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida turli psixologik metodlar orqali ularning kizikishi, kobiliyati va imkoniyatini xisobga olgan holda sinf rahbari, yoshlar etakchisi bilan hamkorlikda tegishli tadbirlarni amalga oshirish;

o‘quvchi bilan amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida o‘quvchilarning ruxiyatida ko‘zatilayotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida uning ota-onasini xabardor qilish va bu borada ular bilan hamkorlik qilish;

o‘quvchining ota-onasiga farzand tarbiyasi bo‘yicha pedagogik-psixologik yordamlar ko‘rsatish va boshqa tegishli vazifalarni amalga oshirish va uni monitoringini olib borish.

Nazorat uchun savollar:

1.O‘quvchilarni ta’lim muassasasining ichki nazorat ro‘yxatiga olish va chiqarish

tartibi deganda nimani tushinasiz?

- 2.Ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olingan o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanishni qanday tashkil etiladi?
- 3.Ichki nazoratda turgan o'quvchilar bilan ishlashda maktab direktor o'rinnbosarining vazifasi nimadan iborat?
- 4.Ichki nazoratda turgan o'quvchilar bilan ishlashda maktab direktor o'rinnbosarining vazifasi nimadan iborat?
- 5.Ichki nazoratda turgan o'quvchilar bilan ishlashda maktab direktor o'rinnbosarining vazifasi nimadan iborat?

11-mavzu: Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan vazifalar(2 soat amaliy mashg'ulot)

1. topshiriq Sababsiz dars qoldirish va uni bartaraf etish bo'yicha olib borgan ish tajribangiz
2. topshiriq O'quvchilarni sababsiz dars qoldirishini oldini olish yo'llari.

Mazkur metod biron o'quv muammosini echish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Muammoli vaziyatning qo'yilishiga qarab rollar ham o'zgaradi.

«T» - CHIZMA

«T» – **chizma** – ma'lum bir masalani ikki tomonlama taqqoslash asosida tahlil qilish uslubidir. Juft (ijobiy / salbiy; ha / yo'q; rozi / qarshi kabi) javob yoki taqqoslashlarni qayd etuvchi serqirra yozma ishni tashkil etishda, ko'maklashuvchi usuldir. Misol uchun:

Taklif etilayotgan yangi model

| Ijobiy tomonlari | Salbiy tomonlari |
|------------------|------------------|
| | |

Muammoli vazifalar usuli

O'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu usulning etakchi funksiyalari: a) o'rgatuvchi: bilimlarni dolzarblashtirishga asoslangan; b) rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida dalillar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantirish; v) tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, materialni o'quvchilar uchun dolzarbroq qilish, nazariyani amaliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga asoslangan: ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki bu materialni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslangan.

Muammoli vazifa hayotdan olingan faktlarni, ma'ruza va vaziyatni o'rganishdan, alohida insonlar yoki tashkilotlarning manfaatlarini ko'zlashdan iborat bo'lishi mumkin. Lekin, nima bo'lsa ham, vazifa biz o'quvchilarga taklif etgan muammo ko'rinishida bo'lishi lozim.

Munozarali hamkorlikdagi izlanish

Munozara turi. Muhokama qilinadigan mavzu oldindan o'qituvchi tomonidan tayyorlanib boriladi, maqsad o'rtaga tashlanayotgan mavzuni chuqur tahlil qilish va o'rganish. Alovida bir mavzu yoki mantdagi muammolar asosida yoki badiiy va shunga o'xshash matn turlarida o'tkaziladi.

1. Matndagi tasvirlangan voqealar zanjiri asosini tashkil qiluvchi savollar.
2. Matnning mazmuni va tasviriy tizimi asosidagi savollar.
3. Tarkibiy qismdagi keskin farqlari asosidagi savollar.
4. Savolar-takliflar (qarama-qarshi tomonini o'qish).
5. Ma'lum muammoga turli xil yondashuvdagi ikki matnni birgalikda birlashtirishga undaydigan savollar.

Mustaqil bo'lmagan o'quvchilarni muallif tomonidan beriladigan baho va

12-mavzu: Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan faoliyatni tashkil etish va boshqarish (2 soat amaliy mashg'ulot)

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: tinglovchilarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan faoliyatni tashkil etish Amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda turli interfaol metodlardan foydalaniladi.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN NAZARIY MATERIAL
O'qituvchilarning past o'zlashtiruvchi bolalar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini rivojlantirish

Ta'lrim muassasalarida tashkil etiladigan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ko'proq shaxsga

yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ularning mustaqil ta’lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning boshlang‘ich tushunchalarni o‘rganish asosida tushunchalarning ilmiyligi, yangiligi va ishonchlilagini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta’minalash, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida axborotlar almashinuviga alohida e’tibor qaratish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur:

- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni o‘qituvchilar faolligi va mustaqil ta’lim olish faoliyatiga bog‘liqligiga;
- ta’lim muassasasida o‘qituvchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning ahamiyatligiga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligiga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida qayta aloqaning o‘ziga xos ahamiyati va zaruriyati;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining protsessual tomoniga, ya’ni to‘g‘ri va teskari jarayonlarning mavjudligiga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ularda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish, ya’ni o‘quv motivlarini shakllantirshning zaruriyatiga;
- o‘qituvchilarda ijobiy o‘quv motivlarini shakllantirishning samaradorligi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalashiga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari samaradorligining motivlashtirishga bog‘liqligiga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida axborotlarning yangiligi va ishonchliligi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri o‘qituvchilar faolligini ta’minalash va mustaqil faoliyatini tashkil qilish bo‘lib, mazkur jarayonlar samaradorligi nafaqat ularning malakasini oshirishni tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta’limiy muhitni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta’minalashda o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashi va mustaqil o‘rganishi uchun majburiy ta’limiy muhitni shakllantirish, ularning tushunchalari darajasini hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga moyilligini o‘rganish,

tahlil qilish asosida mustaqil ta'lim olishga ularda qiziqishlarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari komponentlaridan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "inson-inson" munosabatlari shaklida birinchi navbatda ta'lim muassasasi rahbarlarining o'qituvchilar bilan "rahbar- o'qituvchi", o'qituvchilarning o'z o'quvchilari bilan "o'qituvchi-o'quvchi", o'qituvchilarning o'z kasbdoshlari bilan "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlarini, ya'ni mazkur jarayonda o'zaro bevosa ta'sir mavjudligini ko'ramiz.

Ixtiyoriy rahbar o'z xodimlarining barchasi bilan ham doimiy jonli muloqotda bo'lavermasligi aniq. SHunga qaramasda barcha o'qituvchilar, shu qatori o'quvchilar ham rahbarlar bilan doimiy, bevosa o'zaro ta'sirda bo'lishi tarbiyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bunday bevosa ta'sir masofadan turib, muloqotsiz tarbiyaviy jarayonda vujudga keladi va undan rahbar ham, o'qituvchilar hamda o'quvchilar ham bir xilda ta'sirlanishlari mumkin.

Mazkur bevosa ta'sir jarayonining mavjudligini ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonini hamda ustoz-shogird munosabatlarini muvofiqlashtirish zaruriyatini belgilaydi. Chunki bu bevosa ta'sir muloqot jarayonidayoki masofadan turib ham vujudga kelishi mumkinligi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy munosablarning asosiy shakllaridan biri bo'lgan inson- kitob-inson munosabatlarini, ya'ni inson-kitob-inson munosabatlari jarayonida ham o'zaro ta'sir jarayoni mavjudligini inobatga olish o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Chunki malakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, yaratilayotgan yangiliklar, sohalar bo'yicha amalga oshirilayotgan rivojlanishlar, fan va texnika yutuqlari, ta'lim tizimini rivojlantirishga, pedagogik jarayon sub'ektlariga, yoshlarga davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan qaratilayotgan e'tibor, umummilliy qadryatlarni tiklanishi, milliy urf-odatlarni, inson, uning huquq, erkinliklari hamda manfaatlarini qadrlanishi va ularning ahamiyati, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish kabi yo'nalishlarida yozilgan kitoblar, qo'llanma yoki ilmiy-uslubiy maqolalar juda katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy munosabatlarning asosiy shakllaridan biri hisoblangan inson-kitob-inson munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va ularga amal qilish o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari

samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik tizimning asosiy kompetentlaridan biri bo'lgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'qituvchilar o'z maqolalari bilan ishtirok etishi va ma'ruzalar qilishi ularda adabiyotlar bilan mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi, ya'ni dunyoqarashini o'zgartiradi, yozma va og'zaki nutqini rivojlantiradi.

Inson butun umri davomida tajriba orttirib borar ekan, u o'z hayotida duch kelgan muammolar va ularning echimlarini, inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan yangiliklarni qog'ozga tushirib kitob yaratadi va bu kitob ikkinchi bir insonning tarbiyalanishida, hayotda o'z o'rmini topishida eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Rahbarlar va o'qituvchilar yaratgan yangiliklar, ularning ilmiy-ijodiy mehnati, yozgan kitoblari, qullanma yoki ilmiy-uslubiy maqolalari o'z jamoasidagi ta'lim-tarbiyaviy munosabatlarni tartibga solib borishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchilar va o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatda bo'lish, tabiat zahiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi hamda ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, "inson-tabiat-inson" munosabatlariham pedagogik jarayon sifatida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi, masalan, ta'lim muassasasining tashqi ko'rinishi, ya'ni, er uchastkalaridagi mevali va manzarali daraxtlar, gullarning turlari, ularning parvarish qilinishi hamda ularga berilayotgan e'tibor rahbarning reytingiga ta'sir qilish bilan birgalikda o'qituvchi-larning tabiatga bo'lgan munosabatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Inson bilan tabiatning o'zaro ta'sirini anglash va unga e'tibor qaratish shaxs ilmiy dunyoqarashining rivojlanish jarayoni bo'lib, bu jarayonda "inson-tabiat-inson" shaklidagi tarbiyaviy -munosabatlar namoyon bo'ladi va bunda tabiat qonuniyatlarining inson tomonidan o'zlashtirilishi, tabiat qonuniyatlariga oid ta'lim-tarbiya asosida tabiat yaxlitligi hamda atrof-muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

Inson bilan tabiatning o'zaro ta'sirini anglash va unga e'tibor qaratish shaxs ilmiy dunyoqarashining rivojlanish jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda "inson-tabiat-inson" shaklidagi tarbiyaviy munosabatlar namoyon bo'ladi va bunda tabiat qonuniyatlarining inson tomonidan o'zlashtirilishi, tabiat qonuniyatlariga oid ta'lim-tarbiya asosida tabiat yaxlitligi hamda atrof-muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

O‘qituvchilarda o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga, mustaqil ta’lim olishga ijobjiy motivlarini shakllantirish, ya’ni ularda ta’lim olishga, ilm-fanga qizikish shakllantirish va rivojlantirishda inson- texnika-inson munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Ta’lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda slayd, elektron darslik, o‘quv-laboratoriya mashg‘ulotlarining elektron variantlaridan foydalanish o‘qituvchilar tomonidan ma’lumotlarni puxta o‘zlashtirilishiga imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning kompyuter texnikalariga, fan va texnika yutuklariga kizikiishni rivojlantiradi.

Ta’lim muassasasi rahbarlari va o‘qituvchilarning san’atga bo‘lgan qizikishi nafakat boshqaruv jarayoni, balki pedagogik jarayonlar samaradorligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, chunki ta’lim muassasasi rahbarlari va o‘qituvchilarning san’atga qizikishi, san’atga va san’at turlariga bo‘lgan munosabatlardagi shaxsiy namunasi ta’lim muassasasida san’at turlari bo‘yicha to‘garaklarining faoliyat ko‘rsatishida, o‘qituvchilarning turli bayramlarda, ko‘rik-tanlovlarda va fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan kechalarda faol ishtirok etishlarida hamda bunday qobiliyat egalarining o‘z vaqtida rahbarlar tomonidan rag‘batlantirilib bori- lishida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida o‘qituvchilarga turli vositalar orqali ta’sir ko‘rsatish asosida ularning o‘z ustida ishlashiga va o‘zini-o‘zi kasbiy va shaxsiy jixatdan rivojlantirib borishiga kizikishini rivojlantirish muxim ahamiyatga ega bo‘lib, bunday vositalardan biri sifatida o‘qituvchilarning san’atga bo‘lgan qizikishidan foydalanish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ularning san’atga bo‘lgan qizikishlarini inobatga olgan xolda san’atning turli yunalishlaridan foydalanish ularning san’atga bo‘lgan qizikishini rivojlantirish bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘qituvchining san’atga va san’at turlariga bo‘lgan munosabati, turli tadbirlarni tashkil etishdagi faolligi, tashabbuskorligi, turli bayramlarda, ko‘rik-tanlovlarda na fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan kechalardagi ishtiroki rag‘batlantirilib borilishi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlarimiz o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshkarishda o‘qituvchilarga va ulanrinig qiziqishini rinojlantirishga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatuvchisub’ektiv hamda ob’ektiv omillarga alohida e’tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi.

Demak, o‘qituvchining shaxsivakasbiy kompetentligi turli shakllardagi pedagogik jarayonlardashakllaib, rinojlaib boradi va mazkur jarayonlarda tarbiyaviy

munosabatlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, buningeng asosiy sababio‘qituvchilar o‘zaro bir-birini va ustoz o‘qituvchilarning xarakatini, pedagogik faoliyatini kuzatadi, fikrlaydihamda ularningqilgan va qilayotgan ishlaridan xulosalarchiqaradi, dunyoqarashi o‘zgaradi, tushunchalari rivojlanadi.

O‘qituvchilarning kasbiykompetentligini rivojlantirish jarayon- larini tashkil etishda alohida e’tiborqaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri mazkurjarayonlarningo‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi bo‘lib, u malaka oshirish kurslaridan tashqari tashkil etiladigan ta’lim- tarbiyaviy jarayonlarnihamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlariningo‘zaro bog‘likligi va aloqadorligini ta’minalash zaruriyatini belgilaydi.

O‘rganiladigan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minalash ko‘zlangan natijalarga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari va o‘rganiladigan yangiliklarning mazmun- mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib qo‘llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarni tanlash hamda ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarida tashkil etiladigan dars (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, ekskursiya), darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar (davra suhbati, uchrashuv, turli musobaqa va tanlovlар, konferensiya va x-k.), mustaqil ta’lim hamda tarbiyaviy munosabatlar (inson-inson, inson- texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiat-inson, inson-san’at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar) jarayonlarini, shuningdek ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajribasinov ishlari hamda talabalar (oliy ta’lim muassasalari va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalari talabalar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot yaxlit, bir butun dinamik tizim ko‘rinishida, tasavvur qilinib loyixalashtirilishi zarur.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirit jarayonlarini loyihalashtirish va tashkil etishda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta’lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o‘zaro bog‘likligi va aloqadorligini ta’minalash o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirit jarayonlarining o‘zaro bog‘likligi va aloqadorligini ta’minalash mazkur jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruriyatini belgilaydi.

Tizimli yondashuvda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta’lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va

pedagogik tajriba-sinov jarayonlari tizimning komponentlari hisoblanadi. Tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, ixtiyoriy komponentning o‘zgarishi butun bir yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Tarbiyalash mahorati-o‘qitish va tarbiyalash jarayonining bog‘liqligi, uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma’naviy saviyasi qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga. Uning vatanparvarlik, obro‘ va burchni hsi etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek o‘quvchilar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko‘nikmalariga asoslanadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minkaydigan shaxsiy sifatlar-pedagogning o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta’lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o‘qitish va tarbiyalash mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik-pedagogik jihatdan o‘qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog‘liqdir. Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchidagi zaruriy ijtimoiy ko‘nikmalar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- O‘z-o‘zini namoyon qilish
- Boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo‘lish
- O‘z ustida tinimsiz ishlash
- Vaziyatni baholash va muammolarni echish ko‘nikmasiga ega bo‘lish
- Tashkilotchilik, ijodiy yondashuv
- Boshqaruv ko‘nikmasiga ega bo‘lish

O‘qituvchi o‘quv jarayonida maslahatchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

- O‘quvchilarga ko‘nikmalarini o‘qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;

- Turli xil yo‘nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo‘llash kerakligi bo‘yicha maslahat beradi;

- Faol qayta aloqani ta’minkaydi;

- Noan’anaviy usullar bilan o‘quvchilarning harakatlarini qo‘llaydi va mustahkamlaydi;

- O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni engishga yordam beradi;

- O‘quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

- O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

O‘qituvchining rol (vazifalari)i

Fasilitator- inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yordam beruvchi”, “engillashtiruvchi” degan ma’noni anglatadi. Ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o‘quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi

Menejer- o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o‘rganish natiajsida ta’lim-tarbiya jaryoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

Ekspert-aniq mavzu, masala bo‘yicha hakamlik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

Moderator-ma’lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o‘zi aralashmagan holda bir echimga erishishga yordam beradi.

Ma’ruzachi-mashg‘ulot uchun o‘quv materiallarini tayyorlaydi, o‘quvchilarni bahsga chorlaydi, o‘rganish jarayonini motivatsiyalaydi.

Maslahatchi- o‘quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o‘rnlarni aniqlashtirishda yordam ko‘rsatadi.

Trener-o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini tashkil etadi, ularning ma’lum malaka va ko‘nkimalarini rivojlantiradi.

Nazorat uchun savollar:

1.O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda qanday omillarga e’tibor qaratish kerak?

2.“Inson-tabiat-inson” shaklidagi tarbiyaviy -munosabatlar qanday namoyon bo‘ladi?

3.Tarbiyalash mahoratiga nimalar kiradi?

4.O‘qituvchidagi zaruriy ijtimoiy ko‘nikmalar nimalardan iborat bo‘lishi lozim?

5.O‘qituvchining vazifalari nimadan iborat bo‘lishi kerak?

13-mavzu: Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim

muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiysioid bilimlarni rivojlantirish

Oila va mahallaning vazifalari

2 guruh uchun topshiriq - ta’lim muassasalarining vazifalari

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN NAZARIY MASHG‘ULOT

Oila va ta’lim muassasalarining vazifalari

“Oila sog‘lom ekan - jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir” (“Yuksakma’naviyat - engilmas kuch”)

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda,

shubhasiz, oilaning o‘rni va axamiyati beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari bиринчи galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakateri, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar: yaxshilik va ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori ilk bor oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Ota-onaga hurmat, ular oldida umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlar oila muhitida shakllanadi. Oilaviy tarbiya masalasida xatolikka yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma’naviy muhitni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish lozim.

O‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish bilan bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, ahloq- odob, yuksak ma’naviyat, o‘z iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari asosida kasb- hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish oiladagi dolzarb masaladir.

Ushbu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning insoniy burchimizga aylanishi zarur. SHu bois mustaqillik sharofati bilan oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagи ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirishga, uning nufuzini oshirishga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berilmoqda.

Oilaning vazifalari:

Bolalarining ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishlari uchun:

- oilada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;
- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim berish, ularning ma’rifatli va ma’naviyati yuksak kishilar bo‘lib etishishlarini ta’minalash;
- bolalarining qiziqishi, iqtidori va extiyojlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish;
- ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- bolalarining bo‘s sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish va ularning qo‘shimcha. ta’lim olishlariga shart-sharoit yaratish;
- oilada farzandni komil inson qilib tarbiyalashda ota-onalarning bilim darajasini oshirishga erishish;
- bolada tejamkorlik va ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta’minlash;
- bolalarga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;
- ota-onaning ta’lim muassasalari va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgarligini oshirish;
- farzandni oilaviy hayotga tarbiyalashda ular ongiga ajdodlardan o‘tib kelayotgan boy ma’naviy meros, axloq-odob, urf-odat va an’analarni bugungi kun bilan uyg‘unlashtirgan holda singdirib borish;
- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-hunar egallashlari uchun shart- sharoit yaratish;
- oilada bir-birlarini doimiy ravishda o‘zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik, tibbiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy dam olishni to‘g‘ri tashkil etish;
- oilada turli muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda yoshlarni muloqot madaniyatiga o‘rgatish;
- oilada ota-onasi va farzand o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashda turli mavzuda suhbatlar o‘tkazish;
- radio to‘lqinlari, televidenieda berilayotgan kuy va qo‘schiqlar, internet tarmog‘idan olinayotgan ma’lumotlar, disk, telefonlardagi ma’lumot, tasvirlar ota-onalar tomonidan saralanib, bolalarga taqdim etilishi;
- oilada bolaning maktabdan tashqari turli xil ta’lim muassasalaridagi (musiqa va san’at, sport maktablari, “Barkamol avlod” bolalar markazlari, mahallalar qoshidagi turli to‘garaklar markazlari) to‘garak mashg‘ulotlariga jalb etish.

O‘ta o‘qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘ta oladi (Islom Karimov).

Inson hayoti va uning ma’naviyatini to‘g‘ri shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil bu ta’lim-tarbiya tizimidir. Ma’lumki, otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti, millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi, deb bilgan. Albatta, ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.

Maktab, (maktabgacha ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi asosiy qonunimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (41-modda) belgilab qo‘yilgan. SHu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummiliy masaladir. SHuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi

kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, yuksak ma’naviyatli shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish - ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Zero, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Ta’lim va tarbiya - o‘zaro uzviy bog‘liq sharqona tushunchalardir. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi”

Ta’lim muassasalarining vazifalari:

- bolalarga ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o‘rinli foydalanishiga shart-sharoit yaratish;
- ta’lim muassasalarida ahillik, mehr-oqibatlilik, millatlararo do‘stlik muhitini mustahkamlash, bu maqsadga erishish uchun zaruriy shart- sharoit va imkoniyat yaratish;
- ta’lim muassasalari nizomlar asosida joriy qilingan tartibga amal qilish;
- ta’lim muassasalari negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma’naviy va ma’rifiy bilimlar beruvchi “Ota-onalar universitetlari” tashkil qilish va mashg‘ulotlarni turli xil shakl va usulda tashkil etish;
- huquqiy tarbiyani o‘quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan amalgalash; tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ‘ib qilish, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va milliy taraqqiyotimizga zararli boshqa g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;
- o‘quvchi-yoshlarning ta’lim-tarbiya olish jarayonida turli xil chalg‘ituvchi vositalar (ya’ni qo‘l telefonlari, videotasmalar, internet tarmog‘idagi ma’lumotlar, kompyuterdagи o‘yinlar)ning zarari va ularning oqibatlarini oldini olish bo‘yicha keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta’sir etish uchun bo‘layotgan ma’naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish;
- ta’lim muassasalarida yosh avlodning yoshiga mos ravishda milliy mafkuraviy g‘oyalarni singdirishga tabaqlashtirilgan holda yondashish va bu ishni uzluksiz tarzda olib borish;
- yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga shart- sharoitlar yaratish, ularning bo‘s sh vaqtalarini to‘g‘ri tashkil etish;
- o‘quvchi-yoshlar ongiga qayta ishlab chiqilgan, modernizatsiya qilingan darslik va qo‘llanmalar hamda badiiy adabiyotlardagi g‘oyalarni zamon talablari

asosida singdirish;

- ta’lim muassasalarida yoshlarning birorta kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish;
- o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olib, ularni turli sohalar bo‘yicha kasb-hunarga yo‘naltirish va ta’limda tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga uzlucksiz va tizimli yondashishni tashkil etish (maktabgacha ta’lim umumiy o‘rta ta’lim o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi oliy ta’lim);
- yoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatlarini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ezgu maqsadlarga hizmat qilishiga erishish;
- bola tarbiyasi namunali yo‘lga qo‘yilgan oilalarni tegishli muassasalar hamkorligida o‘rganib, tajribalarini ommalashtirish;
- maktabga (kasb-hunar kollejlari va litseylarga) surunkali kelmaydigan o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalari va mahalla faollari hamda hamkorlik kengashi yordamida o‘qishga jalgan etish;
- o‘qishni va ishlashni xohlamaydigan, huquqbazarlik sodir etishga moyil voyaga etmaganlarni ro‘yxatga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko‘rib, hamkorlik kengashida muhokama qilish;
- tarbiyasi og‘ir yoshlar, farzandlar tarbiyasiga beetibor ota-onalar bilan ishslash, oilalarga pedagogik maslahatlar berish;
- imkoniyati cheklangan bolalarni tuman, shahar tibbiyot-pedagogik komissiyasi orqali maxsus maktab-internatlarga joylashtirishga ko‘maklashish;
- ota-onasiz qolgan (etim), ota-onalaridan turli sabablarga ko‘ra mahrum bo‘lib qolgan bolalarni, voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarlik profilaktikasi guruhi inspektorlari orqali tegishli “Mehribonlik” uylariga joylashtirishga ko‘maklashish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni yangicha shakl va usullarda tashkil etish, tarbiyaga bir butunlikda hamda tizimli yondashish;
- o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga tayangan holda oilaviy hayotga tayyorlash;
- ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan barcha tarbiyaviy, ma’naviy- ma’rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarining mahallalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilishiga erishish;
- qizlar uchun “Qizlar klubi”, o‘spirin yigitlar uchun “Uspirinlar klub”, “Muloqot” klublari (har ikkala jinsdagi o‘quvchi, ota-onsa va boshqa turli kasb-hunar egalari ishtirok etishi mumkin) ishini tashkil qilish;
- iqtidorli, ijodkor o‘quvchilarni rag‘batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida

amalga oshirish;

■ bolalarning o‘z o‘quv muassasasi xududini toza, ozoda saqlash va obodonlashtirish (ta’lim muassasalari atrofidagi qarovsiz yotgan erlarda mevali bog‘lar yaratish) ishlariga jalg etish, shanbaliklar tashkil etish;

■ hamkorlikda olib borilgan ijobiy ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Bolaning xarakateri, tabiatи va dunyoqarashini nimalar belgilaydi?
- 2.Bolalarining ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishida oilaning asosiy vazifasi nimadan iborat ?
- 3.Bolalarining ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishida ta’lim muassasalarning asosiy vazifasi nimadan iborat?

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Ta’lim muassasasi direktor o‘rinbosarining faoliyatini o‘rganish hamda o‘zaro tajriba almashish (6 soat)

Mashg‘ulotning maqsadi: Ta’lim muassasasi rahbar o‘rinbosarining faoliyatini o‘rganish hamda o‘zaro tajriba almashish orqali ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Ma’naviy — ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘z faoliyatini reja asosida tashkil qiladi va uning bajarilishini nazorat qilib boradi. Uning ish rejasi maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda maktabning umumiy rejasi, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, bolalar etakchisi, ota-onalarning ish rejalarini muvofiqlashtiradi. Tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiruvchi sifatida ta’lim muassasasining umumiy tarbiyaviy ishlar rejasini shakllantirishda turli tashkilot va muassasalarining ta’lim muassasasi bilan hamkorligini tashkil etadi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi, tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha mahalliy xokimliklar, ota-onalar, davlat va jamoat tashkilotlari, huquq - tartibot idoralari, mahalla fuqarolar yig‘inlari, voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, jamg‘armalar va uyushmalar bilan hamkorlikni e’tiborda tutadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari maktabdan va sinfdan tashqari o‘tkaziladigan barcha tadbirlarni muntazam kuzatib, baholab boradi.

Rejalashtirishda bolalarning yosh hususiyatlari, maktab, u joylashgan viloyat, shahar, tumanning shart-sharoiti, an’analari, hususiyatlarini, joylardagi ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi.

Ta’lim muassasasi jamoasi uchun turli tarbiyaviy faoliyat tadbirlarini rejalashtiradi va tashkil etadi, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, yoshlari etakchilari, fan o‘qituvchilariga uslubiy-amaliy yordam ko‘rsatadi, o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari bilan hamkorlikda faol o‘qituvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishlarini muvofiqlashtiradi, ma’muriyat va o‘qituvchilar bilan pedagogik kengash va pedagogik-psixologik maslahatlar o‘tkazadi, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni tashkil etish va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy- axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtiroychisiga aylantirishga qaratilgan chora- tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o‘rtta’lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta’lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar- Kelajagimiz» Davlat dasturi_qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar etarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar ob'ektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining etishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeい va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darjasini pastligi, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik etaricha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning etishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqdanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning etarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Dasturda yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash; yoshlarni yot g'oyalari ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash; pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish; yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular

o‘rtasida huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish; yoshlari jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilab berildi.

O‘zbekiston yoshlari ittifoqining umumiyligi o‘rta ta’lim maktabidagi boshlang‘ich tashkiloti (keyingi o‘rinlarda boshlang‘ich tashkilot deb yuritiladi) Ittifoqning maqsad-vazifalarini ta’lim muassasasi miqyosida amalga oshiradigan, ta’lim muassasalardagi o‘quvchilar va yosh o‘qituvchilarni o‘z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va haq-huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi. O‘zbekiston yoshlari ittifoqining umumiyligi o‘rta ta’lim maktabidagi boshlang‘ich tashkiloti (keyingi o‘rinlarda boshlang‘ich tashkilot deb yuritiladi) Ittifoqning maqsad-vazifalarini ta’lim muassasasi miqyosida amalga oshiradigan, ta’lim muassasalardagi o‘quvchilar va yosh o‘qituvchilarni o‘z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va haq-huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi. Boshlang‘ich tashkilotlar umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida O‘zbekiston yoshlari ittifoqi hamda “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyatini o‘zaro birlashtiradi. Umumiyligi o‘rta ta’lim maktablaridagi boshlang‘ich tashkilotlar o‘zlarini joylashgan hududdagi Ittifoqning mahalliy Kengashlariga birlashadi.

Boshlang‘ich tashkilotlar, ularning etakchi va sardorlari faoliyat yo‘nalishi, qiziqishi hamda yoshlarning talab-istiklaridan kelib chiqqan holda, Ittifoqning mahalliy va hududiy Kengashlari qoshida o‘z tashkilotlari (uyushmalar, markazlar, klublar, to‘garaklar va hokazo)ni tuzish tashabbusini bildirishi yoki mavjud tashkilotlarga ixtiyoriy qo‘shilishi mumkin.

Boshlang‘ich tashkilotlar faoliyati YOshlar ittifoqining tegishli mahalliy Kengashlari hamda ta’lim muassasasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Boshlang‘ich tashkilotlar faoliyati YOshlar ittifoqining tegishli mahalliy Kengashlari hamda ta’lim muassasasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

VI

KEYSLAR TO'PLAMI

Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o'rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o'qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o'zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko'radi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o'qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. Biroq, o'qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: "Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o'chirgim kelmayapti. Rasm ijodkori - yosh rassom uni qog'ozga ko'chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!".

Keys savollari:

1. O'qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'lladi?

Keys echimi. Bu vaziyatda o'qituvchi o'zining tarjribali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o'zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san'at asari sifatida qabul qildi. Natijada o'qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o'rniga o'zining san'atga bo'lgan muhabbatini ko'rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o'qituvchining irodali, o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o'z-o'zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko'rsatdi. Oqibatda o'quvchilar o'qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini anglatdi. SHu sababli keyingi safar ular o'qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi. Bayon etilgan vaziyatda o'qituvchi: 1) izohlash (o'zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlaridan biri bo'lgan - qo'llab- quvvatlash metodidan foydalandi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarining tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan keys.

Keys bayoni. Tarix fani o'qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi: 1) ma'lumotlarni izchil bayon qildi; 2) zarur o'rnlarda tayanch tushunchalarga alohida urg'u berdi; 3) xaritadan tarixiy voqealar sodir bo'lgan joylarni ko'rsatdi; 4) vaqtı-vaqtı bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi; 5) o'quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig'i. O'qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

Keys echimi. Tarix fani o'qituvchisi qo'llagan metodlar:

- 1) hikoya;
- 2) tushuntirish;
- 3) tasvirlash;
- 4) suhbat;
- 5) namoyish.

Ta’lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keys.

Keys bayoni. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv harakatining;
- 2) zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi;
- 3) dastlabki bajarilishi o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi. Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan.

Keys topshirig‘i. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

Keys echimi. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi;
- 3) o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- 4) zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.

Pedagogik bilimlarni amalda qo‘llash, mavjud ko‘nikma va malakalarni to‘laqonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. Og‘zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiyl madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig‘i. Og‘zaki bayon qilish metodi turlarini “Baliq skeleti” grafik organayzerida ifodalang

VII

GLOSSARY

Adaptatsiya - shaxsning nimagadir maslashishi.

Altruizm - boshqalar farovonligi haqida beg‘araz g‘amxo‘rlik qilish, boshqalar uchun o‘z shaxsiy manfaatlardan voz kechishga tayyorgarlik.

Antropologiya - inson hayot faoliyati tarixiy, etnoruhiy i ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining o‘ziga xos tomonlarini aks ettiruvchi fikrlash faoliyati tarixi. **Ahloq** - kishilarning birgalikdagi hayot faoliyatini ijtimoiy-zaruriy boshqaruvchi, xulq-atvorining ichki mohiyati.

Ahloqiy sog‘lomlik - insonlarning (yoki shaxsning) ma’naviy holati, bu ular dunyoqarashining, hissiyot va olatlarining etugligini ijtimoiy tan olinishidan tavsiflanadi.

Ahloqiy barqarorlik - muloqotda o‘z ahloqiy himoyalanganligidan shaxsiy qanoatlanish, o‘zaro ahloqiy tushunishlik.

Axborotni tushuntirish va berish - tadbirlar va g‘oyalarni ochiq muqokama qilish xodimlar ga islohotlarning zarurligini ular amalga oshirilguncha tushunib etishga yordam beradi. Bunda axborot berishning turli usullaridan, masalan, yakkama-yakka suhbatlar, jamoa oldida so‘zga chiqish, tushuntirish, risolalarini tarqatish va hokazolardan foydalanish mumkin.

Adolat - har kimning shaxsiy qadr-qimmati hurmat etilishini kafolatlovchi ijtimoiy muhofazalanganlik.

Baxt - oliv darajadagi ma’naviy-ruhiy qoniqish holati, to‘lib toshgan sevinch tuyg‘usi. **Buyruq** - rahbarning qo‘l ostidagilarga muayyan topshiriqni bajarish uchun bergen yozma yoki og‘zaki talabi.

Bilimlar tizimi - ilmiy, ilmiy-tarixiy, metodologik, falsafiy, mantiqiy, predmetlararo bog‘liqligi va shu kabilar.

Burch - muayyan ma’naviy majburiyatlarga amal qilish zarurligini idroklash.

Boshqaruv - ishga qobil ijtimoiy tuzilmani tuzish uchun zarur sharoitlarini tanlash va samaradorlashtirish bo‘yicha olib boriladigan va qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun undan foydalaniladigan faoliyat.

Boshqaruv madaniyati - umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma’lum bir ijtimoiy madaniyat matndagi boshqaruv tushunchalari, munosabatlarning o‘zaro ta’sir etishi natijasida shakllanadi va unda qator: an’anaviylik, dolzarblik darjasи, motivlashtirish tizimi; rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati, rahbarning kasbiy madaniyati kabi komponentlardan iborat.

Boshqaruv nazorati - bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo‘lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Vijdon - shaxsning ma’naviy o‘z-o‘zini nazorat etishga va o‘z-o‘zini baholashga

bo‘lgan ehtiyoji, kishilar oldida o‘z xulq-atvori uchun mas’ulligi.

Dunyoqarash - qarashlar, e’tiqod va ramzlar tizimi shaxsning ongi va xulq-atvorini aks ettiruvchi obraz.

Didakdik qobiliyatlar - bu jamoani boshqarishda , turli vaziyatlarda ko‘zlangan maqsadning mazmun va mohiyatini, unga erishish yo‘llarini va mazkur yo‘nalishdagi vazifalarni barcha ijrochilarga aniq va ravshan, tushunarli qilib etkaza olish.

Jamoa - rivojlangan shaxslararo munosabatlar, uyushganlik va umumiyligining maqsadlarga erishishga intilishlik bilan tavsiflanuvchi barqaror ijtimoiy guruh.

Jo‘sinqinlik (temperament) - insonning dinamik o‘ziga xosliklarining tavsifi, tezkorlik, shiddatlik, sur’at, uning ruhiy jarayonlari va holatining maromi.

Inson - ijtimoiy muhitda rivojlanishning nodirimkoniyatlariga ega biologik mavjudot.

Inversion texnologiya - axborotlarni turli tomonidan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, mustaqil fikrlash tizimini shakllantiradi.

Integrallashgan texnologiya - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz, mayda bo‘laklardan tashkil topgan qismlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, yaxlitligi, bir butunligi asosida to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkoniyat beradi.

Insonshunoslik - shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan, uning hayot faoliyati sharoitlarini samaradorlashtirishga qaratilgan nazariy-amaliy, antropologik, tabiiy, gumanitar va badiiy bilimlar tizimi.

Individuallik - insonning bioijtimoiy o‘zigaxosligi, uning takrorlanmasligi.

Insonparvarlik - o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-onalarga do‘stona munosabatda bo‘lish. Ular hurmatini joyiga qo‘yish, e’zozlash.

Inklyuziv texnologiya - o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga xizmat qiladigan texnologiya.

Ishontirish - tarbiyausuli, uning vositasida o‘ziga naltirilganqoidalar, talablarnishaxsonglio‘zgarishga erishadi.

Nutq qobiliyati - rahbarning o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yorlamida aniq va ravon qilib ifodalab berish hamda ularning faoliyatini ma’lum yo‘nalishda o‘zgartirish yoki kerakli yo‘nalishda tashkil qilish qobiliyatidir.

Karera - kasbiy o‘sish, xizmat bo‘yicha yuqorilash, ijtimoiy tanolinish.

Kamolotga intilishning yo‘qligi - o‘z ustida ishlashdan bosh tortgan rahbar qaltis vaziyatdan o‘zini olib qochadi, o‘z imkoniyat va qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlamaydi, tavakkalga bormaydi va eski, odad tusiga kirgan xatti-harakatlari doirasidan chiqolmaydi.

Kommunikativ mahorat - insonlarni to‘g‘ri tushunish, ular bilan hamkorlikda

harakat qilish, muloqot qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalardan tashkil topadi.

Kommunikativ qobiliyat - xodimlar bilan muloqatda bo‘lish, bo‘ysunuvchilarga yondashishi uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik taktikaning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Kompetentlilik - bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni faoliyatiga singdirib borish.

Konstruktivlik - kuchlarni muvofiqlashtirish

Konsepsiya - qarashlartizimi, jarayonlar u yokibuhodisanitushuntirish.

Kooptatsiya - rahbarning fikriga ko‘ra yangiliklarni qabul qila olmaydigan yoki ularga qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxs yoki shaxslar g‘ururiga u yoki bu tadbirlar va yangiliklar yuzasidan qaror chiqarishda etakchi rol berishni nazarda tutadi.

Kognitiv texnologiyalar - o‘quvchilarning atrof-muhit to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirishga qaratilgan texnologiyalardir. Bular tabaqa lashtirilgan tafakkurni shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Kreativ texnologiyalar - tadqiqotchilik xarakteri, xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Mag‘rurlik - o‘zqadr-qimmati, hurmatiniyaxshibilish.

Maqsad -bu vaqtning aniq belgilangan davrida ta’lim muassasasi real erishishi mumkin bo‘lgan, istalgan natijaning muayyan, sifatliy, ayrim hollarda esa, sopolik bilan mikdoriy tavsiflangan qiyo fasidir.

Manevr o‘tkazish - o‘zgarishlarning aniq jadvalini tuzish, ularni bosqichma-bosqich joriy qilishni nazarda tutadi. Tajribada joriy qilishni amalda qo‘llash.

Moslashuvchi (adaptiv) texnologiya - axborotlardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Metodika - biror ishni maqsadga muvofiq holda amalga oshirish metodlari, yo‘llari majmuasidir.

Menejer - mutaxassis tashkiloti, ishbilarmon, ijtimoiy aqliy rahbar.

Menejment - ishlab chiqarishni boshqarish.

Missiya - 1) mas’ul topshiriq, vazifa; 2) maxsus vakil boshchilik qiluvchi bir davlatning boshqa davlatdagi doimiy diplomatik vakolatxonasi; 3) missionerlik tashkiloti.

Munosabat - kishilarning barqaror o‘zaro aloqasi.

Muzokaralar - yangiliklarning ma’qullanishi va qabul qilinishini ta’minlash uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning barcha vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Muloqot etikasi - kishilarga tashqi hurmatli munosabat qoida va yo‘riqlari, unga xayrixohlikning namoyon bo‘lishi.

Monitoringda me’yor (me’yorlash) - monitoringning eng zarur sharti va asoslaridan biri hisoblanib, aniq natijalar aynan u bilan taqqoslanadi. Haqiqiy natijalarning ta’lim faoliyatidagi mezonlar va me’yorlar bilan solishtirilishi, so‘ngra uni mazmun jihatdan baholash va tuzatish kerak bo‘lgan monitoringning zarur tarkibiy qismi va bosqichlaridan biridir.

Monitoringdaan’naviy metodlar - kuzatish, eksperiment, tajribani umumlashtirish va ommalashtirish, so‘rovnoma o‘tkazish, ichki nazorat, natijalarni chizma jadval asosida tahlil etish, jadval va tarixiy tahlil.

Monitoringdanoan’naviy metodlar - o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini reyting tizimi asosida aniqlash, diagnostika qilish (tashxislash) ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini reyting bahosi bo‘yicha aniqlash.

Monitoring ob’ekti - ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan qarorlar-ning bajarilishi, ta’lim muassasasi ish rejasining bajarilishi, o‘quv jarayoni, tarbiya jarayoni, uslubiy ishlar, innovatsion jarayon, o‘quv-tarbiya jarayonini ta’minlanganligi, ta’lim muassasasidagi psixologik xolat.

Monitoring natijalarini rasmiylashtirish - uslubiy qo‘llanma, tavsiyanoma va dars ishlanmasi, o‘qituvchilarning ijodiy hisobotlari, bilim, ko‘nikma va malakalarning chizma ko‘rinishidagi (diagrammalar) tahlili, qatnashchilar yakuniy reytingi, so‘rovnoma, yozma tahlil, yutuqlar va kamchiliklar natijasi hamda muammolar.

Ortobiotika - sog‘liqning o‘z-o‘zi saqlanishi haqidagi fan va kishilar barqaror hayotiy umidvorligining qayta tiklanishi.

Pedagogika - tarbiyachi (murabbiy), o‘qituvchi (murabbiy), darsberuvchi (murabbiy). **Pedagogika predmeti** - ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq turli shakl va turlarda yuz beradigan xodisalar, omillar hisoblanadi.

Pedagogik mahorat - ta’lim jarayoni xususiyatlarini bilish, uni tashkil etish va harakatga keltira olish ko‘nikmasi hisoblanadi.

Pedagogik diagnostikaningbutunlik tamoyili - ob’ektni ma’lum o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan butun bir tizim sifatida ko‘rish lozim, chunki bunday yondashuv ob’ektning amal qilish mexanizmiga kirishga, uning tarkibiy qismlari o‘zaro ta’sir aloqalarining ko‘rinishini tuzishga, uni tugallangan bir narsa sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Pedagogik diagnostikaningbosh zanjir (bo‘g‘in) tamoyili - boshqarish bo‘yicha choralarни ishlab chiqishga va boshqa ahamiyatsiz va tasodifiy omillarning ta’sirini kamaytirishga imkon beradi. Biroq diagnostika qilish dasturini tuzishda diagnostik jarayon vaqtida bosh zanjir qo‘yilgan vazifalarning echilishiga qarab o‘zgarishi mumkinligini hisobga olinadi.

Pedagogik diagnostikaning haqqoniylik tamoyili - hususiyatlarni o‘rganib, ichki va tashqi aloqalarni tahlil qila turib, pedagog mavjud dalillarni tushuntirishga, pedagogik xulosalar chiqarishga, ma’lumotlarga o‘z munosabatini shakllantirishga harakat qiladi.

Pedagogik diagnostikaning determinizm tamoyili - pedagogik holatlarning sabab- shartlarini, ular orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarning turli qonuniyatlarini ta’kidlaydi. Sabab va oqibat orasidagi aloqa bitta holatning ikkinchisini keltirib chiqarishidadir. Shuning uchun ushbu aloqani izlab topish pedagogik diagnostika qilishda sabablarni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostikaning tahlil va sintez tamoyili - tahlil o‘rganilayotgan ob‘ektning xayolan taqsimlanib ketishi sifatida qo‘llaniladi. Tahlil yordamida diagnostika qilinayotgan ob‘ekt qanday mustaqil elementlardan tuzilganligi, qanday aloqalar, munosabatlar bilan tavsiflanishi aniqlanadi. Tahlil ob‘ektning ajratilgan qismlarini xayolan yagona bir jismga birlashtirishga yo‘naltirilgan sintez bilan bog‘liq bo‘lishi sababli, tahlil va sintez diagnostik jarayonda bir-biri bilan uyg‘unlashadi.

Perseptiv qobiliyat - jamoa a’zolarining, pedagogik xodimlarning, shuningdek, o‘quvchilarning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, bo‘ysunuvchilarning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Pokdomonlik - odamlarga, ishga barqaror halol munosabat, g‘ayriahloqiy xulq-atvorni inkoretish.

Pragmatizm- ishning pirovard natijasini ko‘ra bilish va unga erishish, ish vaqtidan unumli foydalanish, barcha ichki va tashqi imkoniyatlarni ishga sola bilish;

Psixologiya - ruhiyat haqidagi fan.

Rahbar madaniyati - rahbar odobi va iqtidori o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish. Bu bog‘lanish odobi, iymon, insof,adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo‘ladi. Rahbarning kasbiy madaniyati deganda rahbarning kasbini bilimdonligi, uning kasbiy boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi.

Rahbar qobiliyati - rahbarda intellektual, kasbiy malaka va ko‘nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o‘z fikrini yaxshi bayon eta olishi-notiqlik, ishontira olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta’sir ko‘rsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Rahbarning pedagogik qobiliyati - bu boshqaruv jarayonida rahbarning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishini belgilaydi.

Rahbar mas'uliyati - rahbar xodimning asosiy xususiyatlaridan biridir. Rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zligiga nisbatan mas'ullik hissidir.

Ruhiyat (psixika) - inson mohiyatini faol aksettirishdan iborat yuqori darajadagi materiyaning tizimli xossasi.

Referentlik - shaxslararo munosabatlar o'zaro xos xususiyati, sub'ektni guruh boshqa a'zolariga bog'liqligini ifoda etadi, uning barqaror ma'naviy qadriyati, an'anasi, etakchiligi.

Rezarius - zahira.

Rivojlantiruvchi inkorporatsiya (tizimli faoliyat ko'rsatish) - turli o'quv fanlarga oid bilimlarni umumlashtirish, ta'limning moslashuvchan shakli, metod va usullarining turli ta'lim muassasalarida qo'llanuvchanligi.

Rivojlantiruvchiuyg'unlik - muayyan o'quv fanlariga oid o'quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakli, metod va usullari bilan uyg'un tarzda bog'lanishi.

Rivojlantiruvchiyaratuvchanlik - turli ta'lim muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari.

Rivojlantiruvchi tabiiylikni his etish - shaxsning genetik va ijtimoiy jihatlariga asoslangan holda o'quvchilarning o'ziga xosligi, shaxsiy xususiyatlari. **Stereotip** - ongda qattiq o'rashib qolgan timsol, qadriyat, xulq-atvor tarzi.

Stil- yo'sin, yo'riq, usul, rag'bat, shaxsga uning mohiyatlarini shakllantirishga ko'maklashuvchi tashqi ruhiy ta'sir.

Strategik ko'ra bilish - tashkilot rivojlanish yo'nalishi kelajagini ko'ra bilish.

Strategiya - tashkilot maqsadiga erishish uchun intiluvchi rahbarning harakat tarzi.

Strategiyani amalga oshirish - qabul qilingan strategiyani amalga oshirish, uni bajarishni qo'llab-quvvatlash va belgilangan natijalarga erishish bilan bog'liq boshqaruv faoliyatining to'la majmui.

Strategik boshqaruv - bu ta'lim muassasasining strategik maqsadi yo'nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir.

Strategik qaror - bunday turdag'i qarorlar ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda muassasaning uzoqqa mo'ljalangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta'lim muassasasining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi.

Strategik rejorashtirish - ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo'lib, bunda

maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va ob'ektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta'siri, fan-teknika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlarini hisobga olish.

Strategik reja - bu muassasada ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish - raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo'nalishida uzoq (uch, besh, o'n yil va undan ko'proq muddatlarni o'z ichiga oladi) muddatlarga mo'ljallangan vazifalarni o'z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo'lib, u ta'lim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Strategik fikrlash - rahbarning ta'lim mazmunini takomillashtirishdagi tendensiya, mavjud va kutilayotgan (ichki va tashqi) samaralar, shuningdek, raqobatchilar bilan solishtirganda muassasaning kuchli va ojiz tomonlarini tahlil qila olish qobiliyati.

Tarbiya - shaxsning ma'naviy va jismoniy holatini muntazam va aniq maqsadli ta'sir o'tkazish jarayoni.

Tahliliy mahorat - ta'lim jarayonini chuqur va puxta tushunish, tizimning eng oddiy va murakkab elementlarini bilish, yaxlitlikni qismlarga ajratish, aksincha, qismlarni yaxlitlash, o'z faoliyatini taftish va tahlil qila bilishdan iboratdir.

Tarafkashlik - bizning faoliyatimiz qanday va biz o'z mijozlarimiz uchun nima qilishni xohlaymiz? - degan savolga boshqaruv javobi.

Tarbiya texnologiyasi - tamoyillarning ilmiy asoslangan tizimi, shaxs ma'naviy dunyosiga, kishilar muloqoti vositalarining shakllanish va amal qilish sharoitlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazuvchi shakl, usul va yo'sinlar.

Ta'limni demokratlashtirish - ta'limning hamma uchun ochiqligi, uning turini va shaklini, o'qitish xarakterini tanlash erkinligini ta'minlash, lekin, avtoritarlik va buyruqbozlik boshqarish modelidan voz kechish;

Ta'limni fundamentlashtirish - materialni bir muncha qat'iy saralash, tizim mazmunini tahlil qilish va uning asosiy komponentlarini ajratib olish hisobiga umumiy va majburiy predmetlar hajmini qisqartirgan (integratsiyalashgan) holda fundamental tayyorgarlikni chuqurlashtirish;

Ta'limni o'quvchilar va o'quv mehnatini individuallashtirish - fakultativ, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan individual ishlash hamda elektiv kurslar sonini ko'paytirish (ya'ni maktab komponentidagi soatlarni ko'paytirish hisobiga), individual reja va dasturlarni yoyish, o'qitish shakli va metodlarini tanlashda o'quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishga erishish

Texnologik mahorat - konstruktiv va tashkilotchilik qobiliyatları bilan bog'liq bo'lib, aniq ish faoliyatini uddalash, ya'ni axborot olish, uni etkazish, ishni tashkil etish va rejalashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Texnologik jarayon - ishlab chiqilgan nazariy yo'nalishdagi pedagogik g'oyalarni

amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini jamoa bilan belgilab chiqish

Topshiriq - maqsadni aniqlashtirish, unga erishish bosqichlari.

Xayrixohlik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarga, ahloqiy ma’yorlarga vijdonan amal qilish.

Shaxs - ijtimoiy mohiyat sifatiga ega bo‘lgan kishi va o‘zligini anglash uquvi.

Evristik texnologiya - o‘quvchiga yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish orqali ta’lim berish tizimi. Ularda topqirlik va faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, izlanuvchanlikka asoslangan ta’lim metodlari yig‘indisi bo‘lib, o‘quvchi tafakkurini rivojlantiradi.

Emotsiya - ruhiy kechinma, qalb hayajoni (g‘azab, qo‘rquv, quvonch va h.k.); insonda ichki va tashqi qo‘zg‘atuvchilarining ta’siri natijasida uyg‘onadi.

Etika - ahloq haqidagi fan.

O‘z-o‘zini tarbiyalash - shaxsning o‘z jismoniy, ruhiy va ma’naviy sifatlarini takomillashtirish bo‘yicha aniq maqsadli faoliyati.

O‘zini - o‘zi boshqara olmaslik - rahbar kadr o‘z faoliyatini rejalshtira va nazorat qila bilmasligi, o‘zini o‘zi baholash, takomillashtirish, o‘ziga-o‘zi buyruq berish, o‘z aqliy va jismoniy zahiralarini ro‘yobga chiqarish imkoniyati yo‘qligi tufayli o‘zini-o‘zi boshkara olmaydi.

O‘qitish metodlari - og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, reproduktiv, mummoli-izlanish, induktiv, deduktiv, mustaqil ishslash, interfaol treningli, masofali va shukabilar.

Farmoyish — pedagogning fani bo‘yicha biriktirilgan sinflarga dars berishda DTS va o‘quv dasturlari asosida chuqur bilim berish masalalarini hal etish bo‘yicha berilgan talab. Farmoyish funksional rahbar (direktor o‘ribbosarlari, metod birlashma rahbarlari) tomonidan ularga o‘z kompetensiyasi doirasida berilgan xuquqlar asosida chiqariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: «Ўзбекистон», 2014 й.
2. “Таълим тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни 1997 йил 29 август. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари, 464-1-сон.
3. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни 1997 йил 29 август. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари, 464-1-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2017 йил 14 январдаги “Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишлари”га бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузалари
5. Ш.М.Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент : Ўзбекистон, 2016.-56 б.
6. Ш.М. Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 104 б.
7. Ш.М. Мирзиёев “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 26-йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маърузаси”. 07.12.2017 йил.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 марта “Умумий ўрта таътим тўғрисидаги Низом” тўғрисидаги 140-сонли Қарори.
10. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “ Умумий ўрта таълимнинг ҳамда Ўрта маҳсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартлани тасдиқлаш
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” ПФ-5198-сон фармони
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2017 йил 2 август куни умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасалари ўртасида ўзаро интеграцияни таъминлаган ҳолда, 11 йиллик ўрта таълим тизимини жорий этиш, касб-хунар таълими тизимини

тубдан ислоҳ қилиш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши.

13. Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 сентябрдаги ПҚ-3276-сон қарори.
14. “Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3290-сон қарори
15. “Ўзбекистон Республикаси Президентининг истиқболли ёш педагог ва илмий кадрларнинг малакасини ошириш “Истеъдод” жамғармаси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони.
16. “Олий таълим муассасаларида педагогика йўналишида махсус сиртқи бўлимларни ташкил этиш тўғрисида” 2017 йил 9 августдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3183-сон қарори
17. “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 2017 йил 27 июль
18. “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги ПҚ-3289-сон қарори.
19. “Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ахборот-коммуникация технологиялари йўналишига оид фанларни чукурлаштириб ўқитишига ихтисослаштирилган мактабни ташкил этиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 сентябрдаги ПҚ-3274-сон қарори
20. “Мирзо Улуғбек номидаги ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаб- интернатини ва “Астрономия ва аэронавтика” боғини ташкил этиш тўғрисида”
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 сентябрдаги ПҚ-3275-сон қарори.
22. “Ёшлирга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-куватлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, №ПФ-5106, 5 июль 2017 йил.
23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3735-сонли Қарори.

24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907 сонли Қарори.
25. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқ таълими тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 5 сентябрдаги ПҚ-3931 сонли Қарори
26. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларини замонавий ягона мактаб формаси билан таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 15 августдаги 666-сон қарори
27. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 7 апрелдаги 107-сонли қарори билан “Мактабгача, умумий ўрта, ўрта маҳсус, касб-ҳунар ва мактабдан ташқари давлат таълим муассасалари педагог кадрларини аттестациядан ўtkазиш тартиби тўғрисидаги низом”” 107-сонли қарори
28. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 2 июндаги “Ўқув асбоб-ускуналари ва анжомларининг хавфсизлиги тўғрисидаги умумий техник регламентни тасдиқлаш ҳақида”ги 345-сон қарори
29. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 7 июлдаги “Умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-ҳунар таълими муассасалари ўргасида ўзаро интеграцияни таъминланган ҳолда 11 йиллик таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш чоралари тўғрисида”ги 94-сонли баёни
30. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йилнинг 12 январ “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” қарори
31. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги қарор
32. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Халқ таълими ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш ва уни моддий рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2005 йил 25 ноябрдаги ПҚ-227-сон қарори,
33. Вазирлар Маҳкамасининг 2005йил 21 декабрдаги “Халқ таълими ходимлари меҳнатига ҳақ тўлашнинг такомиллаштирилган тизимини тасдиқлаш тўғрисида”ги 275-сонли қарори билан ўrnak кўrsatgan ўқитувчиларга устамаларни белгилаш тартиби

34. «Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодекси»
35. Шарифхўжаев М.Ш, Абдуллаев Ё. “Менежмент”. - Дарслик. 2001йил.
36. Йўлдошев Ж.Ғ, Усмонов С. Таълим менежменти.-Т, 2006 йил.
37. Ахлиддинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати.-Т: “Фан”, 2006 йил.
38. Юлдашев М.А., “Халқ таълими ходимларининг малакасини оширишда таълим сифати менежментини такомиллаштириш” докторлик диссертацияси автореферати. 2017й.
39. Пўлатов Ш. Таълим менежменти, ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш технологияси. Тошкент 2017 й., 59бет.
40. К.Тожибоев. Менежмент асослари. Амалий машғулотлар.- Наманган 2006
41. Икрамов М.А., Қўчқоров А.Х. “Стратегик менежмент” Ўқув қўлланма.- Тошкент 2005
42. Муракаев И.У., Саифназаров И.С. Менежмент асослари. Ўқув , қўлланма. Т., 1998 й.
43. Менежмент ва бизнес асослари. Т., «Мехнат», 1997 й.
44. Қўчқоров А. ва бошқалар Менежер имкониятлари. Тошкент, 2001 й.
45. . Гулямов С.С, Семенов Б.Д. Основа современного менеджмента. Т., ГФНТИ, 1997 й.
46. Глухов В.В. “Основы менеджмента” Учебно-справочное пособие. «Специальная литература», Санкт-Петербург, 1995.
47. Валижонов Р., Қобилов О. Менеджмент асослари. Т., «Университет», 1997.
48. Веснин В.Р. Основы менеджмента. Учебник М., «Триада-лтд», 1997.
49. Герчикова И.Н. Менеджмент. М., 1995 й.
50. Ташниёзов М., Шарифбоев И., Обидов О. Корхоналар бошқарув фаолияти асослари. Т., «Ўзбекистон», 1995 й.
51. Боумен К. Основы стратегического менеджмента. М., ЮНИТИ, 1997.
52. Валуев С.А. Игнатьев А.В. Организационный менеджмент. М., 1993 й.
53. Вершигора Е.Е. Менеджмент. Учебное пособие. М., ИНФРА-М., 1998 й.
54. Бахмутский А.Е. Принципы и содержание оценки качества школьного образования // Принципы оценки качества школьного образования при аттестации образовательных учреждений в Санкт-Петербурге: Сборник научно-методических материалов. СПб.: Изд-во ЦПО «Информатизация образования», 2000.
55. Бахмутский А.Е. Мониторинг школьного образования. М.: Изд-во МИОО, 2004.
56. Беркалиев Т.И., Заир-Бек Е.С., Тряпицман А.П. Инновации и качество школьного образования: Научно-методическое пособие для педагогов

- инновационных школ. СПб.: КАРО, 2007.
57. Гуманитарные технологии и компетентностная модель современного педагога: Методические материалы для проведения тренингов руководителей образовательных учреждений / И.С. Батракова, Е.В.Люликова, А.В. Тряпицкий, Т.В. Шербова; Под. Ред.И.С. Батраковой. СПб.: Изд-во им. А.И.Герцена, 2007.
58. Иванов С.А., Писарева С.А., Пискунова Е.В. Мониторинг, статистика, социология в деятельности образовательного учреждения: Учебное пособие. М.: НФПК, 2005.
59. Иванов С.А., Писарева С.А., Пискунова Е.В. Мониторинг, статистика, социология в деятельности образовательного учреждения: Рабочая тетрадь. М.: НФПК, 2005.
60. Иванов С.А., Писарева С.А., Пискунова Е.В. Разработка школьной программы мониторинга качества образования: учебно-методическое пособие для администраторов школ. СПб., 2005.
61. Иванов С.А., Писарева С.А., Пискунова Е.В. Мониторинг образования: учебно-методическое пособие для администраторов школ. М., 2007.